



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI


O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2025 №2(17)



**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan
"O'zbekiston sud ekspertizasi" ilmiy jurnali yuridik va siyosiy
fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.**

MUNDARIJA

Xalilov A.U. Sud ekspertiza sohasi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari: raqamli sud ekspertizaning kelajagi	2
Kudratov S. M. Jinoyat protsessida nodavlat sud ekspertlari ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari.....	5
Maxsodov B.I. Sud ekspertiza qonunchiligini takomillashtirish masalalari.....	9
Yoqubov M.G'. Sud-ekspertiza sohasida innovatsion ishlanmalardan foydalanish imkoniyatlari haqida.....	13
Xo'jayarova N.N. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarliklarini aniqlashda foto va video-texnik ekspertizaning ahamiyati.....	17
Mansurova S.Z. Tovarshunoslik ekspertizasi bo'yicha yangi tadqiqotlar milliy va xorijiy amaliyotda oziq-ovqat mahsulotlari sifatini kompleks aniqlash ekspertizasining uslubi jihatlarini.....	23
Израэлян Г.В. Проблемы совершенствования института экспертизы в кодексе республики Армения об административных правонарушениях.....	29
Ахмедов Б.Б. Полиморфизм системы HLA и его генетическое значение.....	35
Хамраева Ф. К вопросу об установлении экспертными методами факта движения или неподвижности пешехода в момент наезда.....	42
Sarmonov T.G. Jinoyatchilikning oldini olishda davlat siyosatining institutsional asoslari: nazariy-metodologik tahlil.....	46
Latipov S.Sh. Zamonaviy jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari.....	53
Kenjayev J.O. O'zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish amaliyoti.....	59
Zamonov Z.T. O'zbekistonda ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash – ichki ishlar organlari faoliyatidagi muhim jihat sifatida.....	64
Karshiyev Sh.S. Ko'p konfessiyalik sharoitida millatlararo munosabatlarda diniy bag'rikenglik omili.....	74
G'affarov Sh.S. Sport faoliyatining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini.....	79
Murodullayeva N.A. Ota-onalarning teng huquqliligini ta'minlashdagi huquqiy va amaliy muammolar.....	84
Bozorov M.M. Jinoyat protsessida tarjimonning huquqiy maqomi, ularni jalb etishda yuzaga kelgan xarajatlar hamda qoplash tartibi	90

Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi**

Bosh muharrir:
Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rinbosari:
Uchkun UZAKOV
Mas'ul kotib:
Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:
Akbar TASHKULOV
Sherzod RABIYEV
Jamshidxon NURITDINOV
Istam ASTANOV
Narzulla JO'RAYEV
Odil MUSAYEV
Oybek SIROJOV
Eshmuxamad KADIROV
Shuhrat RAXMANOV
Saidillaxodja SAIDXODJAYEV
Shuxrat OTAQULOV
Nilufar XALILOVA
Nadejda KORABLYOVA
Murodjon MAXKAMOV
Sanjar KUDRATOV
Niygora SAITOVA

Mas'ul muharrir:
Husan NISHONOV

Dizayner:
Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:
Malohat TOSHOVA

"O'zbekiston sud ekspertizasi" huquqiy,
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg'ona yo'li ko'chasi.
Telefonlar:
(71) 209-11-55 (153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: www.sudex.uz
e-mail: info@sudex.uz
facebook.com/sudex.uz
telegram.me/sudex.uz

Jurnal 28.06.2025-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

"Reliable Print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

SUD EKSPERTIZA SOHASI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: RAQAMLI SUD EKSPERTIZANING KELAJAGI

XALILOV

*Akram Utamurodovich,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
direktori, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

ANNOTATSIYA

Maqolada globallashuv jarayonida jinoyatchilikning transchegaraviy xarakteri va sud ekspertizasi tizimining zamonaviy talablar hamda yangi xavf-xatarlar sharoitida rivojlanishi masalalari tahlil etilgan. Raqamli ekspertiza, DNK-tahlil metodlari hamda "E-ekspertiza" elektron axborot tizimi kabi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali sud ekspertizasi jarayonlarining samaradorligi oshirilayotganligi, kiberjinoyatlar va raqamli dalillar miqdorining keskin ortishi raqamli sud ekspertizaga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirganligi tahlil qilingan. Biroq, ushbu sohaning rivojlanishida texnologik yangiliklarga tez moslashish, mutaxassislarining malakasini oshirish hamda normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi kabi muammolar mavjudligi qayd etilgan. Xalqaro standartlarni joriy etish, milliy qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro ekspertiza hamkorligini rivojlantirish orqali raqamli sud ekspertizani yanada takomillashtirish zarurligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, jinoyatchilik, sud ekspertizasi, zamonaviy texnologiyalar, akkreditatsiya, xalqaro hamkorlik, raqamli sud ekspertiza, DNK-tahlil, "E-ekspertiza", kiberjinoyat, sun'iy intellekt, Genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO), xalqaro standartlar.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется трансграничный характер преступности в процессе глобализации и развитие системы судебной экспертизы в условиях современных требований и новых рисков. Проанализировано повышение эффективности судебно-экспертных процессов за счет внедрения в практику таких инновационных технологий, как цифровая экспертиза, методы ДНК-анализа и электронная информационная система "Е-экспертiza", резкое увеличение количества киберпреступлений и цифровых доказательств значительно увеличило спрос на цифровую судебную экспертизу. Однако отмечается, что в развитии данной сферы существуют такие проблемы, как быстрая адаптация к технологическим инновациям, повышение квалификации специалистов, а также недостаточная сформированность нор-

мативно-правовой базы. Отмечена необходимость дальнейшего совершенствования цифровой судебной экспертизы путем внедрения международных стандартов, совершенствования национального законодательства, а также развития международного экспертного сотрудничества.

Ключевые слова: Глобализация, Преступность, судебная экспертиза, современные технологии, аккредитация, международное сотрудничество, цифровая судебная экспертиза, ДНК-анализ, “Е-экспертиза” киберпреступность, искусственный интеллект, генетически модифицированные организмы (ГМО), международные стандарты.

ANNOTATION

The article analyzes the transboundary nature of crime in the process of globalization and the development of the forensic examination system in the context of modern requirements and new threats. It was analyzed that the effectiveness of forensic examination processes is being increased through the introduction of innovative technologies such as digital examination, DNA analysis methods, and the “E-expertise” electronic information system, and the sharp increase in the number of cybercrimes and digital evidence has significantly increased the demand for digital forensic examination. However, it is noted that there are problems in the development of this area, such as rapid adaptation to technological innovations, advanced training of specialists, and insufficient formation of the regulatory framework. Consider the need for further improvement of digital forensic examination through the introduction of international standards, improvement of national legislation, as well as the development of international expert cooperation.

Key words: globalization, crime, forensic examination, modern technologies, accreditation, international cooperation, digital forensic examination, DNA analysis, “E-expertise”, cybercrime, artificial intelligence, genetically modified organisms (GMO), international standards.

Bugungi globallashuv jarayonida jinoyatchilik bir lokal chegara doirasidan o'tib, dunyo bo'ylab tez fursatlar bilan tarqalmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilar jinoyatni sodir etishda yangi vositalar va turli moliyaviy sxemalardan dunyoning bir chekkasida foydalansa, qisqa muddatda bu vosita va sxemalar dunyoning boshqa chekkasida ham qo'llanilib, jinoyatlar sodir etilmoqda.

Shunga ko'ra, sud ekspertiza tashkilotlari doimiy ilmiy izlanishda bo'lishi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolarning talab va ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida yangi ekspertiza tadqiqotlari, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda sud ekspertlari malakasini yanada oshirish choralari ko'rishi, o'z faoliyatlarini zamon talablariga mos xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib borishi muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, bu borada sohaviy xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali sud ekspertiza faoliyatida turgan yangi muammolarni tezkor hal etib borish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, X.Sulaymo'nova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi laboratoriyalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida, Markaz laboratoriyalari ISO/IEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiya qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, sohada ilk marotaba “**Sud-ekspertiza**” standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitasi tashkil etilib, MTK-545 “**Sud ekspertiza**” Standartlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashiga hamda ISO/TC 272 “**Forensic Sciences**” xalqaro texnik qo'mitasiga a'zolikka qabul qilindi va uning 19-kuzatuvchisiga aylandi.

Markazimiz **Sud-ekspertiza muassasalarining Osiyo tarmog'i (Asian Forensic Sciences Network – AFSN)**ning 15-yalpi yig'ilishida ishtirok etib, unda AFSNning 65-a'zosi, **O'zbekiston Respublikasi esa 18-davlat** etib tasdiqlanganligi e'lon qilindi.

Sud ekspertizasi **Xalqaro Assotsiyatsiyasining (International Association of Forensic Sciences – IAFS)** 23-yalpi anjumanida Markazimiz **Sud ekspertizasi Xalqaro Assotsiyatsiyasining to'laqonli a'zoligiga** qabul qilindi.

Markazning ushbu xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi hamda ushbu tashkilotlar ishida ishtirok etishi bir qator imkoniyatlar yaratadi.

Jumladan, AFSN va IAFSga a'zo davlatlar bilan sud ekspertiza sohasida yangi innovatsion ma'lumotlarni o'zaro almashish, sohadagi muammolar va ularning yechimi bo'yicha fikr almashish, Markazda o'tkazilayotgan sud ekspertiza tadqiqotlari, uslublari va standartlarini yangi zamonaviy talablari asosida qayta ko'rib chiqish, AFSNning "Forensik Aziya" jurnalida xodimlarining tadqiqot natijalari, maqolalari va tezislari chop etish, AFSN va IAFS shafeligida o'tkaziladigan sohaviy tadbirlarda ishtirok etish hamda a'zo davlatlarning sud ekspertiza muassasalarida malaka oshirish, stajirovka o'quv kurslarini tashkil etish, AFSNning 9 ta texnik ishchi guruhi va Sifat kafolati va standartlar qo'mitasi ishlarida ishtirok etish, sud ekspertiza sohasini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Jahon amaliyotida o'zining yuqori samaradorligini isbotlagan dalillarni DNK-tahlil metodi bilan olish huquqni muhofaza qilish faoliyatida ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanishning yangi istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli hududlarimizda ham ushbu yo'nalishni rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Samarqand, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida **Odami DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyalari** faoliyati yo'lga qo'yildi, Surxondaryo viloyatida esa yangi laboratoriya tashkil qilish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

DNK tahlillaridan keng va yanada samarali foydalanish uchun ayrim toifadagi shaxslarning, xususan potentsial jihatdan jinoyatlarni sodir etishga moyilligi bo'lgan shaxslar DNK profilining ma'lumotlar bazalarini yaratish maqsadida Markazda "DNA expert" avtomatlashtirilgan dasturiy kompleksidan iborat bo'lgan DNK ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan. Hozirda laboratoriya ma'lumotlar bazasiga bir necha turkumlar bo'yicha jami **50 mingdan** oshiq genotiplar kiritilgan. **So'nggi yillarda** ushbu baza yordamida nafaqat mamlakatimizda, balki yaqin xorij davlatlarida shaxsga qarshi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan o'ta xavfli jinoyatchilarning hamda shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi.

Shuningdek, voqea joyida qoldirilgan biologik izdan uning egasini fenotipik belgilari – sochi, ko'zi, tanasining rangi, uning irqi, taxminiy bo'y-bastini aniqlash imkonini beruvchi **NJS** texnologiyalari Markaz faoliyatiga joriy etilib, jinoyatlarni tezkor ochishda o'zining samarasini bermoqda.

Bundan tashqari, Markazda Sport genetikasi va irsiy kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni yo'lga qo'yish yuzasidan tegishli ishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqot yordamida bolaning genetik darajada qanday jismoniy faoliyatga moyilligini aniqlash mumkin.

DNK ajratish, polimeraza zanjirli reaksiya jarayonlarini avtomatlashtiruvchi texnik vositalar, barcha laboratoriya uskunalarini bir-biri bilan bog'lovchi va inson omilini kamaytiruvchi "LIMS" dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ham Markazimizda tegishli amaliy choralar ko'rilmoqda.

Sud ekspertlari va ekspertiza to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish, ekspertiza harakatlarini amalga oshirishga aloqador tashkilotlar bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta'minlashga mo'ljallangan **"E-ekspertiza"** elektron axborot tizimi ishga tushirildi.

Mazkur elektron tizim ishga tushishi natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar va sud ekspertiza tashkilotlarining **o'zaro hujjat aylanishida va uning xavfsizligini ta'minlashda ijobiy natijalarga erishilmoqda.**

So'nggi paytlarda dunyoning ko'pgina mamlakatlari oziq-ovqat do'konlarida genetik modifikatsiyalangan organizm (GMO)lar mavjud mahsulotlarning **turi va soni ortmoqda.**

Biroq GMO mahsulotlarini iste'mol qilishning ziyon va xavflari haqida ayrim ma'lumotlar mavjud. GMO mahsulotlarini nazoratdan o'tkazmasdan foydalanish nafaqat aholi salomatligiga, balki kelajak avlod salomatligi va millat genofondiga jiddiy xavf solishi mumkin.

Shunga ko'ra, Markazimizda Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) ekspertizasini joriy etish, buning uchun lozim bo'lgan uslubiyotlarni ishlab chiqish, xodimlarning bu borada malakasini oshirish hamda zarur bo'lgan texnologiyalar bilan ta'minlash, shuningdek, Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) munosabatini tegishli normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Markazimiz huzuridagi **Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining** fuqarolarimiz hamda sud-tergov organlarining sud ekspertiza xulosalariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida keyingi **5 yilda 20 ta** yangi ekspertiza turlari Markazning ekspertlik amaliyotiga joriy etildi. Natijada Markazda amalga oshiriladigan sud ekspertiza turlari **44 tadan 64 taga oshgan bo'lsa, mutaxassislik yo'nalishlari 106 taga yetdi.**

Bugungi kunda Markaz tomonidan xorijiy va mamlakatimizdagi oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot hamda sud ekspertiza muassasalari bilan hamkorlikda **30 dan** ortiq ilmiy-tadqiqot ishlari, shu jumladan **yangi ekspertiza turlarini yaratish va** amaliyotga joriy qilish bo'yicha ham keng qamrovli ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, bugungi global raqamli transformatsiya jarayoni barcha ijtimoiy institutlarga, shu jumladan, huquqni muhofaza qilish tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir, ayniqsa, sud ekspertiza sohasi misolida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Chunki zamonaviy jinoyatchilik shakllarining murakkablashuvi, kiberjinoyatlarning ko'payishi va raqamli dalillarning sud-huquq amaliyotiga kirib kelishi bilan bir vaqtda, ekspertiza tizimining funksional imkoniyatlari va metodologik yondashuvlari tubdan yangilanishining dolzarbligi oshmoqda.

Bugungi kunda sud ekspertizasi nafaqat fizik obyektlar bilan ishlaydi, balki katta hajmdagi raqamli ma'lumotlar, bulutli tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va axborot tizimlari bilan ham faol duch kelmoqda. Shu bois, sud ekspertizasining yangi paradigmasi – **raqamli sud ekspertizaning yangi yo'nalishlari** amaliyotga kirib keldi.

Ma'lumki, raqamli sud ekspertiza – bu jinoyatga oid muhim dalillarni raqamli qurilmalardan olish, qayta tiklash, tahlil qilish va huquqiy tartibda taqdim etish jarayoni hisoblanadi hamda ushbu sohada qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlar aniqlik, izchillik va huquqiy qoidalar asosida shakllangan bo'lib, ular har bir bosqichda aniqlangan ma'lumotlarning ishonchlilikini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishda jahon tajribasi va ilg'or texnologiyalar asosida izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda respublikamizda zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan sud ekspertiza laboratoriyalari tashkil etildi. Bu laboratoriyalarda kompyuter texnikalari, mobil qurilmalar, tarmoq ma'lumotlari, raqamli tasvir va ovozli yozuvlar us-

tida ekspertiza tadqiqotlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga bugungi kunda mamlakatimiz sud ekspertiza sohasida **sun'iy intellekt algoritm-laridan foydalanish** bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa sud ekspertiza jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlar (BIG DATA), ovozli va video ma'lumotlarni tahlil qilish va solishtirish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Bu uslublar orqali ekspert nafaqat dalilning mavjudligini, balki uning ishonchlilik, yaxlitligini ham aniqlash imkoniga ega bo'ladi.

Ayrim statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz:

Statistika portali ma'lumotlariga ko'ra, **2024-yilda dunyo bo'yicha har 39 soniyada** bitta kiberhujum sodir bo'lgan.

Interpol hisobotiga ko'ra, kiberjinoyatlar **2024-yilga kelib dunyo bo'yicha jinoyatlarning 35%** dan ortig'ini tashkil qilgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari Sud ekspertiza Milliy markazining ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil yakunlariga ko'ra, **tergov ishlarining 60% dan ortig'ida raqamli dalillar asosiy rol** o'ynagan.

Ushbu ma'lumotlar raqamli ekspertizaga bo'lgan talab ortib borayotganini va uni huquqiy isbotlash vositasi sifatida tan olish zarurligini ko'rsatmoqda.

Raqamli sud ekspertiza imkoniyatlaridan keng foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

dalillarni tez va samarali tahlil qilish. Raqamli vositalar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlar tezkorlik bilan tahlil qilinadi. Bu tergov va sud ishlari ko'rib chiqilishini sezilarli darajada tezlashtiradi.

o'chirilgan ma'lumotlarni tiklash imkoniyati. Raqamli ekspertiza maxsus vositalar orqali o'chirilgan fayllar, chatlar, SMSlar yoki tarmoq faoliyatini tiklab bera oladi. Bu esa jinoyatga aloqador izlarni yo'qotib yuborishni deyarli imkonsiz qiladi.

xolislik va ishonchlilik. Raqamli sud ekspertiza tizimlari inson omili sabab yuzaga keladigan xatolikning oldini oladi. Avtomatlashtirilgan tahlil vositalari orqali olingan tadqiqot natijalari aniq va hujjatlashtirilgan bo'lib, ularni istalgan vaqtda qayta tekshirish mumkin bo'ladi.

obyektlar bilan masofadan ishlash va global integratsiya. Bulut texnologiyalari va tarmoq asosidagi vositalar yordamida ekspertlar dunyoning istalgan nuqtasidan raqamli dalillarni o'rganishlari mumkin. Ayniqsa transmilliy kiberjinoyatlarni tergov qilishda bu yondashuvdan foydalanish katta



ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, raqamli sud ekspertiza rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud: Xususan, **birinchidan** raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanayotganligi va raqamli ma'lumotlar hajmining keskin ortishi.

Bu o'z navbatida mavjud vositalar va uslubi-yotlarni qisqa muddatlarda va doimiy yangilab borishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, raqamli dalillar bilan ishlovchi xodimlarning texnologik ko'nikmalariga bog'liqligi. Raqamli dalillarni noto'g'ri olish va saqlash ularning yo'qolishigacha bo'lgan holatni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchidan, normativ-huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi. Aksariyat davlatlar qonunchiligida sun'iy intellekt sohasi huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi.

Shu o'rinda soha rivoji uchun muhim bo'yicha quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

raqamli dalillarni to'plash, tahlil qilish, saqlash va taqdim etishda yagona yondashuvlarni yaratish maqsadida raqamli ekspertizaning umumiy texnik standartlarini hamkorlikda joriy qilish;

sun'iy intellekt sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida milliy qonunchilikni takomillashtirish;

raqamli sud ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Bunda asosiy e'tiborni mutasaddi xalqaro tashkilotlar negizida alohida tajriba almashish platformasini tashkil etish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha sud ekspertlari malakasini oshirish yuzasidan tizimli hamda doimiy hamkorlik o'rnatishga qaratish kerak;

sun'iy intellekt, kripto-aktivlar, lokal va global tarmoqlar, zararli dasturlar yordamida sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni fosh etishda foydalaniladigan sud ekspertiza tadqiqotlari uslubi-yotlarini respublika va yetakchi xorijiy sud ekspertiza muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda sud ekspertizasi doimiy va jadal rivojlanayotgan sohalaridan sanalib, u moslashuvchan bo'lishi va hayotimizdagi har qanday yangilik hamda o'zgarishlarga darhol javob bermog'i lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/mact/-1633102>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/acts/-5491507>

JINOYAT PROTSESSIDA NODAVLAT SUD EKSPERTLARI ISHTIROKINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

KUDRATOV

*Sanjar Marupovich,
O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazining
Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot
instituti bo'lim boshlig'i v.b.,
2-darajali yurist*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat olib borayotgan nodavlat sud ekspertlarining huquqiy maqomi, kasbiy faoliyati, jinoyat jarayonida ishtirok etishning o'ziga xos jihatlari hamda mazkur sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maxsus bilim, sud-ekspertlik faoliyati, qonunchilik, jinoyat protsessi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, nodavlat sud eksperti, huquqiy maqom, sud ekspertizasi xulosasi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются правовой статус негосударственных судебных экспертов, осуществляющих деятельность на территории Республики Узбекистан, их профессиональная деятельность, особенности участия в уголовном процессе, а также предложения по совершенствованию законодательства в этой сфере.

Ключевые слова: специальные знания, судебно-экспертная деятельность, законодательство, уголовный процесс, негосударственная судебно-экспертная организация, негосударственный судебный эксперт, правовой статус, заключение судебной экспертизы.

ANNOTATION

This article examines the legal status of non-governmental forensic experts operating within the territory of the Republic of Uzbekistan, their activities, specific features of their participation in criminal proceedings, and proposals that should be introduced within the framework of legislation.

Key words: special knowledge, forensic activities, legislation, criminal procedure, non-state forensic organization, non-state forensic expert, legal status, forensic expert opinion.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichi fan va texnikaning evolyutsion taraqqiyoti bilan tavsiflanadi, bu esa jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga, jumladan, jinoyat sudlovi sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Ilmiy va texnik yutuqlar o'z mohiyatiga ko'ra maxsus bilimlar hisoblanib, jinoyat sudlov ishlarini yuritishda maxsus maqomga ega bo'lgan alohida tashuvchilarning mavjudligini taqozo etadi. Jinoyat-protsessual qonunchilikda maxsus bilimlarni o'zida mujassam etgan shaxs sifatida sud eksperti e'tirof etilgan.

Sud ekspertizasi natijalari fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilishda, barcha mamlakatlarda jinoyatlarning oldini olish va ochishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, har qanday jinoyat ishini ochish va tergov qilishni turli sohalaridagi maxsus bilimlarni qo'llamasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Ekspertiza jinoyat ishi bo'yicha dalillarning muhim manbayi bo'lib, ish holatlarini yuqori darajadagi ishonchlilik bilan aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy jinoyat protsessida maxsus bilimlarni qo'llash institutining dolzarbligi va ahamiyatiga qaramasdan, nodavlat ekspertlarning jinoyat ish yurituvda ishtiroki bilan bog'liq ayrim masalalar hamon yetarlicha o'rganilmagan holda qolmoqda.

Amalda nodavlat sud ekspertlarining xulosalarini baholash va ularning faoliyatiga oid boshqa masalalarda sud ekspertiza tadqiqotlarini tayinlovchi organ yoki shaxslarda turli xil yondashuvlar kuzatilmoqda. Bu holat nodavlat sud ekspertining huquqiy maqomi masalalari yetarli darajada tartibga solinmaganligi bilan ham bog'liq. Mazkur vaziyat nodavlat ekspertlarning huquqiy maqomini belgilash yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat sud ekspertiza muassasalari bilan bir qatorda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari jumlasiga O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi **“Sud-ekspertiza faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PQ-4125-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son **“Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”**gi qarorlari kirib, ushbu normativ hujjatlar bilan ilgari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan sud ekspertizasi tashkilotining xususiy shakli bo'lgan sud ekspertlik faoliyatida yangi institut yaratilib amaliyotga joriy etildi.

Fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlari bo'yicha sud ekspertizasini o'tkazishga ixtisoslashtirilgan va shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislar **mavjud tashkilot nodavlat sud ekspertizasi tashkiloti hisoblanadi.**

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertizasini o'tkazishda **davlat sud-ekspertiza muassasalari kabi funksiyalarni amalga oshiradi, ular kabi huquqqa ega bo'ladi, majburiyatlarni bajaradi va javobgar** hisoblanadi. Qonunchilikka muvofiq nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari **44 turdagi** sud ekspertizasi bo'yicha tadqiqot olib borish huquqiga ega. Hozirgi vaqtda respublikamizda **5 ta** nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti va **30 dan** ortiq nodavlat sud ekspertlari mavjud.

Respublikada davlat sud ekspertiza muassasalari bilan bir qatorda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ularning **huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi** amaldagi **“Sud ekspertiza to'g'risida”**gi qonun hamda **jinoyat-protsessual qonunchiligida aniq belgilanmagan.** Ular faqat qonunosti normativ hujjatlarda nazarda tutilgan xolos. Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlarining ekspertizalar tayinlashga, jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha ekspertizalarga oid talab va ehtiyojlari qondirilmasdan kelinmoqda.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, **2023-2024-yillar** davomida respublikadagi mavjud nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari tomonidan **fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha jami 3 319 ta** sud ekspertiza tadqiqotlari o'tkazilib, ekspertiza xulosalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida mutaxassis fikrlari berilgan.

Biroq amaldagi qonunchilikda nodavlat sud ekspertlarining huquqiy maqomi belgilanmagani sababli jinoyat ishlari bo'yicha ekspertizalar deyarli tayinlanmay kelmoqda.

Sohadagi yuqorida keltirilgan mavjud muammolardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi **“Sud ekspertizasi to'g'risida”gi qonuni va Jinoyat-protsessual kodeksiga, jumladan, 174-moddasi birinchi va ikkinchi qismlariga,** shuningdek, kodeksning **182-moddasiga** tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish orqali nodavlat sud ekspertlarining **huquqiy maqomi hamda ekspert sifatidagi toifasini qonunchilik doirasida aniqlash zarur.**

Misol uchun, MDH davlatlari tajribasi o'rganilganda Belarus Respublikasi (JPKning 227-moddasi), Qozog'iston Respublikasi (JPKning 273-moddasi) va Qirg'iziston Respublikasi (JPKning 227-moddasi)da asosan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organlari tomonidan sud ekspertiza davlat sud ekspertiza muassasalarida yoki maxsus litsenziyaga ega bo'lgan nodavlat sud ekspertiza tashkilotlariga tayinlanishi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan **“Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida”gi nizamning 9 va 10-bandlariga** ko'ra, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotida sud ekspertizasi shartnomaga muvofiq pullik asosda amalga oshirilishi hamda amalga oshiriladigan sud ekspertizasi narxlarini mustaqil belgilashi nazarda tutilgan. Ammo tergov organlari budget mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi sababli ular tomonidan **nodavlat sud-ekspertiza tashkilotiga ekspertizalar tayinlanganda to'lovlarni amalga oshirish tartibi qonunchilik doirasida mavjud emas.**

Fikrimizcha, sud ekspertiza xulosalariga bo'lgan mavjud ehtiyojlarni to'liq ta'minlash va sohani yanada rivojlantirish maqsadida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan

jinoiy javobgarlikka oid ishlar yuzasidan o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun to'lovlarni keyinchalik **mahkum (huquqbuzar)lardan undirish sharti bilan ekspertiza tayinlovchi vakolatli organlarning budgetdan ajratilgan mablag'lari hisobidan qoplanishi amaliyotini yo'lga qo'yish zarur.**

Shunga ko'ra, bu borada amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi, ularning faoliyatiga ilg'or zamonaviy texnika vositalarining joriy qilinishiga zamin yaratiladi. Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksining 174-moddasiga asosan **sud-tibbiyot, sud-psixiatriya, sud-psixologiya, sud-avtotexnika, sud-iqtisodiy, kriminalistika ekspertizalarini faqat davlat sud-ekspertiza muassasalarining mutaxassislari,** alohida hollarda esa boshqa korxona, muassasa, tashkilotlarning mutaxassislari tomonidan o'tkazilishi belgilangan.

Ma'lumot o'rnida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertiza faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4125-son qarorining 1-ilovasi bilan sud-psixologiya, sud-



avtotexnika, sud-iqtisodiy va boshqa turdagi kriminalistik ekspertizalar nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ham ruxsat berilgan.

Fikrimizcha, ayrim turdagi sud ekspertiza tadqiqotlari faqat davlat sud ekspertiza muassasalari ekspertlari tomonidan o'tkazilishi bilan chegaralanishi noto'g'ri. Chunki mamlakatimizda bir qator nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda **sud-avtotexnika, sud-iqtisodiy va boshqa kriminalistik ekspertizalarni** o'tkazishga tegishli sertifikatlangan malakali nodavlat sud ekspertlari, shuningdek, tadqiqotlarni o'tkazish uchun yetarli darajadagi moddiy-texnik baza mavjud.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda davlat sud ekspertiza muassasalari tomonidan ko'plab yangi turdagi ekspertiza va tadqiqot turlari amaliyotga joriy etilgan. Sud, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, advokatlar, shuningdek, respublikada faoliyat yuritayotgan nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining taklif va ehtiyojlaridan kelib chiqib nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga amaliyotga **yangi joriy etilgan boshqa turdagi sud ekspertizalarini o'tkazish huquqini berish lozim.**

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4125-son qarori bilan tasdiqlangan **“Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizalari turlarining ro'y-xati”**ni kengaytirish zarur. Jumladan:

- **“Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash ekspertizasi”;**
- **“Sud soliq ekspertizasi”;**
- **“Intellectual mulk sohasida sud iqtisodiy ekspertizasi”;**
- **“Transport vositalarining texnik holatini aniqlash”;**
- **“Sud yong'in-texnikaviy ekspertizasi”;**
- **“Bino va inshootlarning texnik holatini aniqlash ekspertizasi”.**

Xulosada shuni ta'kidlash mumkinki, nodavlat sud ekspertining ekspertlik faoliyati subyekti sifatidagi maqomi qonunchilikda belgilanishi lozim. Bu nafaqat nodavlat sud ekspertining huquqiy maqomini, balki uning faoliyati chegaralarini, shuningdek, mas'uliyatini mustahkamlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, jinoyat ishlari bo'yicha nodavlat sud ekspertlari institutining rivojlantirilishi jinoyat ishlari bo'yicha taraflarning tortishuv prinsipi hamda protsessda sog'lom raqobatning yanada rivojlanishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertiza faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4125-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
4. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Беларусь.
5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан.
6. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики.
7. Косарев С.Ю. Осуществление судебно-экспертной деятельности негосударственными судебно-экспертными учреждениями и негосударственными экспертами / С.Ю.Косарев, М.С.Емченко, И.Д.Алюков. – EDN XCCOCR // Актуальные проблемы науки и практики. – 2022. – № 2 (27).
8. Эпштейн В.А. Вопросы совершенствования деятельности негосударственных судебных экспертов / В.А.Эпштейн. – EDN YGUWLK // Современное состояние, проблемы и перспективы развития судебно-экспертной деятельности частных экспертов: материалы междунар. науч.-практ. конф. – Москва, 2022. – С. 309-311.

SUD EKSPERTIZA QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

MAXSADOV

*Baxtiyor Isomiddinovich,
O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova
nomidagi Respublika sud ekspertiza
markazi bosh yuriskonsulti*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sud ekspertizasining tizimi, mohiyati va qonunchilik asoslari, shuningdek, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha masalalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: maxsus bilimlar, sud eksperti, sud-ekspertlik faoliyati, qonunchilik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются система, суть и законодательные основы судебной экспертизы Республики Узбекистан, а также вопросы совершенствования законодательства в этой области.

Ключевые слова: специальные знания, судебный эксперт, судебно-экспертная деятельность, законодательство.

ANNOTATION

This article examines the system, essence, and legislative foundations of forensic examination in the Republic of Uzbekistan, as well as issues of improving legislation in this area.

Key words: special knowledge, forensic expert, forensic expert activity, legislation.

Hozirgi globallashuv jarayonida jinoyatchilik bir lokal chegara doirasidan o'tib, dunyo bo'ylab tez fursatlar bilan tarqalmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilar tomonidan jinoyatni sodir etishda foydalaniladigan yangi vositalar va turli moliyaviy sxemalardan dunyoning bir chekkasida foydalanilsa, qisqa muddatda dunyoning boshqa chekkasida qo'llanilib, jinoyatlar sodir etilmoqda.

Sud ekspertizasi ilm-fan, texnika, san'at yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlarni talab etuvchi masalalarni yechish orqali isbotlanishi zarur bo'lgan holatlarni har tomonlama va xolis tadqiq etish maqsadida ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan to'liqroq foydalanish imkonini beradi.

Sud ekspertiza tadqiqotlari protsessual harakatlarda obyektiv haqiqatni aniqlash va adolatli qaror qabul qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Uni o'tkazish qonun hujjatlari bilan qat'iy tartibga solingan bo'lib, bu ekspert xulosalarining ishonchliligini va ularning daliliy ahamiyatini ta'minlaydi.

Sud-ekspertlik faoliyatining vazifasi fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlarni talab etuvchi masalalarni yechish orqali muayyan ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashda sud, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari hamda bu boradagi vakolatli shaxslarga yordam ko'rsatishdan iborat.

Sud-ekspertlik faoliyatining huquqiy asosi – bu faoliyat sohasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yig'indisidir.

Shuningdek, sud ekspertizasini o'tkazish va tashkil etish, ekspertning javobgarligi va himoyasi kabi masalalarni tartibga soluvchi qonunchilik turli normativ-huquqiy hujjatlarda joylashgan keng qamrovli huquqiy normalar to'plamidan iborat.

Mamlakatimizda sud ekspertizasining huquqiy asosini, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini belgilovchi qoidalari hamda odil sudlov prinsiplari tashkil etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga asosan jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi haqidagi normalar belgilangan bo'lib, bu borada protsessual daliliy manbalardan biri hisoblangan sud ekspertiza tadqiqotlari va uning natijasida rasmiylashtiriladigan sud ekspertiza xulosasiga bo'lgan ehtiyoj yanada oshganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlash orqali odil sudlovni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sud-ekspertlik faoliyati dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklari kafolatli himoya qilinishida, fuqarolarning ishonchini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sohani tubdan takomillashtirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, **sud ekspertiza qonunchiligini takomillashtirish maqsadida sohani tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi**. Xususan, so'nggi besh yilda soha faoliyatiga oid 2 ta Qonun, 4 ta Prezident Farmoni va qarorlari, 7 ta Hukumat qarorlari hamda 4 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256-son farmoni alohida o'ringa ega.

Farmon bilan O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi va uning ijrosini ta'minlash maqsadida 2021–2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. *Konsepsiya quyidagi vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan:*

- sud ekspertlarining xolisligi va mustaqilligini ta'minlash, sohadagi normativ-huquqiy bazani muntazam takomillashtirib borish;

- sud-ekspertlik faoliyatini kengaytirish hamda sud ekspertizalarining sifati va ishonchliligini oshirish;

- nodavlat sud ekspertiza institutini rivojlantirish va boshqalar.

Shuningdek, Farmonga muvofiq Davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq sud ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish huquqi berildi.

Hukumatning tegishli qarori bilan 51 ta sud ekspertizasi turlarini o'z ichiga olgan jismoniy

va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlandi hamda tadqiqot natijalari yuzasidan mutaxassis fikri beriladi.


Mazkur huquq kelgusida jismoniy va yuridik shaxslar o'z huquqlarini sud va tergov organlarida himoya qilishlarida yaqindan ko'mak ko'rsatishga xizmat qiladi.

Farmonga asosan, iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritishda advokatga sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida ekspert xulosasini sud muhokamasida taqdim etish uchun davlat va nodavlat sud-ekspertiza muassasalarida shartnoma asosida advokat so'rovi bilan ekspertiza o'tkazish tashabbusi huquqi berildi.

Bu o'z navbatida advokatning so'roviga asosan ekspertiza tayinlashga doir masalalarning huquqiy asoslari yaratilib, sudda tortishuv instituti to'laonli ta'minlanishiga asos bo'ldi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi islohotlarning davomi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 73-son qarori qabul qilindi. Qabul qilingan mazkur qaror bilan Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

Nizom bilan davlat sud-ekspertiza muassasasi,



nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar tomonidan sud ekspertizasi tadqiqotlari o'tkazilishi tartibi va shartlari belgilandi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Hukumat qarori (849-son, 18.12.2024-y.) qabul qilindi. Jumladan:

– X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining Toshkent viloyati hududiy bo'limi tashkil etilishi;

– 2026-yil 1-iyungacha Markazning Toshkent viloyati bo'limini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan davlat standarti talablariga javob beradigan binoga joylashtirish hamda maxsus mebel, kompyuterlar, boshqa zarur texnika va inventarlar, shuningdek, yuqori malakali professional kadrlar bilan ta'minlash choralari ko'rilishi;

– Markazda iste'mol mahsulotlari tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) mavjudligi va ichimlik suvining tarkibini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshiruvchi Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasi tashkil qilinishi belgilangan.

Shuningek, markazning hududiy bo'limlarida quyidagi ekspertiza va tadqiqot turlari bosqichma-bosqich joriy etilishi nazarda tutilgan:

– 2025-yil 1-oktabrgacha Sud ekspertiza markazining Navoiy viloyati bo'limida Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi hamda Sud-xatshunoslik va hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizalari;

– 2026-yil 1-noyabrgacha Sud ekspertiza markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limida Sud-fonografiya, sud-yong'in texnika va elektrotexnika ekspertizalari;

– 2026-yil 1-dekabrgacha Sud ekspertiza markazining Qashqadaryo viloyati hududiy bo'limida Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi hamda Sud-xatshunoslik va hujjatlarning sud-texnikaviy ekspertizalari.

Xulosa qilib aytganda, sud ekspertiza tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar doimiy ilmiy izlanishda bo'lishi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolarning talab va ehtiyojini qanoatlantirish maqsadida yangi ekspertiza tadqiqotlari, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda sud ekspertlari malakasini yanada oshirish choralari ko'rish, sud ekspertizaga oid qonunchilikni hamda o'z faoliyatlarini zamon talablariga mos xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib va takomillashtirib borishlari muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni, 2012.

SUD-EKSPERTIZA SOHASIDA INNOVATSION ISHLANMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI HAQIDA

YOQUBOV

*Murodjon G'opirjonovich,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi,
Axborot texnologiyalari va
innovatsiyalarni joriy qilish
bo'limi boshlig'i*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sud-ekspertiza sohasida ilg'or texnologiyalar, xususan raqamlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologik tahlil, kriptografik xavfsizlik va blokcheyn kabi innovatsion ishlanmalarning tatbiq etilishi o'rganilgan. Sud-ekspertiza tizimini zamonaviylashtirish orqali dalillarni tahlil qilishda aniqlik, shaffoflik va tezkorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida bu texnologiyalarni joriy qilishning ijtimoiy-huquqiy va texnik imkoniyatlari tahliliy yondashuv asosida yoritilgan. Ilmiy, amaliy va tashkiliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sud-ekspertiza, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, blokcheyn, kriptografiya, isbotlash jarayoni.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается применение передовых технологий в области криминалистики, в частности, таких инновационных разработок, как оцифровка, искусственный интеллект, биотехнологический анализ, криптографическая безопасность, блокчейн. Анализируются возможности повышения точности, прозрачности и скорости анализа доказательств путем модернизации системы криминалистики. При этом на основе аналитического подхода освещаются социально-правовые и технические возможности внедрения данных технологий в условиях Узбекистана, исходя из зарубежного опыта. Даны научные, практические и организационные рекомендации.

Ключевые слова: криминалистика, инновационные технологии, цифровизация, искусственный интеллект, блокчейн, криптография, процесс доказывания.

ANNOTATION

This article discusses the use of advanced technologies in forensics, in particular, such innovative developments as digitalization, artificial intelligence, biotechnological analysis, cryptographic security, blockchain. The possibilities of increasing the accuracy,

transparency and speed of evidence analysis by modernizing the forensic science system are analyzed. At the same time, based on an analytical approach, the socio-legal and technical possibilities of implementing these technologies in the conditions of Uzbekistan are covered, based on foreign experience. Scientific, practical and organizational recommendations are given.

Key words: forensics, innovative technologies, digitalization, artificial intelligence, blockchain, cryptography, proof process.

KIRISH

Sud-ekspertiza – bu sud-huquq tizimining asosiy isbot manbalaridan biri bo'lib, dalillarning ilmiy asoslangan tahlili orqali huquqiy qarorlarning asosli va adolatli qabul qilinishini ta'minlaydi. XXI asr texnologik yuksalish davrida ilm-fanning turli tarmoqlari – axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, genetik muhandislik va raqamli xavfsizlik vositalarining tezkor rivojlanishi sud-ekspertiza faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

An'anaviy ekspertiza metodlari, asosan, inson subyektivligi va mehnat zichligiga bog'liq bo'lib, bu ayrim hollarda aniqlik va ishonchlilikni pasaytiradi. Zamonaviy texnologiyalar esa bu kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, ekspertiza jarayonini avtomatlashtirish va obyektivlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shunday ekan, ushbu maqolada sud-ekspertiza sohasida innovatsion ishlanmalarning qanday tatbiq etilishi mumkinligi, ularning amaliy foydasi va huquqiy-etik chegaralari tahlil etiladi.

ASOSIY QISM

Hozirgi zamon sud tizimida quyidagi holatlar innovatsiyalarning dolzarbligini belgilaydi:

Dalillar hajmining ko'payib borayotganligi. Bugungi kunda video, audio, DNK, elektron yozishmalar va boshqa ko'rinishdagi dalillarni tezkor tahlil qilish zarurati har doimgidan ham dolzarb hisoblanadi.

Xato xulosalarning oldini olish. Inson omiliga bog'liq xatoliklar ishonchsiz xulosalarga olib keladi. Bu esa nafaqat sud ekspertiza sohasiga bo'lgan ishonchsizlikni paydo qiladi, qolaversa, insonlarning aybdor yoki aybsizligini isbotlashni ham murakkablashtiradi.

Zamonaviy jinoyat turlarining kun sayin oshib borayotganligi. Kiberjinoyatlar, intellektual mulk huquqi buzilishi va boshqa zamonaviy jinoyatlar ekspertizani texnologik quvvat bilan ta'minlashni talab qilmoqda.

Shu sababli, sud-ekspertiza sohasiga sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), biotexnologiya, mashinali o'rganish, blokcheyn va boshqa ilg'or yechimlarni jalb etish dolzarb bo'lib bormoqda.

Bugungi kunda asosiy innovatsion yo'nalishlar va ularning sud-ekspertizadagi rolini quyidagilarda ko'rish mumkin.

Bulardan birinchisi, raqamlashtirish va sun'iy intellekt hisoblanadi. Raqamlashtirish, avvalo, barcha ekspertiza hujjatlarini raqamli formatga o'tkazish va ularni yagona axborot tizimida saqlashni nazarda tutadi. Shu asosda quyidagi imkoniyatlar yuzaga chiqadi:

Avtomatlashtirilgan solishtirma tahlil: grafologik, audio va video materiallar tahlili avtomatik dasturiy vositalar bilan tez va aniqlik bilan amalga oshiriladi.

Yuzni aniqlash va identifikatsiya qilish: kamera yozuvlari asosida sun'iy intellekt yordamida shaxs aniqlanadi.

Tovush va nutq tahlili: ovoqli dalillarni fonetik va semantik jihatdan avtomatik baholash.

Sun'iy intellekt algoritmlari ko'p hollarda tajribali ekspertlar tomonidan qo'lda amalga oshiriladigan tahlillarni o'zlashtirishi mumkin.

Ikkinchisi esa genetik tahlil va DNK ekspertizasi hisoblanadi.

DNK ekspertizasi – biologik dalillarni aniqlash va shaxslararo qarindoshlikni isbotlashda asosiy vosita. Bu sohada so'nggi yillarda quyidagi texnologiyalar yetakchi o'ringa chiqdi:

Next Generation Sequencing (NJS) – DNK fragmentlarini chuqur va keng ko'lamda o'rganishga imkon beradi.

qPCR – DNK namunalarning aniq konsentratsiyasini aniqlaydi.

Bioinformatik tahlil – murakkab DNK ketma-ketliklarini avtomatlashtirilgan tarzda ma'lumotlar bazasi bilan solishtirish imkonini beradi.

Mazkur texnologiyalar yordamida jinoyat sodir etilgan joyda topilgan mayda DNK izlari asosida ham shaxsni aniqlash mumkin.

Uchinchisi esa blokcheyn va ma'lumotlar xavfsizligi hisoblanadi. Ekspertiza xulosalarining soxtalashtirilmasligi yoki ularni tahrirlashning oldini olish uchun blokcheyn texnologiyasi katta ahamiyatga ega. Har bir ekspert xulosasi alohida "hash" bilan blokcheyn tarmog'iga ulanadi, natijada:

dalil o'zgarmasligi ta'minlanadi;

xronologik tartibda barcha o'zgarishlar hujjatlashtiriladi;

sud isbotlash jarayonida ishonch oshadi.



Bu texnologiya, ayniqsa, kiberjinoyat ishlari, moliyaviy tekshiruvlar va tibbiy xulosalarda qo'llanilishi mumkin.

Ilg'or xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, sud-ekspertiza sohasida innovatsion ishlanmalardan foydalanish yuqori samaradorlik bilan birga keng imkoniyatlarni ham ochib beradi. Xususan, AQSH FBI tomonidan qo'llanilayotgan KODIS (CombinedDNAIndexSystem)—jinoyatchilarning DNK ma'lumotlarini saqlovchi yagona milliy tizim hisoblanadi. Shuningdek, AQSHda videokuzatuv tizimlariga integratsiyalashgan yuzni aniqlash texnologiyalari ham faol ishlatiladi.

Yevropa davlatlari, xususan, Niderlandiya va Germaniya sud-ekspertiza markazlarida har bir ekspertiza xulosasi raqamli shaklda blokcheyn tarmog'iga ulanadi. Estoniya esa to'liq raqamlashtirilgan sud tizimi bilan e'tibor qozongan.

Osiyo davlatlari hisoblangan Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi ham o'ziga xos. Ushbu davlatlarda ekspertiza jarayonlarida robototexnika qo'llaniladi. Masalan, avtomatik barmoq izi skanerlari, biologik namunalarni yig'uvchi robotlar amaliyotga keng joriy etilgan.

O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari ham ortib bormoqda. Sud ekspertiza sohasi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda. Mamlakatimizda quyidagi jihatlar imkoniyatlar va ehtiyojlar sifatida ajralib turadi:

Raqamli arxivlar tizimini yaratish – barcha ekspertiza hujjatlari yagona elektron platformada saqlanishi kerak.

Mahalliy sun'iy intellekt loyihalari – o'zbek tilida ishlovchi ovoz tanish tizimlari, yozuv solishtirish kabi sun'iy intellekt modullari ishlab chiqilishi mumkin.

Sud ekspertiza laboratoriyalarini modernizatsiya qilish – tibbiyot va kriminalistika yo'nalishida yangi avlod uskunalarni jalb qilish.

Blokcheyn asosidagi ekspert xulosasi tizimi,

ayniqsa, yuqori darajadagi isbot masalalarida (moliyaviy firibgarlik, notarial bahslar) qo'llash muhim.

Shu bilan birga, ushbu sohaning yanada rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi ayrim to'siqlar ham mavjud. Xususan, mutaxassislar yetishmovchiligi, texnologik infratuzilmaning cheklanganligi hamda huquqiy bazaning mos emasligi kabi.

Innovatsion texnologiyalarning huquqiy-etik jihatlariga ham to'xtalib o'tmasak bo'lmaydi. Har qanday texnologik yangilik inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik va ishonchlilik mezonlariga mos kelishi lozim. Ayniqsa, quyidagilar e'tiborga olinishi kerak.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish: DNK, biometrik va raqamli shaxsiy dalillarni ishlashda maxfiylik kafolatlanishi lozim.

Sun'iy intellekt qarorlarining izohlanishi: sun'iy intellekt natijalari tushunarli, asosli bo'lishi zarur.

Ekspert xulosalarining suddagi maqomi: yangi texnologiyalar sud-huquq tizimi tomonidan tan olinishi va huquqiy kuchga ega bo'lishi kerak.

XULOSA

Sud-ekspertiza sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bu tizimning ishonchligi, tezkorligi va obyektivligini oshirishda muhim omildir. Bunda texnologik yutuqlarni huquqiy, etik va ijtimoiy omillar bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. O'zbekiston uchun quyidagi tavsiyalar, ayniqsa, bugungi kunda dolzarbdir:

Yagona raqamli ekspertiza platformasini yaratish;

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi ekspertiza vositalarini ishlab chiqish;

Blokcheyn asosida hujjatlar xavfsizligini ta'minlash;

Malakali raqamli sud-ekspertlarini tayyorlash;

Xalqaro standartlar asosida qonunchilikni moslashtirish.

ADABIYOTLAR

1. FBI. CODIS and DNA Initiatives. U.S. Department of Justice, 2023.
2. Interpol. Forensic Science Handbook. – Lyon, 2022.
3. Nature Reviews. "Artificial Intelligence in Forensic Science", Vol. 14, 2023.
4. "Blockchain for Evidence Integrity in Legal Proceedings". IEEE Access, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni, 2012.
6. Sud ekspertizasi bo'yicha xalqaro tajriba: Eurojust, Europol – 2022 hisobotlari.

SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR TO'G'RIDAGI QONUNCHILIKNI BUZISH HUQUQBUZARLIKLARINI ANIQLASHDA FOTO VA VIDEO-TEXNIK EKSPERTIZANING AHAMIYATI

XO'JAYAROVA

*Nilufar Nemat qizi,
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
"HOning Ma'muriy faoliyati"
kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish holatlarini aniqlashda foto va video texnik ekspertizaning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Bunda O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari va xorijiy olimlarning tadqiqotlariga asoslanib, shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilishning dolzarb ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada foto-texnik ekspertizaning raqamli dalillarni tahlil qilish, montajni aniqlash va shaxslarni identifikatsiya qilishdagi ahamiyati alohida ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, huquqbuzarliklarning oldini olish uchun qonunchilikni takomillashtirish, zamonaviy texnologik vositalarni joriy qilish va mutaxassislar malakasini oshirish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: shaxsga doir ma'lumotlar, foto va video texnik ekspertiza, qonunchilikni buzish, xorijiy tajriba, shaxslarni identifikatsiya qilish, sun'iy intellekt.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются роль и значение фото- и видеотехнической экспертизы в выявлении случаев нарушения законодательства о персональных данных. На основе соответствующих законодательных актов Республики Узбекистан и исследований зарубежных ученых подчеркивается актуальность защиты неприкосновенности частной жизни. Кроме того, в статье отдельно рассматривается значение фототехнической экспертизы в анализе цифровых доказательств, выявлении монтажа и идентификации лиц. Также научно обосновывается необходимость совершенствования законодательства, внедрения современных технологических средств и повышения квалификации специалистов для предотвращения правонарушений.

Ключевые слова: персональные данные, фото и видеотехническая экспертиза, нарушение законодательства, зарубежный опыт, идентификация лиц, искусственный интеллект.

ANNOTATION

This article analyzes the role and significance of photo and video technical expertise in identifying cases of violation of personal data legislation. Based on the relevant legal documents of the Republic of Uzbekistan and research by foreign scholars, the relevance of protecting the privacy of individuals is emphasized. Additionally, the article specifically examines the importance of photo-technical expertise in analyzing digital evidence, detecting manipulations, and identifying individuals. Furthermore, the necessity of improving legislation, introducing modern technological tools, and enhancing the qualifications of specialists to prevent violations is scientifically substantiated.

Key words: personal data, photo and video technical expertise, violation of legislation, foreign experience, identification of individuals, artificial intelligence.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, odamlar hayotining deyarli barcha sohalarida foto va video materiallardan foydalanish keng miqyosda kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda, ommaviy axborot vositalarida, hatto sud-tergov jarayonlarida ham ushbu turdagi materiallar ayrim holatlarda asosiy axborot manbayi va dalil sifatida xizmat qilmoqda. Ammo bunday qulayliklar bilan birga, foto va video materiallarga turli shakllarda ishlov berish, ularni manipulyatsiya qilish orqali yolg'on axborot tarqatish, shaxs sha'ni va obro'siga putur yetkazish, sud adolatiga xalaqit berish singari xavfli holatlar ham paydo bo'ldi. Ayniqsa, shaxsga oid ma'lumotlarning ruxsatsiz o'zgartirilishi va tarqatilishi nafaqat ma'muriy, balki jinoiy javobgarlikni ham keltirib chiqaradi. Bu kabi huquqbuzarliklarning yildan yilga oshib borayotgani ham jamiyatda jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilingan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi



sud qarorlarini o'rganish natijasida o'tgan 2024-yil davomida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46-2-moddasi (Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish)ga doir 848 ta ma'muriy ish materiallari ko'rib chiqilgani aniqlandi [1]. Ushbu holatlarning 17 foizi – ijtimoiy tarmoqlar va turli platformalarda soxtalashtirilgan foto va video materiallarning noqonuniy tarqatilishi bilan bog'liq holda sodir etilganligi bu sohada qonunbuzarliklarni aniqlashda foto-texnik ekspertizaning o'rni va ahamiyatini tobora orttirmoqda.

Foto-texnik ekspertiza usuli manipulyatsiyalangan, qayta tahrirlangan yoki sun'iy tarzda yaratilgan tasviriy materiallarni aniqlash, ularning ishonchligini baholash, shaxsga oid axborotning to'g'riligini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu o'rinda shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasiga qonunchilikda keltirilgan ta'rifga ham to'xtalib o'tishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son qonunining 4-moddasida shaxsga doir ma'lumotlar deganda muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot deya ta'rif berilgan [2]. Bu axborot elektron tarzda (masalan, kompyuter fayllari, elektron pochta yoki ijtimoiy tarmoqlarda saqlanadigan ma'lumotlar), qog'ozda (hujjatlar, shartnomalar, ariza blankalari) yoki boshqa moddiy jismlarda (masalan, videokasseta, fotoalbom, disklar va boshqalar) qayd etilgan bo'lishi mumkin. Fikrimizcha, ta'rifning asosiy jihati shundaki, bu ma'lumotlar aniq bir shaxsni aniqlashga yordam berishi yoki u bilan bevosita bog'liq bo'lishi lozim. Ushbu ma'lumotlar shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish uchun maxsus qonuniy tartibga bo'ysunadi, ya'ni ularni yig'ish, saqlash, ishlatish yoki tarqatish faqat shaxsning roziligi bilan yoki qonun bilan belgilangan hollarda amalga oshirilishi kerak. Agar bu talablar buzilsa, bu qonunchilikni buzish hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo'ladi.

Olimlarning ushbu masalaga oid tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqatilishi jamiyatda ijtimoiy muhitning yomonlashuviga va huquqiy

tartibsizlikka olib keladi. Masalan, A.Madaminov ta'kidlaganidek, "fuqaroning tasviridan foydalanishda uning roziligini olish talabi rivojlangan mamlakatlarda ham muhim hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish va jamiyatdagi ishonchni saqlab qolish uchun zarur" [3]. Shu bilan birga, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarligining oshishi ijtimoiy tarmoqlardagi anonimlik va raqamli texnologiyalarning kirib borishi bilan bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida huquqni muhofaza qilish organlaridan mazkur turdagi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olishda yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Foto-texnik ekspertiza bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u noqonuniy tarqatilgan rasmlar va videolarning aslini aniqlash, montaj qilingan yoki o'zgartirilgan qismlarni topish imkonini beradi. Bu borada tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "foto-texnik ekspertiza sud jarayonlarida dalil sifatida ishlatilgan tasvirlarning haqiqiylikni tasdiqlash yoki rad etishda asosiy vosita hisoblanadi. Bu jarayonda raqamli tasvirlarning metadata tahlili, sifat o'zgarishlari va vizual anomaliyalar o'rganiladi" [4]. Bunday ekspertizalar orqali, masalan, shaxsni sharmanda qilish maqsadida tarqatilgan videoning qaysi qismi montaj qilinganligi aniqlanib, huquqbuzarning kimligi aniqlanishi mumkin. Mazkur masalada M.Fazlio'g'lu ham raqamli tasvirlar va videolar shaxsiy ma'lumotlarning eng muhim qismi hisoblanishini, chunki ular shaxsning identifikatsiyasini osonlashtirishini, foto-texnik ekspertiza bu tasvirlarning aslini aniqlash va montaj qilingan yoki o'zgartirilgan qismlarni fosh qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi [4, b. 150].

Shuningdek, A.Ferhani va J.Nyman ham shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilganligini aniqlashda foto-texnik ekspertizaning ahamiyati haqida to'xtalib, tasvirlarning o'zgartirilgan yoki noto'g'ri kontekstda ishlatilgan holatlari ko'p bo'lganida, ekspertiza bu holatlarni aniqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishini, chunki u vizual faktlar va manipulyatsiyalarni to'la aniqlay olishini aytib o'tishgan [5, b. 356].

Shu bilan birga, raqamli tasvirlarning o'zgartirilishi yoki noto'g'ri ishlatilishini ilmiy hamda huquqiy jihatdan tahlil qilgan olim D.Cromey foto-texnik ekspertiza tasvirlarning asl holati, sifati va o'zgarishlarini aniq tahlil qilish imkonini berishini, bu jarayon esa shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini kuchaytirishga yordam berishini alohida ta'kidlab o'tgan [6, b. 3].

Yuqoridagi olim va tadqiqotchilarning foto va video texnik ekspertiza haqidagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda unga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Foto va video texnik ekspertizasi – bu maxsus texnik vositalar, dasturlar va metodologiyalar yordamida tasviriy axborotni(foto, video) tahlil qilish, ularning asl nusxaligini, o'zgartirilgan yoki tahrirlanganligini aniqlash, shuningdek, mazkur materialda tasvirlangan shaxs, obyekt, joy yoki hodisaning haqiqiylikini tekshirishga qaratilgan ekspertiza turi hisoblanadi.

Bugungi kunda ushbu ekspertiza turining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 1) Tasvir va videolarning yaratilgan vaqtini, joylashuvini aniqlash;
- 2) Raqamli izlar orqali faylga ishlov berilganligini aniqlash;
- 3) Metama'lumotlarni tahlil qilish orqali faylning texnik tafsilotlarini tekshirish;
- 4) Shaxs identifikatsiyasi: yuz tanib olish, tana tuzilmasi, ovoz orqali aniqlash;
- 5) Video montaj, effektlar, o'zgartirilgan fragmentlar va sun'iy intellekt (masalan, deepfake) orqali yaratilgan tasvirlarni aniqlash. Tadqiqotimiz davomida yuqoridagi vazifalarning har biri bo'yicha batafsil to'xtalib o'tildi.

Tasvir va videolarning yaratilgan vaqtini, joylashuvini aniqlash. Bu ekspertiza olib borilayotgan materialning qachon va qayerda yaratilganligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu orqali shaxsga doir ma'lumotning qaysi vaqt va makonga taalluqli ekanligini bilishga xizmat qiladi. Masalan, fotografiya yoki videoning metadati (metama'lumotlar) si tahlil qilinadi, bu yerda kamera sozlamalari, GPS koordinatalari (agar mavjud bo'lsa) va vaqt belgilari kabi ma'lumotlar o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar protsessual harakatlarni amalga oshirishda keyinchalik dalil sifatida e'tirof etilishiga yordam beradi.

Raqamli izlar orqali faylga ishlov berilganligini aniqlash. Raqamli izlar – butasvir yoki videoga qo'llanilgan har qanday o'zgartirish yoki tahrirlash izlari bo'lib, bunda rasm yorug'ligi o'zgartirilganligi, ranglar tuzatilgan yoki qismlar kesilgan bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratiladi. Ekspertiza orqali bu o'zgartirishlarning qachon, qanday dastur yordamida va qanday darajada amalga oshirilgani aniqlanadi. Ushbu jarayonda maxsus dasturlar va algoritmlardan foydalaniladi. Masalan, fotoshop yoki boshqa tahrirlash dasturlarining izlari tekshiriladi. Bu huquqbuzarliklarni aniqlashda, shaxsga doir ma'lumotlar noqonuniy o'zgartirilganini isbotlashda muhimdir.

Metama'lumotlarni tahlil qilish orqali faylning texnik tafsilotlarini tekshirish. Metama'lumotlar – bu tasvir yoki videoning "ichki" ma'lumotlari, masalan, fayl formati, yaratilgan dastur, kamera modeli, kadr hajmi, sifati va boshqalar hisoblanadi. Bu ma'lumotlar faylning asl holatini, uning qayerdan kelganligini va qanday ishlatilganligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, agar video ijtimoiy tarmoqdan yuklab olingan bo'lsa, uning asl manbayi va o'zgarishlari tekshiriladi. Bu jarayon protsessual harakatlarda tasvirning haqiqiylikini tasdiqlash yoki rad etishda ishlatiladi.

Shaxs identifikatsiyasi: yuz tanib olish, tana tuzilmasi, ovoz orqali aniqlash. Bu maqsad tasvir yoki videoda ko'rinadigan shaxsning kimligini aniqlashga qaratilgan. Yuz tanib olish texnologiyalari, masalan, sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar, shaxsning yuz xususiyatlarini taqqoslash orqali uning identifikatsiyasini amalga oshiradi. Tana tuzilmasi tahlili esa, masalan, bo'y, yurish uslubi yoki boshqa fizik xususiyatlar asosida aniqlashni o'z ichiga oladi. Ovoz orqali identifikatsiya esa audio yozuvlarda shaxsning ovoz xususiyatlarini (intonatsiya, ohang, tezkorlik) taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Bu huquqbuzarliklarda aybdor shaxslarni aniqlashda juda muhimdir.

Video montaj, effektlar, o'zgartirilgan fragmentlar va sun'iy intellekt (masalan, deepfake) orqali yaratilgan tasvirlarni aniqlash. Bu eng murakkab, lekin dolzarb jihatlardan biridir. Video montaj yoki effektlar tasvirga qo'shimcha elementlar qo'shish,

sahnani o'zgartirish yoki butunlay yangi holatni yaratishni o'z ichiga oladi. Deepfake esa sun'iy intellekt yordamida shaxsning yuzi yoki ovozi boshqa videolarga qo'shilgan holda noto'g'ri tasvirlar yaratishni anglatadi. Ekspertiza orqali bu o'zgartirishlarning izlari (masalan, yorug'lik nomutanosibli, harakatlarning tabiiy emasligi) aniqlanadi. Bu jarayonda maxsus dasturlar va algoritmlar, masalan, deepfake detektorlari ishlatiladi. Bu huquqbuzarliklar, xususan, shaxsga doir ma'lumotlar noqonuniy tarqatilganda ularni aniqlashda muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda foto va video texnik ekspertiza asosan shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik buzilganligini aniqlashga doir jinoyat ishlari bo'yicha sud-tergov amaliyotida, fuqarolik nizolarida, jurnalistik va siyosiy tekshiruvlarda, axborot xavfsizligini ta'minlashda keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, mazkur sohada ham bir qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan:

Texnik vositalarning yetarli emasligi – shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarligiga doir ishlarni yuritish vakolatiga ega bo'lgan 236 nafar amaliyot xodimlari bilan o'tkazilgan ijtimoiy

so'rovnoma ham ulardan *“Sizningcha, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarligini aniqlash va uni to'g'ri huquqiy baholashda bugungi kunda qanday muammolar mavjud?”* deya so'ralganda respondentlarning 75.6 foizi ma'lumotlarga ishlov berilganligini aniqlash uchun texnika vositalarining yetishmasligi natijasida ortiqcha vaqt yo'qotilayotganini aytib o'tishgan. Xususan, tadqiqotimiz davomida mazkur holatlar bo'yicha foto va video texnik ekspertizalar faqatgina Toshkent shahrida o'tkazilib, respublikaning boshqa hududlarida mazkur turdagi ekspertizani o'tkazish imkoniyati mavjud emasligi aniqlandi.

Normativ-huquqiy asoslarning noaniqligi. Ba'zi holatlarda raqamli dalillarni tekshirish, ularning dalil sifatida tan olinishi masalalari qonunchilikda to'liq tartibga solinmagan. Bugungi kunda raqamli dalillar (masalan, foto, video, elektron hujjatlar, metadata, raqamli izlar) modern huquqiy tizimlarda tobora muhim rol o'ynamoqda. Biroq bu dalillarning to'liq qonuniy tartibga solinmaganligi bir necha muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, hozirgi kunda qonunchiligimizda sun'iy intellekt asosidagi deepfake videolar yoki



blokcheyn orqali saqlanadigan ma'lumotlar kabi yangi texnologiyalardan foydalanish tartibi aniq normativ huquqiy hujjatlar bilan belgilanmagandir.

Shuningdek, tadqiqotimiz davomida mazkur muammolarning yechimiga doir ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Ekspertiza markazlarini zamonaviy dasturiy va apparat vositalari bilan jihozlash. Ya'ni bunda sun'iy intellekt asosidagi tahlil platformalari, masalan, deepfake aniqlash algoritmlari va raqamli izlarni o'rganish dasturlari, shuningdek, metama'lumot tahlilchilari va raqamli dalillarning haqiqiylikni tasdiqlash uchun maxsus dasturlarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish huquqbuzarligiga doir ishlarni yuritishda va ekspertizaning aniqligini oshirib, manipulyatsiyalarni aniqlashda xatoliklarni kamaytirish imkonini beradi.

2) Mutaxassislar malakasini oshirish uchun xorijiy treninglar va xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy qilish. Bunda xalqaro sertifikatlash tizimlarini, masalan, ACE (AccessData Certified Examiner) yoki CFCE (Certified Forensic

Computer Examiner) kabi standartlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

3) Raqamli dalillar bilan ishlashga oid maxsus qonunchilikni ishlab chiqish. Fikrimizcha, raqamli dalillarni tekshirish, saqlash, tahlil qilish va dalil sifatida qabul qilish tartib-qoidalarini qonunchilikda aniq belgilash lozimdir. Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarning noqonuniy ishlatilishi va manipulyatsiyalarga oid javobgarlik choralarini kuchaytirish ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, mazkur qonunchilik o'zgarishlari huquqiy aniqlikni ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelishimiz mumkin, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilganligini aniqlashda foto va video texnik ekspertizasi zamonaviy huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismiga aylanib borayotganligi O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishda kompleks islohotlar, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilish, xalqaro tajribani o'rganish, malakali kadrlar tayyorlash orqali texnik ekspertizaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilingan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi sud qarorlari. Elektron manba: <https://public.sud.uz/report/CONFLICT> (murojaat vaqti: 14.04.2025).
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-son qonunining 4-moddasi. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4396419> (murojaat vaqti: 14.04.2025).
3. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/17/photo/> (murojaat vaqti: 14.04.2025).
4. Elektron manba: <https://iapp.org/resources/article/consumer-perspectives-of-privacy-and-ai/> (murojaat vaqti: 12.04.2025).
5. Fazlioglu M. Forget me not: the clash of the right to be forgotten and freedom of expression on the Internet // International Data Privacy Law. – 2013. – T. 3. – №. 3. – C. 149-157.
6. Ferhani A. Nyman J. What does security look like? Exploring interpretive photography as method. European Journal of International Security. 2023;8(3):354-376.
7. Crome DW. Digital images are data: and should be treated as such. Methods Mol Biol. 2013;931:1-27
8. Abbasov N.I. Some issues of unification of the methodological base of forensic expertise.

**TOVARSHUNOSLIK
EKSPERTIZASI
BO'YICHA YANGI
TADQIQOTLAR
MILLIY VA XORIJIY
AMALIYOTDA
OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARI
SIFATINI KOMPLEKS
ANIQLASH
EKSPERTIZASINING
USLUBIY JIHATLARI**

MANSUROVA,
Shohista Zohidjonovna,
Tovarshunoslik ekspertizasi bo'limi
yetakchi eksperti

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy va xorijiy amaliyotda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirishni tashkil etish va o'tkazish tajribasi o'rganilgan va qiyosiy tahlil qilingan. Bir qator xorijiy davlatlarning oziq-ovqat nazorati tizimlarining tarkibiy tuzilishi o'rganilgan va natijada hozirgi vaqtda shakllangan sifat nazorati va oziq-ovqat xavfsizligi tizimini mukammal deb hisoblashga hali erta deb xulosa qilingan. Tadqiqotlar natijasida, oziq-ovqat mahsulotlari zanjirining iste'molchi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish paytigacha bo'lgan barcha bo'g'inlarida oziq-ovqatning sifati va xavfsizligini ta'minlashning yaxlit uyg'unlashtirilgan tizimini yaratish taklif qilingan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlarining sud-tovarshunoslik ekspertizasi, oziq-ovqatlar sifati, organoleptik ko'rsatkich, fizik-kimyoviy ko'rsatkich, sanitariya-gigiyenik ko'rsatkich, tovar sifatini nazorat qilish, sifatni nazorat qilish metodologiyasi.

АННОТАЦИЯ

В статье приведен сравнительный анализ опыта организации и проведения тестирования качества пищевых продуктов в отечественной и зарубежной практике. Было изучено структурное строение систем контроля пищевых продуктов ряда стран, и в результате сделан вывод о том, что сформированную на данный момент систему контроля качества и безопасности пищевых продуктов рано считать совершенной. По результатам исследований предложено создать целостную гармонизированную систему обеспечения качества и безопасности пищевых продуктов во всех звеньях пищевой цепочки, начиная с момента потребления продуктов питания потребителем.

Ключевые слова: судебно-товароведческая экспертиза пищевых продуктов, качество пищевых продуктов, органолептический показатель, физико-химический показатель, санитарно-гигиенический показатель, контроль качества товара, методика контроля качества.

ANNOTATION

The article examines and comparatively analyzes the experience of organizing and conducting food quality testing in domestic and foreign practice. The structural structure of food control systems in a number of foreign countries was studied, and as a result, it was concluded that the currently established food quality and safety control system is too early to be considered perfect. As a result of the research, it was proposed to create an integrated, harmonized system for ensuring the quality and safety of food products in all parts of the food chain, starting from the moment food is consumed by the consumer.

Key words: Forensic commodity examination of food products, food quality, organoleptic indicator, physico-chemical indicator, sanitary and hygienic indicator, product quality control, quality control methodology.

Tovarshunoslik bilimlarini qo'llash sohasida sud-tergov organlarining o'sib borayotgan ehtiyoji tufayli, oziq-ovqatlarni kompleks ravishda tadqiq qilish va ularni baholashga yondashish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va yaratish, natijalarni X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida o'tkazilayotgan sud-tovarshunoslik ekspertizalarining ekspertlik amaliyotiga joriy etish zaruriyati vujudga keldi.

Tovarshunoslikda bayon etilgan nazariy va metodik asoslar, obyektning iste'mollik (tovar) xususiyatlarini va fazilatlarini aniqlash maqsadida uning holatini o'rganishni, shuningdek, tovar obyektlari saqlangan, ularning xususiyatlari atrof muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishi tufayli o'zgarishiga olib kelgan aniq sharoitlarni tadqiq qilishni nazarda tutadi.

Tovarshunoslik ekspertizasi masalasini yechishning asosiy sharti bu – obyektning maqsadiga muvofiq ma'lum ehtiyojni qondirish uchun yaroqliligini shart qiladigan xususiyat va fazilatlarining majmuyini tadqiq qilishdir.

Tovarlarning sifati iste'molchilar uchun afzalliklar yaratish va raqobatbardoshlikni shakllantirishga jiddiy ta'sir qiladigan muhim olmillardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqatlar sifati deb, mahsulotning organoleptik xususiyatlarini, organizmning oziq-ovqat moddalariga muhtojligini, uning sog'liq uchun xavfsizligini, ishlab chiqarish va saqlashda ishonchligini ta'minlash qobiliyatini aks ettiruvchi xususiyatlarning majmuyi tushuniladi. Oziq-ovqat tovarlarining foydaliligini va insonning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish qobiliyatini belgilaydigan asosiy xususiyatlari bu – uning ozuqaviy qiymati, jismoniy va mazaviy xususiyatlari va uning saqlanuvchanligidir.

Shu sababli, ushbu tadqiqot doirasida milliy va xorijiy amaliyotda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini tekshirishni tashkil etish va o'tkazish tajribasini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish maqsad qilindi.

Oziq-ovqat sifatini aniqlash, tadqiqot qilish va umuman boshqarishda nazorat alohida o'rin

tutadi, uni amalga oshirish uchun davlatlar tegishli oziq-ovqat nazorati tizimlarini yaratadilar, bu kabi tizimlarning tarkibiy tuzilishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini nazorat qilish tizimining tuzilishi

Elementi	Xususiyatlari
Me'yoriy-huquqiy baza	Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qonunchilik hujjatlari va me'yoriy qoidalar, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va ularning xavfsizligiga nisbatan fundamental yondashuvlar, ushbu faoliyatni huquqiy tartibga soluvchi vositalarning maqomi va ta'siri
Oziq-ovqat mahsulotlarining nazorati – boshqaruv tizimi sifatida	Davlatning va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati subyektlarining roli va mas'uliyatini belgilaydi, o'z tashkiliy tuzilmasiga ega bo'ladi
Nazorat xizmatlari	Tegishli me'yor va qoidalarga amal qilinishini nazorat va monitoring qiladi, shuningdek, tegishli faoliyat amalga oshirilishini ta'minlaydi
Laboratoriya xizmatlari	Tegishli talablarga moslikni tekshiruv yo'li bilan aniqlaydi va sifatini monitoring qiladi
Axborot ta'minoti	Tegishli davlat organlari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati vakillarini kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish, maslahat berish hamda iste'molchilarni axborot bilan ta'minlash

Ta'kidlash joizki, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini aniqlash bo'yicha sud-tovarshunoslik ekspertizasida oziq-ovqat tovarlarining sifat ko'rsatkichlarining 3 ta guruhi aniqlanadi: organoleptik, fizik-kimyoviy va sanitariya-gigiyenik.

Organoleptik ko'rsatkichlar oziq-ovqat tovarlarining barcha guruhlari uchun me'yorlanadi, ularning ayrimlari uchun esa (masalan, mazali tovarlar uchun) bu ko'rsatkichlar eng asosiydir. Aksariyat oziq-ovqat tovarlari uchun umumiy organoleptik ko'rsatkichlar bu – tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi, hidi (xushbo'yli), konsistensiyasi.

Sifatning *fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari* oziq-ovqat tovarlarining har bir guruhi uchun o'ziga xosdir. Shu bilan birga eng tarqalgan fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bu: namlik miqdori (foizda) quruq moddalar, yog', shakar, tuz va mahsulot tarkibiga qarab boshqa tarkibiy qismlar miqdori (foizda), kislotaliligi (umumiy, titrlanadigan, uchuvchan).

Oziq-ovqat tovarlarining *sanitariya-gigiyenik (mikrobiologik va/yoki biologik) ko'rsatkichlari* ko'p hollarda xavfsizlik ko'rsatkichlarini bildiradi va amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ayrim hollarda mikrobiologik ko'rsatkichlardan oziq-ovqat mahsulotlarining biologik qiymatini ta'riflash uchun foydalaniladi (masalan, sut-qatiq mahsulotlarida sut-qatiq mikroorganizmlarining miqdori).

Oziq-ovqatlar sifatini organoleptik baholashning eng ma'lum turi – ball tizimi hisoblanadi. Uning mazmuni shundaki, mahsulotning eng muhim sifat belgilari, u yoki bu belgining ahamiyatiga qarab, ma'lum ballar miqdori bilan baholanadi. 10, 30, va 300 ballik tizimlar mavjud. Eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu – mahsulotning ta'mi va hidi, bundan tashqari rangi ham, ular uchun umumiy ballarning 40–50 foizi ajratiladi.

Ma'lumki, tovar sifatini nazorat qilish turlari quyidagilar hisoblanadi:

Davlat (va idoraviy) nazorati.

Jamoat nazorati iste'molchi mahsulot sifatiga ta'sir qilishining amaldagi dastagidir, u iste'molchi, ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va bajaruvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning amaliy sxemasini amalga oshirishga yordam beradi.

Oziq-ovqat tovarlarini markirovkalash – ma'lum darajada ularning sifatini nazorat qilishni ta'minlash vositasi bo'lib, nazorat qilish tashkilotlari tomonidan identifikatsiyalash va ekspertiza uchun qo'llaniladi. Idish va qadoqqa qarab markirovkalar transport markirovkasi va iste'mol qadoqning markirovkasiga ajraladi.

Transport markirovkasi bochkalar, qutilar, qoplar, konteynerlar, flyagalar uchun qo'llaniladi va u quyidagi ma'lumotlarni aks ettirishi lozim:

Ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi va manzili, uning biron-bir tashkilotga qarashliligi, tovar belgisi; mahsulotning nomi, turi, navi;

netto va brutto og'irligi; qadoq donalarining soni (iste'mol tarasidagi mahsulot uchun), qadoq donasining netto og'irligi; ishlab chiqarish sanasi, smena va partiya raqami; mahsulotga bo'lgan standartning belgisi; saqlash muddati (saqlash sharoitlari).

Oziq-ovqat mahsulotining xususiyatini (gigroskopikligi, sinuvchanligi, mo'rtligi, issiqlikdan eruvchanligi va h.k.), qadoq turini (shisha bankalar, butilkalar, qog'oz paketlar, polimer qadoq, va h.k.) inobatga olgan holda transport markirovkasidagi ma'lumotlarga manipulyatsiya belgilari kiritilishi mumkin: "Namlikdan himoya qilinsin", "quruq joyda saqlansin" va boshqalar.

Qoplar markirovkalanganida mahkam karton yoki oqartirilgan mato yoki narsa o'raydigan qog'ozdan yasalgan markirovka yorlig'i tiqiladi va yopishtiriladi. Quti va flyagalarga bosma matnli qog'oz etiketkalar yopishtiriladi.

Iste'mol qadoqlarining markirovkasi o'z ichiga quyidagilarni olishi lozim:



**Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini aniqlash bo'yicha sud-tovarshunoslik ekspertizasi
metodik ta'minotining o'ziga xos xususiyatlari**

Belgi	Milliy amaliyot	Xorijiy amaliyot
Ekspertiza muassasa va tashkilotlarini jalb etish	O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini aniqlash uchun davlat organlari jalb etiladi. Bu kabi amaliyot Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turmaniston, Germaniyada ham mavjud.	Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini aniqlash uchun nodavlat tashkilotlar va laboratoriyalar jalb etiladi (AQSH, Buyuk Britaniya, ransiya va boshq.).
Sifatni nazorat qilish va laboratoriyalarning texnik vakolatlarini tasdiqlash tizimi	Laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha qaror tegishli davlat organlari tomonidan qabul qilinadi (masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi).	Laboratoriyalar uchinchi tomondan akkreditatsiya qilinishi lozim, bu jarayonda davlat organlarining ishtiroki shart emas. Bu kabi akkreditatsiyadan o'tish uchun ISO 17011 standartiga mos ravishda akkreditatsiyadan o'tkazish faoliyatini o'tkazishga vakolatli bo'lgan xalqaro tashkilotlar, xalqaro tan olingan milliy tashkilotlarga murojaat qilinadi.
Tadqiqot uchun namunalarni olish va tahliliy tajribalarni o'tkazish tartibi	O'zbekistonda laboratoriyalar, tegishli tartibda(masalan, sud ekspertiza muassasalarining Ilmiy kengashlarida ma'qullangan) tasdiqlangan metod va metodikalardan foydalanishlari lozim. Bu kabi amaliyot Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turmanistonda ham mavjud. Biroq bu holat ushbu laboratoriyalarning faoliyatini biroz cheklab qo'yadi.	Yevropa Ittifoqida sinov va tershirish metodlarining o'zini tekshirish o'tkazilmaydi. Buning o'rniga, ushbu metodlar va metodikalarni tanlash bo'yicha mezonlar ro'yxati shakllantirilgan. Bunday yondashuv laboratoriyalarga o'z faoliyatida turli metodlarni qo'llash, fan va texnikaning yangi yutuqlaridan tezkor foydalanish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, uning biron-bir tashkilotga qarashliligi, tovar belgisi; mahsulotning nomi va navi (agarda mavjud bo'lsa); asosiy tarkibiy qismlarning ro'yxati; netto og'irligi; mahsulot uchun me'yoriy hujjatlarning belgisi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda shakllangan sifat nazorati va oziq-ovqat xavfsizligi tizimini mukammal deb hisoblashga hali erta.

Oziq-ovqat qo'shimchalarining yarmidan ko'pini – konservantlar, oksidlanishga qarshi vositalar, oziq-ovqat bo'yoqlari, sintetik shirin qo'shimchalar va boshqalar – qamrab olgan mavjud nazorat usullari, ularning barcha oziq-ovqat tarkibini nazorat qilishning analitik usullari va ularning ishlab chiqarishda ishlatilishini nazorat qilish algoritmi bilan to'ldirilishi va mustahkamlanishi kerak [1, 33b].

Hozirgi vaqtda sifatni nazorat qilish metodologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri bu – oziq-ovqat mahsulotlarini identifikatsiya qilishda zarur dalillar bazasini ishlab chiqishdir. Ayrim tadqiqotchilar identifikatsiya va kvalimetrik bazaning zaif dalillari va identifikatsiya ko'rsatkichlarining, shu jumladan texnik reglamentlarda keltirilgan ko'rsatkichlarning yetarli emasligi to'g'risida fikrlarlar bildirganlar [2, 49 b].

Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini aniqlash bo'yicha sud-tovarshunoslik ekspertizasini metodologik ta'minlash, shuningdek, sud-ekspertiza muassasa va tashkilotlarini tanlash va jalb qilish, tadqiqotlar uchun namuna olish, tekshirish va sinov usullarini tanlash tahliliy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Tegishli me'yoriy-

huquqiy hujjatlar va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish natijasida, ushbu turdagi sud ekspertizasining metodik ta'minoti bo'yicha milliy va xorijiy amaliyotda sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi [3, 58 b].

Laboratoriyalar muvofiqlikni baholashda ishtirok etishi kerakligi zarur bo'lganligi sababli, sinovlar mahsulotlarning turli xususiyatlarini (organoleptik, fizik-kimyoviy, xavfsizlik ko'rsatkichlari) tekshirishni o'z ichiga oladi. Bu katta moliyaviy va texnik resurslarni talab qiladi.

Bu jihatdan Yevropa Ittifoqining tajribasi qiziq, unga ko'ra ishtirokchi mamlakatlar majburiy parametrlarning (organoleptik, fizik-kimyoviy, xavfsizlik ko'rsatkichlari) o'zlariga birlashtirilgan kamroq sonini nazorat qiladi, shu bilan birga Yevro-Ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlar laboratoriyalarining ma'lumotlar bazasiga kirish huquqiga ega.

Shu tariqa, laboratoriyalar uchun zarur bo'lgan moliyaviy va inson resurslari bir nechta mamlakatlar o'rtasida taqsimlanadi, bu esa har bir a'zo davlatning laboratoriyalariga moliyaviy yukni kamaytiradi [3, 96 b].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sifat nazorati va xavfsizlik bo'yicha xorijiy tajriba, albatta, diqqatga sazovordir. Shu boisdan, oziq-ovqat mahsulotlari zanjirining, iste'molchi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish paytigacha bo'lgan barcha bo'g'inlarida oziq-ovqatning sifati va xavfsizligini ta'minlashning yaxlit uyg'unlashtirilgan tizimini yaratishni tavsiya etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [4, 113 b].

ADABIYOTLAR

1. Бессонов В.В. Актуальные проблемы контроля за использованием красителей в производстве пищевой продукции в Российской Федерации / В.В.Бессонов // Вопросы питания. – 2007. – Т.76. – №3. – С.32-39.
2. Николаева М.А. Актуальные проблемы научного товароведения / М.А.Николаева // Индустрия питания. – 2017. – №3. – С.46-51.
3. Сравнительный анализ некоторых требований пищевого законодательства Европейского Союза и Таможенного Союза России, Беларуси и Казахстана // Международная финансовая корпорация (ИФС). – 2015. – 126 с.
4. Донскова Л.А. Методологические подходы и международная практика в обеспечении качества и безопасности пищевых продуктов / Л.А. Донскова // Материалы XV Всероссийской научно-практической конференции “Современное хлебопекарное производство: перспективы развития” – Екатеринбург: Изд-во УрГЭУ. – 2014. – С.111-113.

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНСТИТУТА ЭКСПЕРТИЗЫ В КОДЕКСЕ РЕСПУБЛИКИ АРМЕНИЯ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ

ИСРАЕЛЯН

**Геворг Воваевич,
Начальник Научно-
исследовательского центра
прикладных проблем криминологии
“Национального бюро экспертиз”
Национальной академии наук
Республики Армения**

ANNOTATSIYA

Armaniston Respublikasining amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi-ni o'rganish asosida ekspertiza institutini tartibga solishda sezilarli bo'shliqlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu huquqiy hujjatdagi o'ziga xos bo'shliqlar, xususan, birinchi navbatda, ekspert xulosasining huquqiy tavsifi, uning shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablarning mavjud emasligi ta'kidlangan va tavsiflangan. Muallif, shuningdek, ekspertiza tayinlash tartibi batafsil ko'rsatilmaganligi, ekspertiza turlari to'g'risidagi nizomlar mavjud emasligi, ekspertning maqomi yaxshi tartibga solinmaganligi va boshqalarni ta'kidlaydi.

Maqolada olib borilgan tadqiqotlarning ayrim natijalari umumlashtirilib, yuqoridagi bo'shliqlarni bartaraf etish tartiblari haqida tushuncha berilgan. Muallif ekspert xulosasining batafsil huquqiy tavsifini berish, shu jumladan ko'rsatilgan turdagi dalillarning shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablarni, uni o'rganish tartibini, ekspertiza tayinlash tartibini batafsil tartibga solish, shu jumladan ekspertiza tayinlashning majburiy holatlarini o'z ichiga olgan normani kiritish; ekspertiza turlari, ularni tayinlash asoslari va tartibini belgilash zarur degan xulosaga kelgan. Ekspert maqomini tartibga solishni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda, xususan, qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun tadqiqotlar uning mutaxassisligi doirasidan tashqariga chiqadigan hollarda ekspertning ekspertiza tayinlagan organi (mansabdor shaxsni) ekspertiza o'tkazish mumkin emasligi to'g'risida darhol xabardor qilish majburiyatini nazarda tutish; muayyan ekspertga topshirilgan ekspertizani o'tkazishni taqiqlash; yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida ekspertni ogohlantirish tartibini nazarda tutish taklif etilmoqda. Maqolada keltirilgan fikrlar sud ekspertizasi sohasidagi mutaxassislar va huquq ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun qiziqarli bo'lishi asoslanirilgan.

Kalit so'zlar: ekspertiza, ekspert xulosasi, tayinlash tartibi, ekspert maqomi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks.

АННОТАЦИЯ

На основании изучения действующего в настоящее время в Республике Армения Кодекса об административных правонарушениях установлено наличие существенных пробелов регламентирования института экспертизы. Выделяются и описываются характерные пробелы в данном правовом акте, в частности в первую очередь речь идет об отсутствии легальной характеристики заключения эксперта и требований, предъявляемых к его форме и содержанию. Отмечается также, что детально не предусмотрен порядок назначения экспертиз, отсутствуют регламентации по вопросам видов экспертиз, неполноценно регламентирован статус эксперта и т.д.

В статье подводятся некоторые итоги выполненных исследований и излагается взгляд на процедуры устранения вышеуказанных пробелов. Автор приходит к выводу, что необходимо дать детальную правовую характеристику заключения эксперта, в том числе предусмотреть требования, предъявляемые к форме и содержанию указанного вида доказательства, порядок его исследования; детально регламентировать порядок назначения экспертизы, в том числе внести норму, содержащую обязательные случаи назначения экспертизы; предусмотреть виды экспертиз, основания и порядок их назначения. Значительное внимание уделяется усовершенствованию регламентации статуса эксперта, в частности предлагается предусмотреть обязанность эксперта о немедленном оповещении органа (должностного лица), назначающего экспертизу, о невозможности проведения экспертизы в тех случаях, когда исследование для решения заданных вопросов выходит за пределы его специальности; зафиксировать запрет перепоручения производства той экспертизы, которая поручена конкретному эксперту; предусмотреть порядок предупреждения эксперта об уголовной ответственности за дачу ложного заключения. Обосновывается идея о том, что изложенные в статье взгляды будут интересны специалистам, занимающимся правотворческой деятельностью, и экспертам-практикам, специализирующимся в области судебной экспертизы.

Ключевые слова: экспертиза, заключение эксперта, порядок назначения, статус эксперта, Кодекс об административных правонарушениях.

ANNOTATION

Ushbu maqolada davlat siyosatining institutsional asoslari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. Siyosiy institutlar, xususan, davlatning jamiyat hayotidagi roli va funksiyalari borasidagi turli yondashuvlar qiyosiy tahlil etilgan. Institutsionalizm nazariyasining asosiy tushunchalari, ularning mohiyati va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati yoritib berilgan. Davlat siyosatining konseptual talqinlari, uning tarkibiy qismlari va amalga oshirish mexanizmlari ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Huquqni muhofaza qilish siyosati misolida davlatning ijtimoiy nazorat funksiyasini amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslari aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: davlat siyosati, siyosiy institut, institutsionalizm, ijtimoiy nazorat, huquqni muhofaza qilish siyosati, jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, normativ yondashuv, tashkiliy yondashuv, interaksion yondashuv.

АННОТАЦИЯ

В статье проводится теоретико-методологический анализ институциональных основ государственной политики. Представлен сравнительный анализ различных подходов к роли и функциям политических институтов, в частности государства, в жизни общества. Освещены основные понятия теории институционализма, их суть и значение в развитии общества. С научной точки зрения исследованы концептуальные интерпретации государственной политики, ее составляющие и механизмы реализации. На примере правоохранительной политики проанализированы механизмы осуществления государством функции социального контроля. Уточнены теоретико-методологические основы государственной политики в сфере предупреждения преступности и профилактики правонарушений.

Ключевые слова: государственная политика, политический институт, институционализм, социальный контроль, правоохранительная политика, предупреждение преступности,

профилактика правонарушений, нормативный подход, организационный подход, интеракционный подход.

ANNOTATION

This article provides a theoretical and methodological analysis of the institutional foundations of state policy. A comparative analysis of various approaches to the role and functions of political institutions, particularly the state, in society is presented. The basic concepts of institutionalism theory, their essence, and significance in societal development are highlighted. The conceptual interpretations of state policy, its components, and implementation mechanisms are examined from a scientific perspective. The mechanisms of implementing the state's social control function are analyzed using the example of law enforcement policy. The theoretical and methodological foundations of state policy in the field of crime prevention and law violation prophylaxis are clarified.

Key words: state policy, political institution, institutionalism, social control, law enforcement policy, crime prevention, prevention of law violations, normative approach, organizational approach, interactional approach.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatlarda davlat siyosati ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, uning institutsional tabiatini o'rganish bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada davlatning institutsional tabiati, uning jamiyat hayotidagi roli va funksiyalari haqidagi nazariy qarashlarni tizimli o'rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Siyosiy fanlarda, xususan, siyosiy institutlar nazariyasi doirasida davlat eng muhim va asosiy siyosiy institut sifatida e'tirof etiladi. Davlatning institutsional mohiyatini o'rganish orqali uning jamiyat hayotidagi o'rni, siyosiy jarayonlarga ta'siri va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, uning institutsional xususiyatlarini o'rganish zamonaviy siyosiy fanlarning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda davlat siyosatining turli yo'nalishlari orasida huquqni muhofaza qilish siyosati, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jamiyatda huquqiy tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish har qanday davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, huquqni muhofaza qilish siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (literature review)

Davlat siyosatining institutsional asoslari, uning nazariy-metodologik jihatlarini, siyosiy

institutlar tushunchasi va ularning mohiyati bir qator tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ushbu masalalarni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat va uning institutsional tabiati haqida gap ketganda, avvalo, uning siyosiy institut sifatidagi ta'rifi va talqinlariga e'tibor qaratish lozim. B.To'xtasinov o'z tadqiqotlarida davlatning siyosiy institut sifatidagi rolini quyidagicha ta'riflaydi: "Nashr qilingan ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning aksariyatiga bir umumiy fikr xos: davlat oliy qonun chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy me'yorlar hamda ijtimoiy hayot qoidalarini ishlab chiqish, nazorat qilib borish huquqiga ega, ma'lum bir hududiy-ma'muriy makonda mazkur jamiyatning xavfsizligi va barqarorligi uchun mas'ul va javobgar siyosiy institut shaklida talqin qilingan" (To'xtasinov B., 2022, b. 939-944).

Siyosiy institutlar, xususan, davlatning mohiyati va funksiyalarini tadqiq etishda turli xil yondashuvlar mavjud. Rossiyalik olim A.V. Abramov taklif etgan nazariy talqinlar tipologiyasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Bu tipologiya institutsionalizm yo'nalishining yetakchi namoyandalari tomonidan ilgari surilgan qarashlarni qamrab olgan bo'lib, uning yordamida turli xil yondashuvlarni tizimli ravishda tahlil qilish mumkin (Abramov A.V., 2010, b. 53–55).

O'zbekistonlik tadqiqotchi A.Yuldashev siyosiy institutlar mohiyati va ular faoliyatining xususiyatlarini tahlil qilar ekan, quyidagi ta'rifni bergan: "Siyosiy fanlarda, odatda, siyosiy institutlarning uch asosiy mazmuni qabul qilingan deyishimiz mumkin: institutlar siyosiy tuzilma sifatida, institutlar siyosiy muassasa sifatida, institutlar siyosiy xulq-atvorning barqaror turi sifatida. Yangi siyosiy institutlarning shakllanish jarayonlari va oldin mavjud bo'lganlarining qayta o'zgarishi transformatsiyalashayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi" (Yuldashev A., 2022, b. 239–246).

Institutsionalizmning yirik namoyandasi Duglas Nort institutlar mohiyatini tushuntirishda ularni "o'yin qoidalari" sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, institutlar "odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi inson tomonidan yaratilgan chegaralash mexanizmlari

sifatida namoyon bo'ladi" (Nort D., keltirilgan iqtibos manbasi faylda ko'rsatilmagan). Bu ta'rif institutlarning dinamik tabiatini ochib berish bilan birga, ularning jamiyat hayotidagi barqarorlashtiruvchi rolini ham ta'kidlaydi.

Robert Dal demokratik institutlarni tahlil qilar ekan, ularning jamiyat hayotidagi rolini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning fikriga ko'ra, institutlar nafaqat rasmiy normalar tizimi, balki ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtiruvchi va tartibga soluvchi mexanizmlar sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi (Dal R., 2000, b. 83).

Davlat siyosatining u yoki bu yo'nalishini o'rganishda, xususan, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatini tahlil qilishda tadqiqotchilar va olimlar tomonidan turli xil yondashuvlar ilgari surilgan. Masalan, G.I.Zabryanskiy jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini "muayyan g'oyalarga asoslangan, davlat va nodavlat institutlarning jinoyatchilik hodisasiga qarshi kurashishining asosiy vazifalari, tamoyillari, yo'nalishlari va vositalarini shakllantirish hamda amalga oshirish bo'yicha faoliyati" sifatida ta'riflaydi.

Rossiyalik olim Y.I.Gilinskiy jinoyatchilikni ijtimoiy konstrukt sifatida o'rganar ekan, uning siyosiy hokimiyat munosabatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi: "Huquqiy konstrukt o'zining mazmun-mohiyati jihatidan siyosiy hokimiyat munosabatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki har qanday siyosiy tuzum, hokimiyat tashkil etilishining shaklidan qat'i nazar, turli xil deviant xulq-atvor turlari, shu jumladan jinoyatchilikni ham konstruksiyalaydi, deviantlik va jinoyatchilarga nisbatan qo'llaniladigan sanksiyalarni belgilaydi, shuningdek, aholining ularga bo'lgan munosabatini shakllantiradi" (Gilinskiy Y.I., 2014, b. 44).

I.I.Nurutdinov o'z tadqiqotlarida deviant amaliyotlarning ijtimoiy konstruksiyalash jarayonlarini tahlil qilar ekan, jinoyatchilikni ijtimoiy konstruksiyalash jarayonida turli guruhlar – aholi, olimlar-ekspertlar, jamoatchilik fikri yetakchilari ishtirok etishiga qaramay, muayyan "muammoli vaziyatning haqiqiy kriminalizatsiyasi faqatgina siyosiy hokimiyat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi" deya ta'kidlaydi (Nurutdinov I.I., 2012, b. 9).

Jinoyat siyosati tushunchasini ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan nemis kriminologi F. List o'z asarlarida davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatining mohiyati va mazmunini chuqur tahlil qilgan (List F., 2004, b. 7). Uning izdoshlari I.A.Zinchenko va A.Y.Trapitsin jinoyat siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniqlashtirib, bu sohada iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar majmuasidan foydalanish zarurligini ta'kidlaganlar (Zinchenko I.A., Trapitsin A.Y., 2011, b. 87).

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosatining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilishda V.N. Kolesasov, O.I. Beketov va Y.V. Davidov kabi tadqiqotchilarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish siyosatining tarixiy rivojlanishi, huquqiy asoslari va zamonaviy tendensiyalari chuqur tahlil qilingan (Kolesasov V.N., 2011, b. 52–59; Beketov O.I., Davidov Y.V., 2015, b. 8–15).

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili davlat siyosatining institutsional asoslari, uning nazariy-metodologik jihatlari, siyosiy institutlar tushunchasi va ularning mohiyati borasida turli xil yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur masalalarni yanada chuqurroq o'rganish, qiyosiy tahlil qilish va zamonaviy ijtimoiy voqelikka mos keladigan konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (analysis and results)

Siyosiy institutlar nazariyasini o'rganishda, avvalo, "institut" tushunchasining mohiyati va mazmunini aniqlashtirib olish lozim. Zamonaviy siyosiy fanlarda "siyosiy institut" tushunchasi turli xil talqinlarga ega bo'lib, bu talqinlar siyosiy institutlarning u yoki bu jihatiga urg'u beradi. Siyosiy institutlarni tushunish va ta'riflashda uchta asosiy yondashuv mavjud:

Normativ yondashuv – bu yondashuvga ko'ra, siyosiy institutlar jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi, muayyan me'yorlar va qoidalarining barqaror tizimi sifatida talqin etiladi.

Tashkiliy yondashuv – bu yondashuv siyosiy

institutlarni muayyan tashkiliy tuzilma, ma'lum bir maqsad va vazifalarga ega bo'lgan rasmiy hokimiyat organlari, siyosiy tashkilotlar sifatida ko'rib chiqadi.

Interaksion yondashuv – bu yondashuvga ko'ra, siyosiy institutlar ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning barqarorlashgan shakli, siyosiy faoliyatning muayyan turi yoki modeli sifatida talqin etiladi.

Tashkiliy yondashuvning metodologik ahamiyati shundaki, u institutlarning rasmiy tuzilmaviy jihatlari, ularning tashkiliy iyerarxiyasi va funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa institutlarning jamiyat hayotidagi roli, ularning faoliyat mexanizmlari va rivojlanish qonuniyatlarini to'liqroq tushunish uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Interaksion yondashuvning metodologik ahamiyati shundaki, u institutlarni statik emas, balki dinamik hodisa sifatida o'rganadi. Bu yondashuv doirasida institutlar nafaqat rasmiy qoidalar yoki tashkiliy tuzilmalar, balki ijtimoiy munosabatlar va o'zaro ta'sirning barqarorlashgan shakllari sifatida ham talqin etiladi.

Institutsionalizmning yirik namoyandasi Duglas Nort institutlarni keng doirada talqin etib, ularning ham rasmiy, ham norasmiy ko'rinishlarini tan oladi. Bunday yondashuv institutlarning ijtimoiy hayotdagi barcha jihatlarini qamrab olish imkonini beradi. Nort tomonidan taklif etilgan ta'rifga ko'ra, institutlar jamiyatdagi "o'yin qoidalari" sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rif institutlarning dinamik tabiatini ochib berish bilan birga, ularning jamiyat hayotidagi barqarorlashtiruvchi rolini ham ta'kidlaydi. Institutlar insonlar xulq-atvorini ma'lum bir qoliplarga solib, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Davlat siyosiy institut sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Uning asosiy vazifalari orasida jamiyatda tartib-intizom o'rnatish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va boshqa muhim funksiyalar mavjud. Davlatning bu funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlari orasida davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, davlat siyosati tushunchasining mohiyati va mazmuni to'g'risida ilmiy doiralarda turli xil qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar

uni muayyan g'oyalarga asoslangan, davlat hokimiyati organlarining ma'lum bir sohadagi faoliyati sifatida talqin etsa, boshqalari uni ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi.

Davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida huquqni muhofaza qilish siyosati, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalish davlatning ijtimoiy nazorat funksiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Huquqni muhofaza qilish siyosatining mohiyati jamiyatda huquqiy tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat. Bu siyosatni amalga oshirishda davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qilish organlari va fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etadi. Ushbu siyosatning ikki asosiy komponentini ajratib ko'rsatish mumkin: *statik* va *dinamik*. Statik komponent davlatning huquqiy normalarni amalga oshirish sohasidagi strategiyasi va taktikasi sifatida namoyon bo'ladi. Statik komponent uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan bo'lib, huquqni muhofaza qilish faoliyatining konseptual asoslarini belgilab beradi. Bu komponent doirasida davlatning huquqni muhofaza qilish sohasidagi asosiy maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari va ularga erishish vositalari aniqlanadi.

Dinamik komponent esa maxsus vakolatli subyektlarning ilmiy asoslangan, izchil va tizimli faoliyatini ifodalaydi. Bu faoliyat huquqiy normalarni har qanday buzilishlardan himoya qilishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshiruvchi subyektlar tegishli hokimiyat vakolatlariga ega bo'ladi. Dinamik komponent huquqni muhofaza qilish organlarining kundalik faoliyatida namoyon bo'ladi va statik komponentda belgilangan maqsad hamda vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq harakatlarni o'z ichiga oladi.

Huquqni muhofaza qilish siyosatining bu ikki komponenti o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va uyg'unlik muhim ahamiyat kasb etadi. Statik komponent doirasida belgilangan strategik maqsad va vazifalar dinamik komponent orqali amalga oshiriladi, o'z navbatida, huquqni

muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyati natijalari statik komponentni takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, bu ikki komponentning samarali o'zaro ta'siri huquqni muhofaza qilish siyosatining natijadorligini ta'minlaydi va huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati huquqni muhofaza qilish siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda jinoyatchilik darajasini kamaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishdan iborat. Shu sabab, bu boradagi davlat siyosatini alohida yo'nalish sifatida ajratish uning samaradorligini oshirish, profilaktika tizimini takomillashtirish va bu sohadagi faoliyatni yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda huquqiy tartibot va xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlatning ham tashqi, ham ichki siyosatining asosiy determinantlari milliy va davlat manfaatlari hisoblanadi. Bu manfaatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy va davlat manfaatlari konsepsiyasi davlat siyosatining nazariy-metodologik asosini tashkil etib, u davlatning barqaror rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida kompleks va tizimli yondashuvni joriy etish, davlat idoralari va tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kompleks yondashuv orqali huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin. Bunda har bir davlat organi va tashkilotning vakolatlari, majburiyatlari va mas'uliyati aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, ular o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmlarini yaratish zarur.

Shunday qilib, davlat siyosatining institutsional asoslari, uning nazariy-metodologik jihatlarini, xususan, huquqni muhofaza qilish siyosati, jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati to'g'risidagi nazariy qarashlarni chuqur tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini

aniqlashtirish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat siyosatining samaradorligini oshirish, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish va jamiyatda huquqiy tartibot hamda xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (conclusion/recommendations)

Davlat siyosatining institutsional asoslari, uning nazariy-metodologik jihatlarini, siyosiy institutlar tushunchasi va ularning mohiyati borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Siyosiy institutlar tushunchasining mohiyati va mazmunini o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ular institutlarning u yoki bu jihatiga urg'u beradi. Normativ yondashuvga ko'ra, institutlar jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar va qoidalar tizimi sifatida talqin etiladi. Tashkiliy yondashuv institutlarni muayyan tashkiliy tuzilma sifatida ko'rib chiqsa, interaksion yondashuv ularni ijtimoiy munosabatlar va o'zaro ta'sirning barqarorlashgan shakllari sifatida talqin etadi.

Davlat eng muhim siyosiy institut sifatida jamiyat hayotida alohida o'rin tutadi. Uning asosiy vazifalariga jamiyatda tartib-intizom o'rnatish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash,

ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kiradi. Davlatning bu funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlari orasida davlat siyosati alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat siyosati tushunchasining mazmun-mohiyati to'g'risida ilmiy doiralarda turli xil qarashlar mavjud. Uni davlat hokimiyati organlarining ma'lum bir sohadagi maqsadli faoliyati, davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi, ko'p pog'onali va ko'p qirrali dinamik siyosiy-boshqaruv tizimi sifatida talqin etish mumkin.

Huquqni muhofaza qilish siyosati davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida jamiyatda huquqiy tartibot va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan. Huquqni muhofaza qilish siyosatining statik va dinamik komponentlari mavjud bo'lib, ularning samarali o'zaro ta'siri huquqni muhofaza qilish siyosatining natijadorligini ta'minlaydi.

Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat siyosati huquqni muhofaza qilish siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda jinoyatchilik darajasini kamaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishdan iborat.



ADABIYOTLAR

1. To'xtasinov B. Davlat – avlodlararo ichki bog'liqlikning in'ikosi va muhim omili // National University of Uzbekistan Conference. – 2022. – Т. 3, No 2. – В. 939-944.
2. Абрамов А.В. Политический институт и политическая институционализация: определение понятий / А.В.Абрамов // Власть. – 2010. – № 5. – С. 53-55.
3. Yuldashev A. Rasmiy va norasmiy siyosiy institutlar faoliyatini tadqiq etishning dolzarb masalalari// Oriental Journal of History, Politics and Law. 2022. Vol. 2. В. 239-246.
4. Дал Р. О демократии / Р.Дал; пер. с англ. А.С.Богдановского; под ред. О.А.Алякринского. – М.: Аспект Пресс, 2000. – 203 с.
5. Гишинский Я.И. Социальный контроль над преступностью: понятие, российская реальность, перспективы / Я.И.Гишинский // Российский ежегодник уголовного права. – 2013. – № 7 / гл. ред. В.Ф.Щепелков. – СПб. – Университетский издательский консорциум, 2014. – С. 42-58.
6. Нурутдинов И.И. (Де)конструирование девиантных практик: социологический анализ (на примере ваххабизма): автореф. дисс...канд. соц. наук: 22.00.04 / И.И.Нурутдинов. – Саранск, 2012. – 22 с.
7. Лист Ф. Задачи уголовной политики. Преступление как социально-патологическое явление / Ф.Лист; сост. и предисл. В.С.Овчинского. – М.: ИНФРА-М, 2004. – 110 с.
8. Зинченко И.А. Уголовная политика: понятие, проблемы и перспективы / И.А.Зинченко, А.Ю.Трапицын // Вестник Балтийского федерального университета им. И.Канта. – 2011. – № 9. – С. 86-92.
9. Колемасов В.Н. Государственная политика в сфере профилактики преступности: история и современность / В.Н.Колемасов // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки – 2011. – № 4 (20). – С. 52-59.
10. Бекетов О.И. Профессор В.И.Майоров – исследователь административно-правовых основ государственной системы профилактики правонарушений / О.И.Бекетов, Ю.В.Давыдов // Правопорядок: история, теория, практика. – 2015. – № 1 (4). – С.8-15.

ZAMONAVIY JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIY VA HUQUQIY MEXANIZMLARI

LATIPOV

*Sardor Shavkatovich,
Navoiy viloyati Ichki ishlar
boshqarmasi
Zarafshon shahar Ichki ishlar
bo'limi boshlig'i*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada korruptsiyaga qarshi kurashishda zamonaviy jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy va huquqiy mexanizmlar chuqur tahlil qilinadi. Unda korruptsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimining o'rni, shuningdek, milliy va xalqaro huquqiy asoslar muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada ilg'or xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korruptsiya, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, profilaktika, ijtimoiy mexanizmlar, huquqiy mexanizmlar, islohotlar, xalqaro tajriba, qonunchilik, axborot ochiqligi.

АННОТАЦИЯ

В статье проводится глубокий анализ социальных и правовых механизмов противодействия коррупции в современном обществе. Особое внимание уделено формированию антикоррупционной культуры, повышению активности институтов гражданского общества, роли СМИ и системы образования, а также значению национальных и международных правовых основ. На основе передового зарубежного опыта представлены конкретные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: коррупция, гражданское общество, правовая культура, профилактика, социальные механизмы, правовые механизмы, реформы, международный опыт, законодательство, открытость информации.

ANNOTATION

This article provides an in-depth analysis of the social and legal mechanisms used to combat corruption in modern society. It focuses on the development of anti-corruption culture, increased civic engagement, the role of mass media and the education system, as well as the significance of national and international legal frameworks. The article also includes proposals and recommendations based on best international practices.

Key words: corruption, civil society, legal culture, prevention, social mechanisms, legal mechanisms, reforms, international experience, legislation, information transparency.

Zamonaviy global dunyoda korrupsiya muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Bu mamlakatlarning modernizatsiyasi, iqtisodiyoti rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va oxir-oqibat butun dunyo hamjamiyatining hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Naumov ta'kidlaganidek, har qanday hodisaning mazmuni uning mavjudligining ma'lum turlari va shakllarida ifodalanadi. Shuning uchun korrupsiyaning mohiyatini o'rganish bilan bir qatorda uning namoyon bo'lish turlari va shakllari alohida ko'rib chiqilishi kerak [1, b. 39]. Shu sababli ham korrupsiya turlarini tahlil qilish korrupsiya kabi ijtimoiy hodisani yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Korrupsiyaning haddan tashqari ko'p qirraliligi ushbu hodisaning tasnifi, shu jumladan, uslubiy sabablarini keltirib chiqarish zarurligiga olib keladi. Ko'rsatilgan xatti-harakatlar strategiyalari har doim u yoki bu darajada mavjud bo'lib, ularning shakllari yoki, aytaylik, o'lchamlari farq qilishi mumkin. Ikkala strategiya ham resurslarga egalik qilish uchun kurash umumiy strategiyasining tomonlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, birinchi va ikkinchi strategiyalar, agar ular soyali yoki noqonuniy vositalar yordamida amalga oshirilsa, korrupsiya sifatida ko'rib chiqilishi kerak degan fikrdamiz.

Hozirgi vaqtda korrupsiya tipologiyasiga tasniflash asosiga qarab turli xil yondashuvlar kuzatilmoqda: obyektlar, subyektlar, hokimiyat darajasi bo'yicha. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda korrupsiyani tasniflashning turli xil yondashuvlari mavjud. Masalan, S.Rouz-Akkerman korrupsiyani ikki asosda ajratishni taklif qiladi:

– pora oluvchilarning turiga ko'ra, siyosiy va ma'muriy, bu yerda birinchisi qonunlarning qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lib, pora oluvchilarning asosiy turi hukumat va davlat rahbarlarining vakillari, ikkinchisi – davlat qonunlardan foydalangan holda;

– pora bozori turiga ko'ra: markazlashtirilgan (korrupsiya takliflari uchun nisbatan kichik bozor

mavjud) va markazlashtirilmagan korrupsiya (pora bilan xizmatlar uchun to'lov hamma joyda sodir bo'ladi) [2, b. 150].

Korrupsiyani alohida aktlar asosida tasniflagan S.Rottenberg esa uning uchta turini tadqiq qilgan. Uning ta'kidlashicha, korrupsiyaning birinchi turi korrupsiya to'lovi bunday xizmat uchun olinadigan holatlar mavjudligini anglatadi, ular mavjud bo'lmasdan amalga oshirilishi kerak. Ikkinchisi, aksincha, qoidalar va normalarga rioya etishni talab qiladigan narsalarni bajar-maganlik uchun haq olishni o'z ichiga oladi. Korrupsiyaning uchinchi turi ma'lum bir harakat uchun haq to'lash qonunlarni to'g'ridan-to'g'ri buzishni o'z ichiga olgan vaziyatda yuzaga keladi [3, b. 49].

Ingliz olimi J.Skott esa quyidagi ikki turdagi korrupsiyani asosiy korrupsiya turi sifatida tasniflagan:

– organik; bu tizim bo'lib, unda hokimiyat vakillarining marhamati qarindoshlik yoki do'stona munosabatlar bilan belgilanadi;

– hokimiyat, imtiyozlar; imtiyozlar – mansab-dor shaxsga eng katta to'lovni taklif qila oladiganlar tomonidan olinadigan bozor [4, b.88].

Korrupsiya jarayonlarining yana bir tadqiqotchisi N.Musheshe korrupsiyaning quyidagi tasnifini taklif sifatida ilgari surgan:

– davlat resurslaridan noto'g'ri foydalanish, odatda, mansabdor shaxslarning shaxsiy manfaati va shaxsiy foydalarini qondirishga qaratilgan;

– davlat xizmatchisi yoki tijorat tashkilotlari xodimi tomonidan ba'zi xizmatlarni ko'rsatish uchun komissiya sifatida haq olishni o'z ichiga olgan pora berish va qaytarib olish amaliyoti [5, b. 133]. Shuningdek, mazkur olim korrupsiyani qamrab olish darajasini ajratish uchun asos sifatida o'rganilayotgan hodisani quyidagicha tasniflaydi:

– shaxsning javobgarlikdan voz kechishi, o'ziga va boshqa odamlarga hisobot berishdan bosh tortishi sharoitida o'zini namoyon qiladigan individual korrupsiya. Bu yerda korrupsiya qadriyatlar va ustuvorliklar tizimining keskin o'zgarishi, ochko'zlikning shaxsga ta'siri kuchayishi bilan tavsiflanadi;

– oilaviy korrupsiya, bu er-xotinlar o'rtasidagi mehnat taqsimotining buzuvchi shakllari, oilaviy byudjetni tuzishda buzilishlar;

– jamiyatning barcha sohalariga kirib boradigan institutsional korrupsiya;

– milliy korrupsiya siyosiy homiylik, davlat mablag'larini katta miqdorda o'g'irlash, inson huquqlarini buzishda o'z timsolini topishi mumkin.

– korrupsiyaning xalqaro darajasi xavfli siyosiy firibgarliklar, savdo munosabatlarining yetarli emasligi va iqtisodiy shantaj bilan ajralib turadi.

Faoliyat sohasiga qarab turli mualliflar, shu jumladan S.M.Proyava, davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya, parlament korrupsiyasi, korxonalaridagi korrupsiya, saylovlar paytida korrupsiya kabi korrupsiya turlarini ajratib ko'rsatgan [6, b. 32].

Ushbu tasnif doirasida korrupsiyaning birinchi turi davlat xizmatchisining davlat resurslarini tasarruf etish hamda davlat va jamiyat manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib emas, balki o'z manfaatiga qarab qaror qabul qilish imkoniyati bilan bog'liq.

Parlament korrupsiyasi, aslida, muayyan ijtimoiy, juda tor guruhlarining manfaatlarini lobbi qilishning turli shakllari bo'lib, normalarni o'z ichiga olgan qonunlarni qabul qilishdan iborat, ular ma'lum bir guruhga muayyan imtiyozli mavqeni tayinlashni o'z ichiga oladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tashkilot xodimi, shuningdek, mansabdor shaxs unga tegishli bo'lmagan resurslarni tasarruf etishi mumkinligi sababli uning tashkiloti manfaatlarini buzadigan harakat yoki harakatsizlik bilan ifodalangan korrupsiya munosabati paydo bo'lishi mumkin.

Xorijiy davlatlarda ko'pincha saylov paytida saylovchilarning ovozlari sotib olish korrupsiyaning alohida turiga aylanadi. Ko'pgina davlatlarning qonunchiligiga binoan, xalq va uning bir qismi sifatida alohida saylovchi, hokimiyat sifatida belgilanishi mumkin bo'lgan manbaga ega. U ushbu vakolatlarni ovoz berish jarayonida saylangan shaxslarga topshiradi. Saylovchi o'z mulohazalari, qiziqishlari, ehtiyojlari asosida ma'lum bir qaror qabul qiladi. Shu bilan birga, saylov jarayonining yetarliligi, shuningdek, davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ishonmaslik sharoitida saylovchi ba'zan saylanayotgan kishi bilan kelishuvga erishadi, bunda birinchisi pul

yoki boshqa imtiyozlarni oladi, ikkinchisi esa hokimiyat resursini olishga umid qiladi.

I.Ahmedov tomonidan taklif qilingan korrupsiyani tasniflash uchun asos mansabdor shaxsning tashkilot tomonidan foyda olishda ishtirok etish darajasi hisoblanadi, shu munosabat bilan u progressiv korrupsiyani asosiy korrupsiya turi sifatida ta'kidlaydi [7, b. 14]. Buesa mansabdor shaxs tomonidan imtiyozlar va imkoniyatlar berish natijasida olingan (tadbirkorlar tomonidan) foydani ko'paytirish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda muayyan to'siqlarni yaratishga qaratilgan korrupsiyani o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, korrupsiyaning bir qator xorijiy tadqiqotchilari korrupsiyaning o'zaro ta'siri subyektlar xatti-harakatlarining faollik darajasiga qarab:

– *faol korrupsiya*, manfaatdor shaxs tomonidan milliy yoki xorijiy mansabdor shaxsga faol pora berish yoki mansabdor shaxslar tomonidan ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda noqonuniy ish haqini tovlamachilik bilan o'zlashtirish sifatida qaraladi;

– *passiv korrupsiya*, passiv poraxo'rlik deb tushuniladi, ya'ni xizmatdagi qonuniy xatti-harakatlar uchun mansabdor shaxs tomonidan noqonuniy haq olinishi [8, b. 118].

Shuningdek, korrupsiyani ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar turlari bo'yicha ajratish kerak, buning asosida g'arbiy va sharqiy korrupsiyani ajratish mumkin.

G'arb korrupsiyasida bu hodisa "korrupsiya xizmatlarining o'ziga xos bozori vazifasini bajaradi, unda tomonlar vaqtincha bir martalik oldi-sotdi munosabatlariga kirishadi".

Sharqiy korrupsiya holatida korrupsiya asta-sekin ma'lum bir ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida boshqa ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, qarindoshlik, korporativ, professional munosabatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ma'lum bir davlatdagi korrupsiyani tizimli omilga aylantiradi.

Bir qator tadqiqotchilar, jumladan Y.G.Naumov korrupsiyani subyektlar faoliyatining maqsadlariga qarab tasnifladi [9, b. 44]. Shunday qilib, iqtisodiy va siyosiy korrupsiyaga bo'linish taklif etiladi.

Iqtisodiy korrupsiya ostida Y.G.Naumov egalik qilish, qayta taqsimlash, mulkchilikning

barcha shakllari va resurslaridan foydalanishga qaratilgan korrupsiyani tushunadi, ularga kirish rasmiy mavqe bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, siyosiy korrupsiya deganda shaxslarning hokimiyatni qayta taqsimlash istagi bo'lgan korrupsiya tushuniladi.

Fikrimizcha, bunday demarkatsiya chizig'ini o'tkazish mutlaqo to'g'ri emas, chunki siyosiy maqsad (kuch) belgilangan terminologiyada va iqtisodiy maqsad – resurslarni tasarruf etish imkoniyati mavjud.

Fikrimizcha, korrupsiyani quyidagi asoslarga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir: korrupsiya munosabatlarini subyektlarning holati, darajasi, hududiy qamrov ko'lami, korrupsiya munosabatlarining takrorlanish darajasi bo'yicha ajratish mumkin. Shunday qilib, subyektlar maqomiga ko'ra, korrupsiya davlat va xususiyga bo'linadi.

Korrupsiyaning davlat turi – bu davlat organining vakolatlari doirasida korrupsiya harakatlarining sodir etilishi. Ehtimol, korrupsiyaning bu turi eng katta tahdiddir, chunki davlat hokimiyati odamlarning alohida guruhlaridan tomonidan faqat shaxsiy maqsadlar va manfaatlar uchun ishlatiladi, aslida jamiyat nazorati ostida bo'lmaydi. Shuningdek, korrupsiya jarayonlarini ichki (korrupsiya subyekti maqomidan qat'i nazar, bir mamlakat hududida korrupsiya harakatlari sodir etiladigan vaziyat) va xalqaro korrupsiyani (xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarini korrupsiyaga tortishga qaratilgan harakatlar yoki bir nechta davlatlar fuqarolari va mansabdor shaxslarning birgalikdagi korrupsiya faoliyati) ajratib, hududiy qamrov ko'lami bo'yicha ajratish tavsiya etiladi.

Korrupsiya harakatlarining takrorlanish darajasiga qarab, korrupsiyaning yagona faktlarini o'z ichiga olgan yagona (yoki tasodifiy) korrupsiya va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan korrupsiya interaksionalari paytida yuzaga keladigan, u yoki bu tarzda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan, asta-sekin ijtimoiy maqbul hodisaga aylanadigan tizimli korrupsiyani ajratish maqsadga muvofiqdir. Ehtimol, eng umumiy shaklda korrupsiyani ma'muriy va biznesga bo'lish mumkin.

Ma'muriy korrupsiya davlat hokimiyati organlari faoliyati bilan bog'liq. Bu ma'lum bir aktorlarga imtiyozlar berish uchun muayyan

sohani tartibga soluvchi qoida va normalarni to'g'ri bajarish jarayonlarini ataylab o'zgartirish deb tushuniladi. Shu bilan birga, ma'muriy korrupsiya turlarini subyektlar darajasiga qarab tasniflash zarurati aniq ko'rinadi. Bu yerda pastki va apikal korrupsiyani aniqlaymiz.

Oddiy korrupsiya – bu odatda xizmat iyerarxiyasining eng past va o'rta darajasida bo'lgan mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan va ushbu amaldorlar bilan doimiy aloqada bo'lgan aholi asosiy qismining kundalik hayotini qamrab oladigan korrupsion harakatlar (shuning uchun korrupsiyaning bu turi ham belgilanishi mumkin) muntazam yoki kundalikka aylanadi. Korrupsiyaning bu turi eng keng tarqalgan, garchi “mansabdor shaxslarning bir martalik to'lovlari” miqdori yuqori korrupsiyaga nisbatan ancha past bo'lsa ham.

Oddiy korrupsiya darajasida yuzaga keladigan bunday munosabatlar, bir tomondan, ijrochilar tomonidan o'zaro foydali deb hisoblanadi, shu jumladan har qanday muammolarni hal qilishni tezlashtirish, jarimalar yoki soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash haqida gap ketganda yuzaga keladi. Boshqa tomondan, ularning paydo bo'lish chastotasi tufayli bunday munosabatlar aholi tomonidan davlat apparatiga nisbatan keskin salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan V.V.Lunevning ta'kidlashicha, oddiy korrupsiya har kuni odamlarning moddiy farovonligini so'rib oladi [10, b. 63]. Masalan, “2002-yilda inson huquqlari bo'yicha Komissarning faoliyati to'g'risidagi hisobotda Rossiya aholisining pora uchun minimal xarajatlari yiliga 3 milliard AQSH dollarini tashkil etishi ko'rsatilgan, ammo aslida bu miqdor 3–5 baravar yuqori” [11, b. 78].

Fikrimizcha, jamiyatning ishlashini ta'minlash funksiyalarini bajarish uchun mansabdor shaxslarga bir qator vakolatlari, shu jumladan jamoat moddiy va nomoddiy resurslarini tasarruf etish vakolati beriladi. Shu bilan birga, bunday vakolat mansabdor shaxslarni jamiyatning qolgan qismidan uzoqlashtiradi va uni o'ziga xos manfaatlarga ega bo'lgan maxsus korporativ qatlamga aylantiradi. Jamiyat tomonidan zaiflashgan nazorat shu tarzda paydo bo'lgan korporativ qatlamda yuzaga kelgan imtiyozlarni qonuniy sifatida rasmiylashtirishga imkon beradi, shuningdek, jamiyatga uning qonuniyligi

g'oyasini singdiradi. Ushbu holatning eng salbiy oqibati manfaatlar himoyasining jamoatchilikdan korporativ tomonga siljishi bo'ladi. Asosiy manfaat hukmron qatlam imtiyozlari soni va sifatini saqlab qolish va oshirishdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqori darajadagi korrupsiya ko'pincha ijtimoiy guruhlarning xatti-harakatlari strategiyasiga qarab bo'linadi: davlatni egallab olish va biznesni egallab olish. Birinchi atama odatda hokimiyatning eng yuqori darajasida qarorlar qabul qilish ustidan soya nazoratini o'rnatishga qaratilgan korporativ va individual biznes xatti-harakatlari strategiyasini anglatadi. Ikkinchisi ostida davlat o'z vakillari orqali ma'muriy annuitet olish uchun biznesni nazorat qilishni o'rnatishga intiladigan hokimiyat strategiyalari va taktikalari to'plami.

Davlatni egallab olish sifatida amalga oshirilgan korrupsiya – bu davlat amaldorlariga ma'lum imtiyozlar berish natijasida o'zlari uchun ma'lum afzalliklarni ta'minlash uchun qonunlar, qoidalar, me'yorlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan turli xil fuqarolarning (ular ham shaxslar, ham guruhlar va firmalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin) harakatlari.

Davlatni egallab olish turlariga qarab farq qilishi mumkin, masalan, qo'lga kiritiladigan muassasalar yoki shunga o'xshash qo'lga olish bilan shug'ullanadigan subyektlar. Umuman olganda, bu yerda muhim narsa shundaki, davlat tomonidan tortib olishning barcha shakllari, birinchi navbatda, huquqiy muhitni buzish va jamiyat uchun mumkin bo'lgan katta yo'qotishlar yordamida tor doiradagi shaxslar uchun davlatdan daromad olishga qaratilgan.

Korrupsiya turlari bo'yicha bunday tasniflash uning mohiyatini to'liq tushunish, shuningdek, korrupsiyaning tarqalishi nuqtayi nazaridan eng xavfli vektorlar va jamiyat faoliyati yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradi.

Tadqiqot ishimizda ko'rsatilganidek, korrupsion hodisalar natijasida jamiyatda yuzaga keladigan norasmiy munosabatlar juda ko'p sonli shaxslarga ta'sir qiladi va ijtimoiy hayotning ko'plab jabhalariga kirib boradi. Shu munosabat bilan korrupsiya amaliyotlari turli shakllarda bo'ladi. Shu bilan birga, mavjud shakllar va tarkib bir-birini mustahkamlaydi. Gegel ta'kidlaganidek, "tarkib – bu shaklning tarkibga o'tishidan boshqa narsa emas, shakl esa tarkibning shaklga o'tishidir. Bu o'tish eng muhim ta'riflardan biridir" [12, b. 298]. Shu munosabat bilan korrupsiya amaliyotining namoyon bo'lish shakllarini ajratish korrupsiya mohiyatini tahlil qilish uchun zarur shart bo'lib tuyuladi.

Korrupsiya amaliyotlarining aksariyati quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: tanish-bilishchilik, poraxo'rlik, mijoz-homiylik aloqalari (yoki kliyetalizm) va lobbizm. Shu bilan birga, biz turli xil korrupsiya amaliyotlarini ushbu to'rttaga qisqartirish mumkin emasligini tushunamiz, ammo ularni asosiy, eng keng tarqalgan korrupsiya turlari deb ajratamiz.

Poraxo'rlik deganda esa mansabdor shaxsning xatti-harakatlariga o'z foydasiga hal qilish uchun ixtiyoriy taklif, va'da berish, qabul qilish, ma'lum miqdordagi pulni olishga rozilik mavjud bo'lgan bunday korrupsion vaziyatni tushunish maqsadga muvofiqdir.



ADABIYOTLAR

1. Наумов Ю.Г. Коррупция и общество: теоретико-экономическое и прикладное исследование: монография. – Владимир, 2007. – С. 39, 44.
2. Роуз-Аккерман С. Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы. – М., 2003. – С.150
3. Rottenberg S. Comment // The Journal of Law and Economics. 1975. Vol. 18.
4. Scott J.C. Comparative Political Corruption. – N.Y., 1972. – P. 88
5. Musheshe N. NGO and Mobilization against Corruption / Africa Leadership forum. Corruption, Democracy and Human rights in East and Central Africa. Entebbe, Republic of Uganda. 12-14 December 1994. Ibadan. – P. 133-134.
6. Проява С.М. Экономизация коррупции. Механизм противодействия: монография. – М., 2008. – С. 32-33.
7. Ахмедов И. Коррупционный беспредел // Монитор. – 10 апреля 2003 г. – № 14.
8. Бекен Т.В. Европейский взгляд на российский проект Федерального закона “Об основах антикоррупционной политики” // Государство и право. – 2002. – № 6. – С.118.
9. Наумов Ю.Г. Коррупция и общество: теоретико-экономическое и прикладное исследование: монография. – Владимир, 2007. – С. 44.
10. Лунеев В.В. Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы: сб материалов международной научно-практической конференции 9-10 сент. 1999 г. – М., 2001 г.
11. Кабанов П.А., Райков Г.И., Чирков Д.К. Политическая коррупция в условиях реформирования российской государственности на рубеже веков: монография. – М.: 2008. – С. 78.
12. Гегель Г.В.Ф. Энциклопедия философских наук. – М., 1977. – Т. 3. –С. 298.

O'ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIGA NISBATAN XIZMAT TEKSHIRUVLARINI TAYINLASH VA O'TKAZISH AMALIYOTI

KENJAEV

***Jasur Omon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi IIV
Malaka oshirish instituti
"Maxsus-kasbiy fanlar" kafedrası
katta o'qituvchisi, s.f.b.f.d,
podpolkovnik***

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazishning amaliy jihatları, huquqiy asoslari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tahlil etilgan. Xizmat tekshiruvlarining xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlariga ta'siri, shuningdek, inson huquqlari tamoyillariga rioya etilishining ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmat tekshiruvi, intizomiy javobgarlik, ichki ishlar organi, qonuniylik, inson huquqlari, xizmat intizomi.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются практические аспекты и правовые основы назначения и проведения служебных проверок в отношении сотрудников органов внутренних дел. Рассматриваются существующие проблемы и предлагаются рекомендации по их устранению, влияние служебных проверок на права и законные интересы сотрудников, а также значение соблюдения принципов прав человека.

Ключевые слова: служебная проверка, дисциплинарная ответственность, орган внутренних дел, законность, права человека, служебная дисциплина.

ANNOTATION

This article analyzes the practical aspects and legal foundations of initiating and conducting internal service investigations against employees of internal affairs bodies. It examines existing issues and provides recommendations for their resolution. The impact of service investigations on the rights and legitimate interests of employees, as well as the importance of adherence to human rights principles, is also considered.

Key words: service investigation, disciplinary liability, internal affairs body, legality, human rights, service discipline.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda tartib va barqaror xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, **“Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi”¹**.

Shu bilan birga, ichki ishlar tizimi xodimlarining o'z xizmat vazifalariga mas'uliyati, ularning kasbiy intizomi doimiy nazorat talab qiladi. Shu sababli xizmat tekshiruvlari instituti ushbu nazorat mexanizmining asosiy vositalaridan biri sifatida ko'riladi. Xizmat tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida qonuniylikka qat'iy rioya etish, xodimning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish hamda inson huquqlarini ta'minlash zarur. Maqolada ushbu tekshiruvlarning huquqiy va amaliy asoslari, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume'tirof etilgan odob-axloq normalariga hamda 2023-yilning 20-yanvar kuni qabul qilingan “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-10-sonli qarori bilan tasdiqlangan **“Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi”**ga so'zsiz amal qilish tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.10.2020-yildagi “25-oktabr – ichki ishlar organlari xodimlari kuni bayrami munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi.

tayinlash va o'tkazish tartibi huquqiy jihatdan bir necha normativ hujjatlar bilan mustahkamlangan. Jumladan, 2016-yilda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi qonun, shuningdek, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuraturasi tomonidan tasdiqlangan maxsus Yo'riqnoma asosiy manba hisoblanadi. Qonunning 6-moddasida xodimlar o'z faoliyatida qonunlarga qat'iy rioya etishi shartligi ta'kidlangan. Bu esa xizmat tekshiruvlarining qonuniylik prinsiplariga asoslangan holda o'tkazilishini anglatadi.

Yo'riqnomaning 1-bandiga ko'ra, “xizmat tekshiruvlari ichki ishlar xodimi tomonidan xizmat intizomi yoki qonunbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, tayinlanadi”². Bu jarayonda xolislik, adolat, obyektivlik kabi prinsiplarga amal qilindi. Xizmat tekshiruvlari xodimning qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan qilgan harakatlari, xizmat vazifasini suiiste'mol qilishi, qonunbuzarlik sodir etishi kabi holatlarda tayinlanadi.

Xizmat tekshiruvlarini tayinlash aniq huquqiy asosga ega bo'lgan, belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Yo'riqnoma binoan, xizmat tekshiruvini tayinlash vakolati rahbar shaxsga tegishli bo'lib, “xizmat hamda xizmatdan tashqari faoliyatida odob-axloqi va intizomiga qo'yiladigan talablarni”³ buzgan xodimga nisbatan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish amaliyotida xizmat tekshiruvini tayinlash vakolatiga ega bolgan “O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining o'rinbosarlari, IIV huzuridagi departamentlar, xizmatlar, bosh boshqarmalar, boshqarmalar, ta'lim va boshqa muassasalar, Tergov departamenti va uning quyi bo'linmalari boshliqlari, Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari qo'mondoni, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, mintaqaviy

² O'zbekiston Respublikasi IIV va Bosh prokuraturaning “Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risidagi” 42/28-son qo'shma qarori.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qaroriga 1-ILOVA, “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi KODEKSI”.

muvofiqlashtirish markazlari, tuman-shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari, tuman-shahar ichki ishlar bo'limlari (boshqarmalari) boshliq⁴larning og'zaki topshiriqlariga asosan o'tkazilayotganligining ham, afsuski, guvohi bo'lganmiz.

Vaholanki, yo'riqnomaga ko'ra, xizmat tekshiruvini tayinlash uchun "xodim yoki uning ishtirokida sodir etilgan xizmat yoki ijro intizomi buzilishi, ichki ishlar organi xodimiga nomunosib harakatlar yoxud ichki ishlar organi xodimi sha'niga putur yetkazuvchi xatti-harakatlar sodir etilganligi haqidagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shuningdek, sud, huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi hamda boshqa davlat organlari, jamoat tashkilotlarining xabarlari;

xodimlarning bildirgilari va IIV tarkibiy bo'linmalarining ma'lumotlarida, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda xodim tomonidan yoki uning ishtirokida sodir etilgan intizom buzilishi yoxud boshqa nojo'ya xatti-harakatlar to'g'risidagi xabarlar;

xodimlar tomonidan mansab vakolatini suiiste'mol qilish va undan chetga chiqish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi, shuningdek, ularni korrupsiya, poraxo'rlik va boshqa jinoyatlarni sodir etishga undash holatlari to'g'risida xabar berilmaganligi;

ish yurituvdagi protsessual hujjatlar yuzasidan ishga bevosita aloqasi bo'lmagan manfaatdor shaxslarning aralashuvi haqida xabar berilmaganligi;

xodim va uning oila a'zolari hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, mol- mulkiga qaratilgan tahdid yoki tajovuz qilish holatlari to'g'risida kelib tushgan ma'lumotlar;

ichki ishlar organi vakolatli rahbarining xodim tomonidan burchi, shuningdek, xizmat faoliyati davomida zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarish hamda qonuniy huquqlarini amalga oshirishda belgilangan tartib-qoidalar buzilganligi yuzasidan ko'rsatmasi;

xodim bilan bog'liq sodir bo'lgan

⁴ O'zbekiston Respublikasi IIV va Bosh prokuraturaning "Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risidagi" 42/28-son qo'shma qarori.

muayyan hodisalar, xodimning xizmatda yoki xizmatdan tashqari vaqtlarda tan jarohati olishi, avtohalokatga uchrashi, vafot etishi bilan bog'liq holatlar, xizmatdan tashqari vaqtlarda turli huquqbuzarliklar sodir etganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksida, harbiy xizmatchilarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomida ko'rsatilgan xizmat intizomining qo'pol ravishda buzilganligi;⁵ asos bo'lishi ko'rsatilgan.

Konstitutsiyamizning inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari bobida "Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi"⁶ ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida Ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi yagona Qonunda esa "Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan, maxsus unvon berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ichki ishlar organining xodimidir"⁷ deb ko'rsatilgan.

O'tkazilgan ilmiy tahlillarga ko'ra, ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvini tayinlashga vakolatli bo'lgan shaxslarning og'zaki topshiriqlariga asosan xizmat tekshiruv otkazilishi mumkin emas.

Birinchidan, huquqiy asos yo'q – og'zaki ko'rsatma tekshiruv boshlash uchun asos bo'la olmaydi.

Ikkinchidan, rasman tasdiqlanmagan – og'zaki ko'rsatma yozuvlarda aks etmaydi, ya'ni huquqiy hujjat maqomiga ega emas.

Uchinchidan, mas'uliyat – tekshiruv natijasi intizomiy javobgarlik, tanbehdan, hatto ishdan bo'shatishgacha olib borishi mumkin. Bunday hollarda faqat yozma asos talab etiladi.

"Nega bu muhim?" degan tabiiy savol tug'iladi.

Bu qoida orqali:

⁵ O'zbekiston Respublikasi IIV va Bosh prokuraturaning "Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risidagi" 42/28-son qo'shma qarori.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 20-moddasi.

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 407-son qonuni.

Birinchidan, ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida qonuniylik va rasmiylikni ta'minlaydi;

Ikkinchidan, ichki ishlar organlari xodimlarini asossiz turli xil ta'qib va tazyiqlardan himoya qiladi;

Uchinchidan, xizmat tekshiruvining noqonuniy boshlangan holatlariga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi.

Amaliy misol: faraz qilaylik, viloyat ichki ishlar boshqarmasi rahbariyati tarkibidagi bir xodim haqida uning bevosita boshlig'i qo'l ostidagi xodim yuzasidan shunday deydi: "U ishdan ko'p chalg'iyapti, xizmat vazifalarini loqaydlik bilan bajaryapti. Uni tekshirib ko'ringlar!"

Bu og'zaki ko'rsatma bo'lib, agar rahbar bu gapni hech qanday yozma farmoyish yoki xizmat tekshiruvi shaklida rasmiylashtirmasa — unga asosan xizmat tekshiruvi boshlash mutlaqo mumkin emas.

Aks holda, bu xodimning konstitutsiyaviy huquqlari buziladi, ya'ni shaxsni rasmiy asoslar bo'lmasdan tekshirish noqonuniy hisoblanadi.

Bu qoidaning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi IIV va Bosh prokuratura tomonidan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlariga

nisbatan xizmat tekshiruvini tayinlash va o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma"da belgilangan.

Xizmat tekshiruvini tayinlash faqat vakolatli shaxsning yozma ko'rsatmasi asosida amalga oshirilishi shart. Og'zaki topshiriqlar xizmat tekshiruvini tayinlash uchun asos bo'la olmaydi.

Bu normalar quyidagi qonuniy prinsiplarni mustahkamlaydi:

Birinchidan, qonun ustuvorligi (har qanday jarayon hujjatlashtirilgan bo'lishi lozim),

Ikkinchidan, Ichki ishlar organlari xodimining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

Uchinchidan, bu yo'nalishda shaffoflik va hisobdorlik.

O'zi xizmat tekshiruvi o'tkazishning asosiy maqsadi — hodisani to'liq, xolis va adolatli o'rganish, har bir tomonning huquqlariga rioya qilgan holda qaror qabul qilishdir. Jarayon yakunida xizmat tekshiruvining natijalari bo'yicha xulosa tuziladi va xodimga nisbatan intizomiy jazo chorasini ko'rish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Xizmat tekshiruvlarida inson huquqlari ta'minlanishi kerak, hurmatli Prezidentimiz



Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Har qanday islohot markazida inson manfaatlari bo'lishi kerak".⁸ O'z o'rnida bu tamoyil xizmat tekshiruvlarida ham asosiy qoidaga aylanishi lozim. Xodimlar o'zining sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlari hurmat qilinadigan sharoitda xizmat tekshiruvlaridan o'tishi kerak.

Amaliy muammolar:

Xizmat tekshiruvlarini o'tkazishda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

Birinchidan, obyektivlikning yetishmasligi: ba'zi holatlarda rahbar shaxslarning subyektiv qarashlari asosida tekshiruv natijalari shakllanadi.

Ikkinchidan, huquqiy yordamning mavjud emasligi: ayrim xodimlar o'zini himoya qilish uchun yetarli huquqiy yordamga ega emas.

Uchinchidan, jarayonning oshkoraligi yetarli emasligi: xizmat tekshiruvlari ko'pincha yopiq tartibda o'tkaziladi.

To'rtinchidan, Ayrim prokuror nazoratining sustligi: nazorat instituti ba'zida faqat formal ravishda amalga oshiriladi.

Shu sababli quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Har bir xizmat tekshiruvni nazorat qiluvchi prokurorga taqdim etilishi;

advokat ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratish;

mustaqil komissiyalar ishtirokini joriy etish;

har bir tekshiruv bo'yicha xodimlar uchun huquqiy maslahat olish imkoniyatini yaratish;

xodimlar huquqlari bo'yicha maxsus yo'riqnomalarni joriy qilish;

tekshiruv natijalarini tahlil qilish orqali tizimli muammolarni aniqlash va oldini olish choralarini belgilash.

Xulosa o'rnida, xizmat tekshiruvlari ichki ishlar organlarining faoliyatida qonuniylik, intizom va halollikni ta'minlashga qaratilgan muhim mexanizmdir. Ushbu institutning to'g'ri va qonuniy ishlashi tizimga ishonchni yanada mustahkamlab, ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqqligi va adolatini ta'minlaydi. Shu bois xizmat tekshiruvlarini o'tkazishda har tomonlama xolis yondashuv, inson huquqlarini hurmat qilish va demokratik prinsiplarni ustuvor qilish zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan taklif va tavsiyalarni amalga keng joriy etish natijasida kelgusida ichki ishlar organlari xodimlarini **"Inson qadri uchun"** tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali **aholining chinakam roziligiga erishish** to'liq ta'minlanadi.

⁸ Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqi.

ADABIYOATLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.10.2020-yildagi "25-oktabr – ichki ishlar organlari xodimlari kuni" bayrami munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi.
3. O'zbekiston Respublikasi IIV va Bosh prokuraturaning "Ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvlarini tayinlash va o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risidagi" 42/28-son qo'shma qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qaroriga 1-ILOVA, "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi KODEKSI".
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 20-moddasi.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 407-son qonuni.

O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASH – ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDAGI MUHIM JIHAT SIFATIDA

ZAMONOV

*Zokir Turg'inovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “ma’naviy muhit” tushunchasi va uning kategorial asoslari ochib berilgani holda, jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit barqarorligi va rivojini amalga oshirishda ichki ishlar organlarining tashabbuskorligi va faolligi belgilab beruvchi omillar ko’rsatib o’tilgan hamda ijtimoiy nazorat institutlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o’zaro ijtimoiy-ma’naviy hamkorligining siyosiy-huquqiy asoslariga urg’u berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy muhit, barqarorlik, rivojlanish, inson manfaatlari, inson huquqlari, davlat organlari, ichki ishlar organlari, jamoat tashkilotlari, jamiyat rivoji, hamkorlik.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются понятие “духовная среда” и ее категориальные основы, а также выделяются факторы, определяющие инициативность и активность органов внутренних дел в обеспечении стабильности и развития духовно-нравственной среды в обществе. Особое внимание уделено политико-правовым основам взаимодействия социальных институтов гражданского общества и институтов социального контроля.

Ключевые слова: духовная среда, стабильность, развитие, интересы человека, права человека, государственные органы, органы внутренних дел, общественные организации, развитие общества, сотрудничество.

ANNOTATION

This article explores the concept of “spiritual environment” and its categorical foundations, highlighting the factors that define the initiative and activity of internal affairs agencies in ensuring the stability and development of the spiritual and moral environment in society. Special attention is given to the political and legal foundations of the social cooperation between the institutions of social control and civil society.

Key words: spiritual environment, stability, development, human interests, human rights, government agencies, internal affairs agencies, public organizations, societal development, cooperation.

Jamiyatning barqarorlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy jihatdan takomillashuvi, o'z navbatida, ma'naviy rivojlanishdagi fuqarolarning intellektual imkoniyatlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Lekin shuni tan olish lozimki, ma'naviyatning ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiy-siyosiy faoliyat bilan aloqasi shunchaki emas, murakkab va tadrijiy ravishda kechadi.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida ana shu omil muhim ekanligini har bir sohada, har bir yo'nalishda kuzatish va his qilish mumkin.

Hozirda ma'naviy va mafkuraviy ishlarning tizimli tashkil etilishi, o'z navbatida, insonlarda jamiyatga bo'lgan oqilona munosabat va ijtimoiy faoliyat yuritishdan qoniqish va ishtiyoqmandlik kayfiyatini yuzaga keltiradi.

Ma'naviyat ijtimoiy turmushning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti bundan istisno emas. Xususan, fuqarolarning hokimiyatga, siyosiy partiyalarga munosabatlari, jamoat tashkilotlarining o'zaro va davlat bilan munosabatlari, fuqarolar erkinliklari ma'lum huquqiy makonda kechadi. Lekin ularning qanday tamoyillarga asoslanishi, fuqarolik huquqlarining qay darajada ta'minlanishi nafaqat Konstitutsiyaga, huquqiy me'yorlarning demokratik xarakteriga, ayni paytda, jamiyatning siyosiy madaniyatiga, undagi ma'naviy muhitga ham bog'liq [1].

O'zbekiston jamiyatida fuqarolarning oilada va mahallalarda, umuman, jamiyatda tinch-osoysishta, hamjihatlikda yashashi, har qanday ijtimoiy nizolarni tinch yo'l bilan hal etishi, ichki ishlar organlarining sifat jihatdan faoliyati kengayib, xaqichil bo'lib borishi, ichki ishlar organlarining va ma'naviy-madaniy muassasalarning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashuvi, ma'naviy meros va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirib borish, birinchi navbatda, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashdan boshlanadi.

Zero, ma'naviyatning mohiyatini "ma'naviy muhit" tushunchasiz teran anglab olish mushkul. Sog'lom ma'naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo'nalishda tarbiya-

laydi, ijobiy xislatlarini yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta'sirlardan himoya qilishga urinadi. Chunki ma'naviy muhit har qanday yutuqlar va kashfiyotlarning (chetdan qabul qilinganlarining ham) taqdirini belgilaydi, yo rivojlantiradi, yo unutilishga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib, o'ziga moslashtiradi. Aksincha, nosog'lom ma'naviy muhit odamlarni bir-biridan begonalashtiradi, o'zaro ishonchni, mehr-oqibatni susaytiradi, ijtimoiy qo'rquvni kuchaytiradi.

Ma'naviy muhit jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolotga erishgan o'rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshish tartibidir. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir tekislik va bir xillikka intiladi. Uning talablari va ta'siri hammaga birdek, o'rtacha bo'ladi. Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o'z ustida ishlaydi, takomillashadi, o'sadi va hokazo. Kimlar uchundir umumiy ma'naviy muhitning talablari kamlik qiladi [2]. Uning qanday ta'sir etishi, yoki rivojlanishi jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lib boradi.

Agar jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib borsa, ularning rivojlanishga bo'lgan munosabati o'zgarib, rivojlanib boradi. Bu jarayonda daxldorlik hissi birinchi darajaga chiqadi. Daxldorlik hissi yuqori bo'lgan kishi ma'naviy muhitga ham, o'z navbatida, ijobiy ta'sir etib boradi. Kelajak maqsadni to'g'ri belgilagan inson, o'z faoliyatini rejalashtirib olib, "davlat menga nima berdi emas, men davlatga nima berdim" degan qarashni o'zida shakllantirib oladi. Tinch va farovon jamiyatda yashab, unga ijtimoiy-siyosiy jihatdan daxldor bo'lmagan fuqaro ma'naviy muhitni o'zgartira olmaydi.

"Jamiyatdagi mo'tadil ma'naviy-axloqiy muhit, – deydi faylasuf olim M.Qahhorova, – islohotlar ko'lami va modernizatsiyalash jarayoni takomili uchun imkoniyatni kengaytiradi, insonning turli ijtimoiy ta'sir va ta'sirlanish natijalariga oid samaradorlikni oshiradi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhiti, uning qiyofasi va ijtimoiy taraqqiyotning yo'nalishlarini belgilab beradi hamda uni harakatlantiruvchi omil bo'ladi" [3].

Ma'naviy-axloqiy muhit shaxs tomonidan ishlab chiqilgan va ijtimoiy darajada qabul qilingan qadriyatlar va milliy tamoyillarning rivojlanishi sifatida tushuniladi, qolaversa, unda ma'naviy-axloqiy rivojlanish yetakchi maqsad

qilib olinishi va jamiyat rivojlanish dasturlari mohiyati bilan uyg'unlik hosil qilishi zarur hisoblanadi.

Yana bir jihati borki, ma'naviy muhit siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga, boshqaruv rejimiga bog'liq. Agar siyosiy tuzum, boshqaruv usullari zo'ravonlikka asoslansa, jamiyatda odamlar, tashkilotlar faoliyati ustidan yoppasiga mafkuraviy nazorat o'rnatiladi. Bir mafkuraning hukmronligi qaror topadi (buni yaqin o'tmishdagi sovet ittifoqi misolida ko'p kuzatganmiz). Unga xilof keladigan har qanday fikr va qarashlar tan olinmaydi, ta'qib qilinadi. Bunday sharoitda odamlar bir-biridan cho'chib, bir-biriga ishonmasdan yashaydi. Ko'ngildagini ochiq aytolmaydi. Mavjud tuzum kamchiliklarini tanqid qilolmaydi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik yo'qligi shaxs kamoloti va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Va aksincha, jamiyatda erkinlik va demokratik boshqaruv darajasi qanchalik baland bo'lsa, ma'naviy muhit shunchalik yaxshilanadi, uning inson kamoloti va jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'siri shunchalik kuchayadi [4]. Bugun ana shunday, ya'ni ma'naviy muhitni rivojlantirish va mamlakatni tom ma'noda ichki ishlar organlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, ularning ijtimoiy-ma'naviy va huquqiy ko'magi asosida barqaror rivojlantirish jarayoni kechmoqda.

Bunday sharoitda nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy-ma'rifiy muassasalar, ijtimoiy-iqtisodiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari bilan davlat nazorat organlari, xususan, ichki ishlar organlarining samarali hamkorligi, mushtarak maqsad yo'lida harakat olib borishi jamiyatda "ma'naviy muhit" maqomining oshishida yetakchi vosita ekanligi kundek ravshan.

Jamiyatdagi mavjud madaniy muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ichki ishlar organlarining samarali hamkorligi masalalari jamiyatda ma'naviy makon va ma'naviy muhit omilining harakat vositasi bo'lishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq har bir mahallada "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan

yangi tizim joriy etildi. Jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o'rnatish muhim hisoblanadi [5].

Qolaversa, mazkur farmon asosida hozirgi kunda har bir mahallada bir nafardan profilaktika inspektorlari mahalla raislarining huquqbuzarliklar masalalari bo'yicha o'rinbosari sifatida ish olib bormoqda. Mahalla fuqarolar yig'inlari va profilaktika inspektorlari o'rtasida o'zaro hamkorlik yanada kuchaydi.

Mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini kuchaytirish maqsadida ichki ishlar organlarining quyi bo'g'inlari mustahkamlandi. Xususan, vazirlik va hududiy boshqarmalar mavjud shtat birliklarining 85 foizi qisqartirilib, quyi tizim ichki ishlar bo'limlariga qayta taqsimlandi. 30 tuman-shaharda hududiy ichki ishlar organlarining 160 ichki ishlar bo'lim (bo'linma)lari tashkil etildi.

Eng muhimi, ichki ishlar organlari o'z xizmat faoliyatini parlament va jamoatchilik nazorati ostida olib borishi qat'iyon belgilandi. Ya'ni, Ichki ishlar vaziri Senatga yilda ikki marotaba axborot berishi, hududiy ichki ishlar organlari boshliqlari Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga har chorakda, tuman-shahar IIB boshliqlarining yoshlar bo'yicha o'rinbosarlari xalq deputatlari shahar-tuman kengashlariga, profilaktika inspektorlari esa mahalla aholisiga har oyda hisobot berib borishi yo'lga qo'yildi [6].

Bugungi jadal islohotlar davrida O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot hamda tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimining yo'lga qo'yilishi ham davlat va jamoat tashkilotlarining birgalikda ijtimoiy-ma'naviy hamkorlikdagi sa'y-harakatlari natijadorligini ko'rsatib beradi.

Bu haqida fikr bildirar ekan, davlat rahbari shunday deydi: "Oila – muqaddas" degan azaliy

va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmaydi. Buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir" [7]. Aslida, mahalla bugungi kunga kelib jamiyatdagi yetakchi va birlamchi sotsial makon va ijtimoiy kuch vazifasini o'tab berishi talabi ustunlik qiladi.

Xususan, fuqarolar yig'inlarining faoliyatiga xos bo'lmagan 50 dan ortiq vazifa bekor qilinishi, profilaktika inspektorlariga yuklatilgan ortiqcha topshiriqlar ham keskin qisqartirilishi belgilandi. Mahalla raisiga qo'shimcha huquqlar berilib, maqomi va obro'si kuchaytirilishi qayd etildi. Shu davrdan boshlab, mutasaddilarga "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etish, mahallaga va qadriyatlarimizga hurmat tuyg'usini shakllantiradigan sahna asarlari va badiiy filmlar yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham mahalla masalasini ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan qilib belgilash masalasi bilan hamohangdir.

Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan tizimni shakllantirish maqsadida profilaktika inspektori ko'rib chiqadigan ma'muriy huquqbuzarliklar sonini oshirish zarurligi ta'kidlandi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, jamiyatda ma'naviy muhit shakllanganligi va uni takomillashtirishning samarali usullari deyish mumkin.

Zero, jamiyatda ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash uchun ajrashish yoqasida turgan oilalarni saqlab qolish, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga "himoya orderi"ni berish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash, mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatdan xoli muhitni shakllantirish, jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik borasida tizimli ishlarni amalga oshirishda bugun davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va tashabbuskorligi muhim hisoblanadi.

Prezidentimizning bevosita tashabbusi bilan eng quyi bo'g'in hisoblangan mahallada xavfsiz muhit yaratish bo'yicha ishlash uslubi tubdan o'zgardi. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati

qayta ko'rib chiqildi. Ilgari qariyb 20 foiz mahallada profilaktika inspektori yetishmasdi, bir nafar profilaktika inspektori 2-3 mahallaga xizmat qilar va ko'p hollarda ularga ortiqcha vazifalar yuklatilar edi.

Endilikda har bir mahallada profilaktika inspektori lavozimi joriy etildi. Fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari vazifasini bajarish ham profilaktika inspektoriga yuklatildi. Profilaktika inspektori mahalla raisi bilan kamida 5 yil mobaynida birga ishlashi belgilab qo'yildi.

Mamlakat Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ushbu masalalarga alohida to'xtalib, "Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko'rishimiz darkor"[8] deya ta'kidlab o'tgan edi. Shu asosda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat jamiyat va davlat tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashni nazarga tutgan holda insonlar sha'ni, qadr-qimmatini va manfaatlarini to'laqonli ta'minlash maqsadi bilan mushtaraklik hosil qilmoqda.

Qolaversa, 2017-yil 6-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarining hisobotini fuqarolar yig'inlarida eshitish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 193-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlarining hisobotini fuqarolar yig'inlarida eshitish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, profilaktika inspektorlari o'zlariga birlashtirilgan ma'muriy hudud bo'yicha tegishli fuqarolar yig'inlarida har oy yakuni bo'yicha hisobot berib borishi, uning hisobotini eshitish fuqarolar yig'ini raisi, uning maslahatchilari, ta'lim muassasalari, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlari vakillari, fuqarolar yig'inidagi xonadonlarda, ko'p qavatli uylarda istiqomat qiluvchi aholi, ichki ishlar organining ushbu hududga mas'ul etib birlashtirilgan rahbari ishtirokida amalga oshirilishining belgilab

qo'yilishi ham amaliy jihatdan o'z samarasini bermoqda.

Bir jihatni inobatga olish lozimki, profilaktika inspektorining mahalla fuqarolar yig'inida faol amaliy harakat olib borishi va bu faoliyatini hisobot shaklida mahallada berib borishi, bu organ faoliyatining natijadorligini ko'rsatibgina qolmasdan, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit samaradorligiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bugun biz ijtimoiy davlat asoslarini kuchaytirish maqsadida tizimli ravishda harakat qilar ekanmiz, unda jinoyatga jazo berish emas, jinoyatning barvaqt oldini olish choralari ko'rib borishning ijtimoiy muhitini yaratishga katta urg'u berishimiz kerak bo'ladi. Bu xususda davlatimiz rahbari quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edilar: "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyat mazmuni butunlay o'zgarmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Faqat jazolash bilan qo'rqitib, huquqbuzarliklarning oqibati bilan kurashish emas, balki noqonuniy harakatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish eng dolzarb vazifaga aylandi" [9].

O'tgan yillar mobaynida mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Shu bilan birga, aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimi takomillashtirilib, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, davlat soliq inspektori va ijtimoiy xizmat xodimlarining hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yildi hamda ularning vazifalari belgilab berildi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi davrdajamiyat ishlarini boshqarishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining hamkorligini mustahkamlash, ularning faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurligi talab etilmogda. Shu nuqtayi nazardan yana muhim bir hujjat – Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi "Mahallabay ishlashga mas'ul bo'lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali

ta'minlash hamda "Mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 137-son qarori qabul qilindi. Qarorda belgilab qo'yilganidek, "Mahalla yettiligi" – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari namunaviy tuzilmasiga kiritilgan mahalla raisi rahbarligidagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori a'zolaridan iborat bo'lgan guruhdir.

Qolaversa, qarorda "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish va uning a'zolari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash belgilangan. Shuningdek, qaror asosida hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorining ishga kelib ketishi bo'yicha davomatni (tabelni) yuritish tartibi to'g'risida yo'riqnoma hamda "Mahalla yettiligi"ning funksiyalari, vazifalari, huquqlari va majburiyatlari belgilandi [11].

Shuni ham ta'kidlash lozimki, "Mahalla yettiligi"ning funksiyalari va vazifalarini bajarishi jarayonida bevosita jamiyatda, shu hududda ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta'minlashda o'ziga xos tarzda hissa qo'shib boradi. Buni "Mahalla yettiligi"ning quyidagi huquqlari orqali ham aniqlab olish mumkin bo'ladi: ya'ni faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan belgilangan tartibda so'rash va olish; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi aniqlanganda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish; ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ijtimoiy yordam turlarini ko'rsatish va subsidiyalar ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilish; jismoniy shaxslarga ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish sohasiga bevosita aloqasi bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarining vakillarini "Mahalla yettiligi" faoliyatiga jalb etish shular jumlasidan.

T.Gilmidinovaning ta'rifi bilan aytganda, ma'naviy-axloqiy muhit – bu ma'lum bir ta'lim tashkilotining ta'lim maydoni doirasida tashkil etilgan ta'lim muhitining organik qismidir. Bu yosh avlodning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qilish maqsadini ko'zlaydigan ijtimoiy tarkibiy qismlar va shaxslararo munosabatlarning yaxlit ijobiy ko'rinishidir [12].

Shuni ham alohida qayd etish lozimki,

ma'naviy muhit jamiyatda xavf bo'lib turgan turli shakl va maqsadda bo'lgan g'ayrima'naviy va g'ayrimafkuraviy kuchlar va harakatlarning kushandasi, uning aksil davosi bo'lib hisoblanadi. Insonlar demokratik jamiyatga bo'lgan ishonchi ortgan sari turli xil jamiyatlarning ularga bo'lgan munosabati va ta'sirchanligi oshishiga moyillik ham kuchayib borishini inobatga olganda, faqat oqilona mustahkam shakllangan ma'naviy muhit fuqarolarning sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlik salohiyatini rivojlantirishga ko'makchi bo'ladi.

Ma'naviy muhit kategoriyasi bekorga axloq, ijtimoiy va huquqiy munosabatlarning majmuyi sifatida ko'rsatib o'tilmaydiki, chunki jamiyatning ijtimoiy-huquqiy maqomi, fuqarolarning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarini shakllantirib borishi axloq va ma'naviy mezonlar bilan o'lchanadi, bu o'z-o'zidan ma'naviy muhitning asosini tashkil etadi. Bunda shaxslarning yagona maqsad va tashabbuslari, manfaatlari mushtarakligi tamoyilining o'rni nihoyatda muhim hisoblanadi.

Ma'naviy-axloqiy muhitning shakllanishida ma'naviy muhit xalqning ma'naviy-ruhiy dunyosiga bog'liq hodisa sifatida jamiyatda ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarning yangidan tarkib topishiga asos bo'lib, unda shaxs va maslakdosh shaxslarning ittifoqi, ahilligi muhim o'rin tutadi. Chunki jamiyat "shaxslarning uyushgan majmuyidir" [13]. Aslida ham, maqsadi va manfaatlari uyg'un bo'lgan fuqarolarning jamiyatga bo'lgan qarashlari ham mushtarak, kelajak rejalari uyg'un va ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati ham shunga monand o'sib boradi, ya'ni ma'naviy muhitga bog'liq holda takomillashib, mustahkamlanib boradi.

Bugun bizning jamiyatimizda ham ma'naviy-axloqiy muhit jamiyat a'zolarining kelajakka munosabat masalasidan kelib chiqib strategik yo'nalishi va ustuvorligini aniq belgilab olgan, deyish mumkin. Bunda, albatta, shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi hamda xulq-atvori ma'naviy-axloqiy muhitga ta'sir etishini inobatga olish lozim.

Shu ma'noda ichki ishlar organlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari – ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo'lgan dastlabki kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik va ma'naviy fazilatlarni rivo-

jlantirish zarur hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini tartibga solish va nazoratda ushlashda qo'l keladi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va xulq-atvorini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: shaxsning axloqiy bilimlari darajasi, shu bilimlar yordamida kundalik hayotda vujudga keladigan axloqiy muammolarni hal qilish ko'nikmasi, o'zining axloqiy xulq-atvor mazmunini anglash darajasi, o'z xulq-atvorining qadriyatga yo'naltirilganligi [14].

Qolaversa, shaxsning ma'naviy muhiti tarixan iqtisodiy, ijtimoiy, diniy, madaniy, ma'rifiy va huquqiy asosda rivojlangan jamiyat a'zolarining faol fuqarolik pozitsiyasiga ham bog'liq bo'ladi.

Mahalliy olimlar aytgan yuqoridagi mazkur to'rt mezon jamiyatda ma'naviy-axloqiy sifatlari, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan munosabati, shaxsiy manfaatdorlikdan jamiyat manfaatdorligi omilining ustunligiga erishish yo'li qay darajada ekanligini ko'rsatadi va bu jihat, o'z navbatida, jamiyatdagi ichki ishlar organlari tomonidan mudom kuzatilib, o'rganilib borishni talab etadi.

Qulay ma'naviy-axloqiy muhit shundan dalolat beradiki, u mustaqil faoliyatga moyil va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda tashabbuskorlikni namoyon etadi. Qolaversa, ijtimoiy yetuk, mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi [15].

Bizning nazarimizda, ma'naviy muhit shaxsdagi xulq-atvorning, umuman, ma'naviy-axloqiy xarakterli jihatini o'zida namoyon etib, na faqat insonning ichki axloqiy-ijtimoiy qarashlari, o'z fikrlari bilan, shu bilan birga, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va siyosiy jarayonlar va faoliyat bilan takomillashib, ijtimoiy rivojlanish tamoyili sifatida o'sib boradi.

Bunday sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy malakasi, ma'naviy salohiyati va huquqiy ongi darajasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Negaki, ichki ishlar organlarining xodimlarida huquqiy ongning shakllanishi, odatda, o'z faoliyatini to'laqonli amalga oshirishda qo'l kelsa, uning ijtimoiy, individual va professional faoliyati ma'naviy asoslar bilan uyg'unlashgan holda kasbiy, axloqiy etikasiga, ijtimoiy faol fuqaro pozitsiyasiga ega bo'lishini bildiradi.

Jamiyat ijtimoiy qiyofasining shakllanish

jarayoni ma'naviy-axloqiy muhit ta'siri doirasidagi axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy-siyosiy muloqot va axloqiy munosabat hamda huquqiy faoliyatni anglash bilan amalga oshiriladi. Zero, jamiyat ma'naviy qiyofasi ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk jamiyat a'zolari, xususan, shaxslar ma'naviy-axloqiy kamolotiga bog'liqdir. Bugungi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish shart-sharoitlari ildam kechayotgan jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy asoslarni rivojlantirish tamoyili ma'naviy muhitni ham tizimli ravishda o'rganish va uning shaxslararo kirib borish omiliga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Mazkur masaladan kelib chiqib, bugun jamiyatning barcha a'zolari yuksak ma'naviyatli bo'la olishlari mamlakat taraqqiyotining asosiy omili ekan, bu yo'nalishdagi mutaxassislar bilishi va hayotga tatbiq qilishi shart bo'lgan bir qator vazifalar bor. Ularni faylasuf olim Sh.To'rayev shunday asoslaydi: fuqarolarda Vatanga va millatga cheksiz muhabbat ruhiyatini shakllantirish, Vatanning muqaddasligi, insonning kindik qoni to'kilgan tuproq uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan ekanligini tushuntirish; kishilarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi umumbashariy sifatlarni rivojlantirish va kengaytirish, ularda millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat tajovuzkor millatchilik va shovinizm ekanligini tushuntirish; O'zbekiston rivoji uchun tashabbuskorlikni kuchaytirish, jamiyatda ijodiy muhitni yaratish, har bir xodimda tevarakatofda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini uyg'otish, befarqlik, sansalorlik kabi salbiy holatlarga barham berish; kishilarning siyosiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldida turgan buyuk va muqaddas vazifalarni anglab yetish darajasini oshirish, mamlakatimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olish salohiyatini shakllantirish; jamiyat a'zolarining ma'naviy olamini, dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy-huquqiy bilim saviyasini ko'tarish, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga baho berish ko'nikmasini shakllantirish, mafkuraviy-g'oyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab yetishiga ko'maklashish; yoshlar "ommaviy madaniyat"ning mazmun-mohiyatini anglab yetishi, mafkuraviy immu-

nitetni hosil qilishiga yordam berish; jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlarning bo'sh vaqtini samarali va unumli tarzda tashkil etish, ularning badiiy havaskorlik, hunarmandchilik, texnikaviy va boshqa qiziqishlarini o'rganish, tashkil etish, iqtidorlarni topish, tarbiyalash [16].

Negaki, aynan yoshlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda asosiy kuch, mamlakatda ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning iste'dodli tashabbuskorlari va kelajakdagi faol qatlami hisoblanishadi.

Har qanday mamlakat o'z kelajagini yoshlar timsolida, aniqrog'i ularning jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishida ko'rishi tabiiy holdir. Huquqiy demokratik davlat taraqqiyotining rivoji ham aynan o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Bunga erishish uchun esa, avvalo, jamiyat a'zolarining, shu jumladan, yoshlarning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy saviyasi yuqori darajada bo'lishi talab etiladi [17]. Zero, ichki ishlar organlari jamiyat yosh qatlamini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish bo'yicha amaliy, pragmatik samarali tizimni ishlab chiqishga ko'maklashishi, ularda yuksak ma'naviy, axloqiy va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning muhim vositachisi bo'lishi kutilgan natijani beradi.

Ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini yuzaga keltirishi orqali jamiyatda barqaror ma'naviy muhit amal qilishiga erishiladi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [18]ning ikkinchi yo'nalishida mamlakatimizda adolat va qonunustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning zarur shartiga aylantirish masalasi o'z ahamiyatini topgan. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga ham keng ko'lamli vazifalar yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [19] qarori e'lon qilindi. Qarordan ko'zlangan maqsad ichki ishlar organlari xodimlarini

“Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o’z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish, ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas’uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume’tirof etilgan odob-axloq normalariga so’zsiz amal qilish tuyg’usini shakllantirish, ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo’lgan nojo’ya xatti-harakatlar, suiiste’molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish, huquq-tartibot tizimi obro’siga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik kabi maqsadlarga erishish ko’zda tutilganligi ham jamiyatda ma’naviy muhit barqarorligiga erishishning muhim vositalari sifatida ko’rish mumkin.

Zotan, fuqarolarning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy hayotda ishtirok etish zarurati va keng qamrovli islohotlar jarayoniga jalb etilganlik darajasi jamiyatdagi ma’naviy muhitga, siyosiy tizimning tabiati hamda o’ziga xos xususiyatlariga va tabiiyki, insonning o’ziga bog’liq hisoblanadi [20]. Vaholanki, xavfsizlik, tinchlik-totuvlikni asrash ichki ishlar idoralari xodimlarining yuksak malakali, professional tayyorgarligi bilan bir qatorda, balki ularning ma’naviy-ma’rifiy, huquqiy bilim darajasi orqali ham o’z samarasini beradi. Bu, o’z navbatida, ijtimoiy-ma’naviy muhit borasida pragmatik faoliyat olib borishni ham nazarda tutadi.

Yana bir jihatga e’tibor qaratish lozimki, jamiyatda ma’naviy muhitni ta’minlashda ichki ishlar organlarining roli juda muhim, chunki bu organlar jamiyatda huquqiy tartibni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va odamlarning manfaatlarini himoya qilish, tinchligi va xavfsizligini ta’minlash, umuman olganda, mamlakatda ijtimoiy-ma’naviy faoliyatning ko’ngildagidek bo’lishini himoya qilishda katta ahamiyatga ega.

Qolaversa, bugungi kunda ichki ishlar organlari ma’naviy muhitni ta’minlash uchun bir qancha muhim vazifalarni bajarishi kerak.

Birinchidan, soha xodimlari o’rtasida ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatni yanada oshirish

choralarini ko’rib borish, jamiyat a’zolari ichki ishlar xodimlarini ko’rganda, ijtimoiy faoliyatida duch kelgan taqdirda ulardan cho’chishi emas, balki ularni tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi institut xodimi nuqtayi nazaridan ularni najot sifatida ko’rishi va ularga ko’makchi bo’lishi lozim. Ichki ishlar organi xodimlarining ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyati, odamlarga nisbatan insonparvar munosabatda bo’lishi ularning ish faoliyatidagi ma’naviy muhitning ijobiy kechishiga sharoit yaratadi.

Ikkinchidan, kasbiy etika va jamiyat orasida ishonch muhitini kuchaytirish lozim. Bunda o’z kasb faoliyatidan kelib chiqib axloq me’yorlarga amal qilishi jamiyat a’zolarining ularga bo’lgan ishonchi va hurmati ham cheksiz bo’lishiga, ijtimoiy hamkorlik masalalari samarali kechishiga erishiladi. Qolaversa, fuqarolar o’rtasida ishonchni mustahkamlash va ularning o’zaro hurmatini ta’minlash, eng muhim mezon sifatida qaraladi.

Uchinchidan esa, faoliyatga nisbatan mas’uliyat va ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirishga bo’lgan ijobiy harakatlar korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim mezon sifatida ko’rinadi. Korrupsiyaviy holatlarning oldini olishning, bunday illatlarga qarshi kurashishning ijtimoiy profilaktik choralarini ko’rib borishning birdan-bir ishonchli yo’li fuqarolar va soha vakillari o’rtasida o’zaro ishonch omilini yuzaga chiqarish bilan belgilanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat jamiyat a’zolari va ichki ishlar xodimlari o’rtasida ijtimoiy muhitni yaxshilashga, shuning bilan birga, jamiyat ijtimoiy-ma’naviy yuksalishi muhim burilish yasaydigan pragmatik mezon sifatida ko’rilishini ham nazarga olish kerak bo’ladi.

Agar mazkur ishlar tizimli amalga oshirilib boriladigan bo’lsa, ma’naviy-axloqiy muhitni rivojlantirish bilan bog’liq mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko’lami va miqyosini yanada kengaytirish, jamiyatning har bir qatlami uchun “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g’oyasini keng targ’ib etish, o’z navbatida, jamiyatda sog’lom ma’naviy asoslarni yo’lga qo’yish umummilliy harakatga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. – B. 70-71.
2. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. O'sha manba. -B. 42.
3. Qahhorova M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Fals.fan.dok... diss. – T.: 2012. – B. 6.
4. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. -T.: Ma'naviyat, 2018. -B. 43.
5. Qarang: G'.Negmatov. Ijtimoiy-ma'naviy muhit yanada sog'lomlashadi. [Elektron manba:] <http://bulungurhayoti.uz/index.php?newsid=7134>. 18-11-2020.
6. Boymirzayev X.K. O'zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati./O'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2022. –B. 42-43.
7. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan. [Elektron manba:] <https://uza.uz>.
8. [Elektron manba:] <https://uza.uz/uz/posts/obod-va-khavfsiz-ma-alla-tamoyili-amalga-oshirildi-12-02-2020>.
9. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi./ Prezident Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan./ Xalq so'zi, 2016. №243 (6678). -B. 1-3.
10. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir./ Prezident Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan /Xalq so'zi, 08.12.2017.
11. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2024-y., 09/24/137/0220-son.
12. T.B.Гильмидинова. Анализ понятия «Духовно-нравственная среда образовательной организации» в российской дидактике. [Электрон манба:] <https://doi.org/10.24158/spp.2020.1.9>
13. Уткин А.И. Векторы глобальных перемен: анализ и оиенки основннх факторов. // Полис. -М., 2000. -№ 1. -С.-64.
14. Begmatov A., Anvarova D. Ma'naviy tarbiya. Uslubiy qo'llanma. O'zR Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi. – T.: Akademiya 2012. -B. 24.
15. Сухиташвили Л.С. Духовно-нравственные качества педагога как фактор успешности процесса воспитания личности. // Кант. 2012. - № 3 (6). -С. 128–130.
16. To'rayev Sh. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi. – T.: Paradigma. 2017. – B. 10-11.
17. M.R.Rafikova. Bo'lajak bojxona xizmati organi xodimlarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini takomillashtirishda huquqiy tarbiyaning o'rni. /Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T.: IIV Malaka oshirish instituti, 2023. – B. 91.
18. Qarang: 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. «Adolat» milliy huquqiy axborot markazi. - T., 2022.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.01.2023-yildagi PQ-10-son qarori. Videoselektor yig'ilishidan. [Elektron manba:] <https://lex.uz/docs/-6364837>.
20. Qodirov E.O. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy asoslari. / Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T.: IIV Malaka oshirish instituti, 2023. –B. 223.

KO'P KONFESSIYALILIK SHAROITIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARDA DINIY BAG'RIKENGLIK OMILI

KARSHIYEV

*Sherzod Saydaliyevich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori,
dotsent v.b.*

ANNOTATSIYA

Millatlararo ziddiyatlar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun eng global muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammolar hali barcha davlatlarda ham to'liq o'z yechimini topmagan. Millatlararo ziddiyatlar ko'proq o'zaro milliy manfaatlarning to'qnashuvidan kelib chiqadi. Bugungi kundagi muhim vazifalardan yana biri millatlararo totuvlik g'oyasi hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlash bilan bog'liq. Jahon va mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan siyosat va islohotlar mazmuni bo'yicha maqolada fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: millat, etnos, millatlararo munosabatlar, millatlararo ziddiyat, polietnik davlat, milliy-etnik jamoalar, din, diniy bag'rikenglik, konfessiya, etnosiyosat, fundamentalizm, terrorizm.

АННОТАЦИЯ

Межэтнические конфликты являются одной из самых глобальных проблем для всех народов и стран. Решение этих проблем полностью не найдено во всех странах. Межэтнические конфликты чаще всего возникают из-за столкновения национальных интересов. Еще одна важная задача сегодня связана с идеей межнационального согласия и обеспечения религиозной толерантности. В статье рассматривается содержание политики и реформ, проводимых в этом направлении в мире и в нашей стране.

Ключевые слова: нация, этнос, межэтнические отношения, межэтнический конфликт, полиэтническое государство, национально-этнические общности, религия, религиозная толерантность, конфессия, этнополитика, фундаментализм, терроризм.

ANNOTATION

Interethnic conflicts are one of the most global problems for all peoples and countries. The solution to these problems has not been fully resolved in all countries. Interethnic conflicts arise more from the clash of national interests. Another important task today is related to the idea of interethnic harmony and ensuring religious tolerance. The article discusses the content of the policies and reforms being carried out in this regard in the world and in our country.

Key words: nation, ethnicity, interethnic relations, interethnic conflict, polyethnic state, national-ethnic communities, religion, religious tolerance, confession, ethnopolitics, fundamentalism, terrorism.

Kirish

O'zining ko'p asrlik tarixi davomida qadim-qadimdan ko'p millatli va ko'p konfessiyali aholisiga ega bo'lgan mamlakat sifatida dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda. Istiqlol yillarida ushbu hamjihatlik yanada mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi"¹. Bizga ma'lumki, ko'pmillatli demokratik jamiyatda ko'pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy komponenti sifatida namoyon bo'ladi. O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Insonparvar, adolatli, huquqiy jamiyat qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan mamlakatimiz aholisi ongida har bir millatning o'z milliy madaniyati borligini, har bir etnos, etnik guruh dunyoda yagona ekanini, ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, zinhor birini boshqasidan ustun qo'yish mumkin emasligini nazardan qochirmaslik nihoyatda muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

BMTning UNESCO tomonidan 1995-yili qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"da bag'rikenglik tushunchasiga quyidagicha ta'riflar berilgan va uning mohiyati yoritilgan: Bag'rikenglik – bizning dunyodagi turli madaniyatlarining, o'zini ifodalash va alohi-

daligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish hamda to'g'ri tushunishni anglatadi. Bag'rikenglik bilim, samimiyat, ochiq muloqot, hur fikr, vijdon va e'tiqodni vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdadir. U burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik – tinchlikka erishishni ta'minlovchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchi kuchdir. Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga befarq yoki ijtimoiy adolatsizlikka sabr-toqatli munosabatda bo'lish, iymon-e'tiqodidan voz kechib boshqalarning e'tiqodiga yon bosish emas. Bu shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini tan olmog'i lozim. U shuni anglatadiki, odamlar tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanadi, ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individuelligini saqlab qolishga haqlidir. U yana shuni anglatadiki, har bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas².

Tadqiqot metodologiyasi

Diniy bag'rikenglikning millatlararo munosabatlarga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, din va diniy qadriyatlar etnosiyosiy paradigмага qarshi chiqmaydi, balki rivojlanishini ta'minlashga o'z vosita va usullari bilan yordam beradi. Etnosiyosiy paradigmaning strategik maqsadi jamiyatning barcha a'zolari, shu jumladan dinga e'tiqod qiluvchilar, konfessiyalar, diniy tashkilot a'zolariga ham daxldordir;

Ikkinchidan, O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat³, unda din davlatdan ajratilgan, din davlat ishlariga aralashmaganidek, davlat ham diniy idoralar, tashkilotlar ichki ishlariga aralashmaydi. Biroq bu din va diniy idoralar, e'tiqod qiluvchilar istagan ishini qilishi, davlat va jamiyat hayotiga indiferent munosabatda bo'lishi mumkin, degan fikrga olib kelmasligi zarur. Dindorlar qanday ijtimoiy-axloqiy va siyosiy-huquqiy qadriyatlarga

¹ "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 26.01.2017

² UNESCO xalqaro me'yoriy hujjatlari. Konvensiyalar, bitimlar, protokollar, tavsiyanomalar, deklaratsiyalar. (To'plam) "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi". – T.: Adolat, 2004. – 91-92-b.

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 5-b.

tayanishiga davlat, jamiyat befarq qaray olmaydi;

Uchinchidan, xalqlar, millatlar inoq yashaganida, strategik maqsadni o'zining hayotiy maqsadi sifatida qabul qilganida ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash mumkin;

To'rtinchidan, polietnik davlatlarda etnomadaniy plyuralizm va politeizm tabiiy hol hisoblanadi. Etnomadaniy plyuralizm bilan politeizmnı murosada ushlab turish, ularning ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash etnosiyosiy paradigm zimmasidagi murakkab vazifalardan biridir;

Beshinchidan, diniy bag'rikenglik destruktiv guruhlar, fundamentalizm va terrorizmga xushomad, yon bosish emas, u mudom xatti-harakatlar va g'oyaviy qarashlarning ijobiy yoki salbiy xarakterga ega ekanini ajrata oladigan voqelikdir. Insonning "ijtimoiy mavjudot" ekanligi uning xatti-harakatlari va g'oyaviy qarashlariga ma'lum bir talablar, hatto cheklanishlar qo'yadi. Bu ijtimoiy talablar va cheklanishlar huquqiy normalar hamda ma'naviy-axloqiy imperativlar orqali belgilanadi;

Oltinchidan, millatlararo munosabatlarda dingga, diniy qadriyatlarga tayanish vijdon erkinligi orqali ta'minlanadi. Qaysi dingga e'tiqod qilish, qanday diniy qadriyatlarni e'zozlash, targ'ib etish va qo'llab-quvvatlash shaxsning konstitutsion huquqidir. Ammo din va diniy tashkilotlarning millatlararo munosabatlarga bevosita aralashishi, ularni u yoki bu shaklda uyushtirish, bir millatni ikkinchisiga qarshi qo'yishi mumkin emas. Milliy etnik din yoki diniy tashkilot bo'lishi davlatning polietnik va politeistik xususiyatiga ziddir. Dingga e'tiqod millat, etnik belgi tanlamaydi, u har bir insonning ixtiyoridagi ishdır;

Yettinchidan, millatlararo munosabatlarda din va diniy tashkilotlar to'plagan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-axloqiy tajribalardan foydalanish har ikki tomon, ayniqsa ijtimoiy taraqqiyot uchun konstruktiv ahamiyatga ega. Lekin etnosiyosiy paradigma dinda konservativ va dogmatik unsurlar ham borligini, ulardan destruktiv kuchlar foydalanishga intilayotganini unutishi mumkin emas. Diniy fundamentalizm va terrorizm keng tarqalayotgani bois, davlatlararo, millatlararo munosabatlarda bir-biriga shubha bilan qarash, to'la ishonmaslik real voqelikka aylangan. O'zbekistonda – politeizm qaror topgan, aholining 90 foizdan ortig'i islom diniga, qolganlari boshqa

dinlarga e'tiqod qiladi. "Bizning mamlakatimiz azal-azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makon sifatida dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida mavqega ega. Bu muborak zaminda bizning ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan qaraganlar, mana shu yurt ozodligi yo'lida ular bilan birga kurash olib borgani, yelkadosh bo'lib mehnat qilganini hech kim inkor eta olmaydi"⁴. Haqiqatan ham, mintaqamiz g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va turli xalqlarning tinch-totuv yashashini ta'minlagan markaz bo'lib kelgan. E'tiborli jihati, 2020-yil 13-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga uch yil muddatga 2021–2023-yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMTga a'zo 193 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Bu saylovda eng ko'p ovoz to'plagan davlat O'zbekiston bo'ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'i nazar, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak, mubolag'a bo'lmaydi⁵. Diniy bag'rikenglik etnik nizolar, fuqarolar urushi va mutaassiblikdan, achchiq tarixiy tajribadan kelib chiqqan g'oyadir. Diniy bag'rikenglik o'z e'tiqodi va dinidan voz kechish kerak, degan ma'noni bildirmaydi, balki u insonlarning qadr-qimmatini, vijdon erkinligi va mustaqil fikr yuritishini hurmat qilishni anglatadi. Respublikamizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari o'rtasida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga asoslangan teng huquqlilikning mavjudligi va konfessiyalararo hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilganligi mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikka zamin yaratmoqda.

Tahlil va natijalar

Davlatimizning dingga "inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", degan tamoyil asosida munosabatlarda bo'lishi ham konfessiyalararo munosabatlarni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyamizning 35-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan

⁴ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – Toshkent: "O'zbekiston", 2001. – 222 b.

⁵ Temur Ahmedov. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik — yuksalish poydevori / Yangi O'zbekiston: Dekabr, 2020.

dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"⁶, deb belgilab qo'yilgan. Unda dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan. Unga muvofiq:

- birinchidan, davlat asosiy qonuni orqali dinga qarshi siyosat yurgizmaslikni o'z zimmasiga oladi;

- ikkinchidan, e'tiqod qilish yoki qilmaslik har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi e'tirof etiladi;

- uchinchidan, yuqoridagi ikki asosiy tamoyillardan kelib chiqqan holda va jamiyatda e'tiqodiy munosabatlarni tartibga solish va uni ta'minlash uchun davlat diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi. Respublikamizda 16 diniy konfessiya va 2337 dan ortiq diniy tashkilot faoliyat olib boradi. Mazkur tashkilotlardan 2131 tasi islom diniga, 33 tasi rus pravoslav cherkoviga, 24 tasi Yevangel, xristian baptistlar Ittifoqiga, 22 tasi Yevangel Pol xristian cherkoviga, 4 tasi Yevangel – lyuteran cherkoviga, 11 tasi yettinchi kun advintislar cherkoviga, 5 tasi Rim-katolik cherkoviga, 1 tasi Arman-apostol cherkoviga, 7 tasi Baxayishonch uyushmasiga, 2 tasi Krishna jamiyatiga, 2 tasi iyegovlarga, 8 tasi iudeya jamoasiga, 60 tasi protestantlar cherkoviga, 1 tasi O'zbekiston Bibliya jamiyatiga, 1 tasi Golos Boji jamoasiga va yana 1 tasi Budda ibodatxonasiga tegishlidir⁷. O'zbekistonda millat va elatlar vakillarining diniy qiziqishlari hurmat qilinadi. Sho'rolar davrida tortib olingan va boshqa maqsadlarda foydalanilgan cherkov, xram, sig'inish uylari, muqaddas maskanlar e'tiqod qiluvchilarga qaytarib berildi. Hozir yurtimizda 30 dan ortiq pravoslav xramlari faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkentdagi Aleksandro-Nevskiy, Svyato Vladimirskiy, Svyato-Uspenskiy, Olmaliqdagi Svyato-Uspenskiy, Farg'onadagi Svyato-Sergeyevskiy, xramlar millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, boshqa millat vakillariga hurmat va ehtirom g'oyasini singdirishga xizmat qilmoqda. Millionlab odamlarning ongi, qalbi va ruhiyatiga ta'sir o'tkaza oladigan dinning jamiyat hayotidagi roli-

ga to'g'ri baho bera olmaslik, diniy qadriyatlarni taraqqiyot va dunyoviylik bilan uyg'unlashtirish salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa va takliflar

O'zbekistondagi diniy bag'rikenglik sharqona qadriyatlarga, sharqona sivilizatsiyaning hayotbaxsh kuchiga, ulardagi pozitiv tajribalarga asoslanmoqda. Bizning ko'pgina qadriyatlarimiz tarixan islom dini va undagi gumanistik an'analar bilan bog'liqdir. Bizning fikrimizcha, islomdagi yangi etnosiyosiy paradigmani va mamlakatimizdagi totuvlik, birodarlik va bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan qadriyatlarni, ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni yanada keng o'rganish, targ'ib etish lozim. Polietnik va politeistik davlatlarda konfessiyalararo munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Konfessiyalararo munosabatlarning bag'rikenglik asoslariga qurilishi jamiyatdagi umumiy ma'naviy muhitga, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurish, unda tenglik va teng huquqlilik prinsiplarini hayotga tatbiq etish, fuqarolar, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitmaslik g'oyalariga asoslanadi, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashga qaratilganligini ta'kidlab o'tishimiz kerak.

⁶ http://uza.uz/oz/society/konfessiyalararo_muloqot_va_diniy_bag'rikenglik_zhamiyat-bar--16-11-2017

⁷ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 24 b.

ADABIYOTLAR

1. “O'zbekiston ovozi” gazetasi. 26.01.2017.
2. UNESCO xalqaro me'yoriy hujjatlari. Konvensiyalar, bitimlar, protokollar, tavsiyanomalar, deklaratsiyalar. (To'plam) “Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”. – Toshkent: “Adolat”, 2004. - 91-92 b.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2001. – 222 b.
4. Musayev O. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. (O'quv qo'llanma) – T.: “Ilm-ziyozakovat”, 2021. - 134 b.
5. Temur Ahmedov. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik – yuksalish poydevori / Yangi O'zbekiston: 8-dekabr 2020.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. 5-24 b.
7. Musayev O., Karshiyev Sh. Abstract. This article analyzes some aspects of religious tolerance and interethnic relations in Uzbekistan // Russia and the moslem world science-information bulletin. – Москва, 2020. № 3. – P. 71-78.
8. Musayev O., Karshiyev Sh. Socio-philosophical interpretations of such concepts as “ethos” and “nation” as social unit. // International Journal of Advanced Science and Technology. – Copyright, 2020. SERSC–№5. – B. 1936-1944.

SPORT FAOLIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

G'AFFAROV

*Shokir Safarovich,
O'zbekiston davlat sport
akademiyasi huzuridagi
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha
mutaxassislarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali "Sport psixologiyasi,
ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy
fanlar" kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori*

ANNOTATSIYA

Maqolada sport faoliyatining falsafiy masalalari ko'rib chiqiladi. Sport nafaqat jismoniy faollik, balki inson hayotining ko'plab jabhalarini qamrab oluvchi murakkab hodisa ekanligiga e'tibor qaratiladi. Sport kontekstida raqobat va adolat masalalariga taalluqli axloq bilan chambarchas bog'liq jihatlari bor. Estetika sportchilar harakatlarining uyg'unligi va nafisligini tahlil qilishga yordam beradi. Vizual idrok va sport musobaqalari tomoshasi bu kontekstda katta rol o'ynaydi. Ijtimoiy falsafa sportning ijtimoiy aloqalar va guruhga a'zolikni mustahkamlashdagi rolini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Muallif zamonaviy sportdagi qarama-qarshi hodisalar ko'p jihatdan sivilizatsiyaning mafkuraviy inqirozi bilan bog'liq degan xulosaga keladi.

Kalit so'zlar: sport, etika, estetika, jamiyat, ijtimoiy falsafa, huquq, postmodernizm.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются философские вопросы спортивной деятельности. Акцент делается на том, что спорт – это не только физическая активность, но и сложное явление, охватывающее многие аспекты жизни человека. В контексте спорта есть аспекты, тесно связанные с моралью, касающиеся вопросов конкуренции и справедливости. Эстетика помогает проанализировать гармонию и изящество движений спортсменов. Зрительное восприятие и зрелище спортивных соревнований играют большую роль в этом контексте. Социальная философия дает возможность проанализировать роль спорта в укреплении социальных связей и членства в группе. Автор приходит к выводу, что противоречивые явления в современном спорте во многом связаны с идейным кризисом цивилизации.

Ключевые слова: спорт, этика, эстетика, общество, социальная философия, право, постмодернизм.

ANNOTATION

The article will consider philosophical issues of sports activities. Attention is paid to the fact that sports are not only physical activity, but also a complex phenomenon that covers many aspects of human life. In the context of sports, there are aspects closely related to ethics that relate to issues of competition and Justice. Aesthetics helps to analyze the harmony and elegance of the movements of athletes. Visual perception and sports competition spectacle play a large role in this context. Social philosophy provides an opportunity to analyze the role of sport in strengthening social ties and group membership. The author concludes that contradictory phenomena in modern sports are largely associated with the ideological crisis of civilization.

Key words: sports, ethics, aesthetics, society, social philosophy, law, postmodernism.

Kirish(Introdustion). Sport nafaqat jismoniy faoliyat, balki inson hayotining ko'p jabhalarini qamrab oluvchi murakkab hodisadir. Ba'zan sport falsafasi alohida bo'lim sifatida ajratilib, uning mohiyati, mazmuni va qadriyatlarini o'rganadi. 1920-yillarda sport falsafasi alohida fan sifatida o'zini namoyon qila boshladi [Мелник, 2018: 137]. Sport quyidagi muammolarni: sport, uning maqsadlari, u axloqiy va axloqiy me'yorlarga qanday ta'sir qiladi, o'ziga xoslik va madaniyatni shakllantirishdagi rolini o'rganadi.

Sport chuqur ijtimoiy ildizlarga ega va odamlarni birlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. U jamoalar va milliy o'zlikni shakllantirishga yordam beradi. Jahon sport musobaqalari ko'pincha xalqlar o'rtasidagi birlik va hamkorlik timsoliga aylangan. Biroq sport, ayniqsa, siyosiy va madaniy tafovutlar kontekstida ziddiyat va keskinlik manbayi bo'lishi mumkin.

Sport insonning o'zini namoyon qilishi uchun noyob imkoniyatlarni beradi. Sportchilar jismoniy va ruhiy to'siqlarni yengib o'tish orqali qobiliyatlarini namoyish etishlari mumkin. Shu nuqtayi nazardan, sport shunchaki musobaqa emas, balki san'atga aylanadi, bunda har bir sportchi o'ziga xos yaratuvchi bo'lib, harakat va yutuqlar orqali o'ziga xos hikoya yaratadi [12].

Sport tarixi. Sport falsafasining kelib chiqishi taxminan miloddan avvalgi 40–25-mingyilliklarda, jismoniy mashqlar va sport o'yinlarining asoslari mehnat faoliyatidan ajratilgan paytda boshlangan. Shundan shaxsning jismoniy tarbiyasi boshlanadi.

Qadim zamonlarda va o'rta asrlarda faylasuflar sportga san'atning bir turi – “harakat san'ati” sifatida qarashgan. Birinchilardan bo'lib qadimgi yunon faylasufi va shifokori Gippokrat salomatlik va jismoniy faoliyatni o'rgangan. U o'z asarlarida sportning inson salomatligiga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratgan [10].

Qadimgi Yunoniston davridan boshlab sport nafaqat estetik ma'noda, balki aqliy ma'noda ham shaxs rivojlanishining majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Sportning falsafiy jihatlari namoyon

bo'lishining eng yorqin misoli qadimgi dunyoda paydo bo'lgan Olimpiya o'yinlaridir.

Uzoq vaqt davomida sport ijtimoiy hodisa sifatida falsafa doirasida maxsus e'tiborga olinmadi. Sport muammolari turdosh fanlar – pedagogika, tibbiyot, fiziologiya, sportchilar psixologiyasi doirasida ko'rib chiqildi.

Sport falsafasining paydo bo'lishi 1960-yillarga to'g'ri keladi. Bu vaqtda sport falsafasi sohasiga tadqiqotchilarning o'zaro yo'naltirilgankiribborishikuzatildi–birtomondan, falsafiy masalalarni ko'rib chiqishga murojaat qilgan sport pedagogikasi amaliyotchilari, ikkinchi tomondan, faylasuflarning o'zlari, birinchi navbatda, yevropaliklar[11].

Sport axloqni o'rganish obyekti sifatida. Sport falsafaning odamlarning xulq-atvorini boshqaradigan axloqiy tamoyillar va me'yorlarni o'rganuvchi bo'limi bo'lgan etika bilan chambarchas bog'liqdir. Sport va axloq o'rtasidagi munosabatlar bir qancha jihatlarida namoyon bo'ladi. Birinchidan, adolat masalasini hal qilish kerak. Halol o'yin sportning asosiy tamoyilidir. Etika adolatli o'yin nima ekanligini va nima uchun muhimligini aniqlashga yordam beradi. Falsafaning ushbu bo'limida doping, korrupsiya va raqiblar o'rtasidagi munosabatlar kabi masalalar ham ko'rib chiqiladi.

Sport ham ko'pincha raqiblar, murabbiylar, hakamlar va muxlislarga hurmatni talab qiladi. Axloqiy tamoyillar sport mahoratida namoyon bo'ladi va sog'lom sport muhitini yaratishga yordam beradi. Sportchilar ham jamoat arboblari bo'lib, o'z harakatlari va boshqalarga ta'siri uchun javobgardirlar. Etika ushbu mas'uliyat asosidagi me'yorlar va qadriyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Sportdagi etika raqobat, g'alaba qozonish istagi va adolat masalalariga ham tegishli. Bu muvaffaqiyatga erishish uchun maqbul bo'lgan chegaralarni aniqlash imkonini beradi. Etika orqali sportchilar duch keladigan axloqiy dilemmalarni yaxshiroq tushunish va sport bilan shug'ullanadiganlar uchun adolatli, axloqiy va halol sharoitlarni targ'ib qiluvchi mafkurani rivojlantirish mumkin. Ushbu faoliyat sportchilarning axloqiy holatini va ularning reaksiyalarini o'rganish, shuningdek, tasodif, nedensellik va iroda erkinligi kabi metafizik

masalalarni o'rganish imkonini beradi(Edgar, 2015).

Sport estetikani o'rganish obyekti sifatida. Sport va estetika o'rtasidagi bog'liqlik – go'zallik, badiiy qadriyatlar va badiiy idrok masalalarini o'rganadigan falsafa bo'limi – sport faoliyatini falsafiy idrok etish kontekstida ham muhimdir. Sport – bu jismoniy faoliyat, inson kuch va mahoratini ifodalash shakli bo'lib, uning estetik jihatlar ham bor.

Sport(ayniqsa, yuqori texnika va mahorat talab qiladigan sport turlari) harakatning go'zalligi bilan bog'liq. Estetika sportchilar harakatining uyg'unligi va nafisligini tahlil qilish va baholashga yordam beradi. Bu kontekstda vizual idrok ham katta rol o'ynaydi. Sport voqealari tomoshasi va sport tomoshalari tomonidan yaratilgan tasvirlar estetika uchun muhim bo'lib, sportning vizual jihatlarini his-tuyg'ularga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi. Sport tomoshabinlarda hayrat va hayajondan tortib, taranglik va ishtiyoqqacha bo'lgan turli tuyg'ularni uyg'otishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Estetik xususiyatlar sport inshootlarini tartibga solish, ularning arxitekturasini va dizayniga ham tegishli. Chiroyli loyihalashtirilgan stadionlar, sport maydonchalari va arenalar o'z-o'zidan san'at asari bo'lishi mumkin. Estetika obyekti orqali sport tadbirlariga kiritilgan go'zallik va badiiy qadriyatlarni yaxshiroq tushunish va sport ishtirokchilar va tomoshabinlar uchun qanday estetik qoniqish manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkinligi haqidagi savolga javob berishi mumkin.

Sport ijtimoiy falsafaning o'rganish obyekti sifatida. Sport va ijtimoiy falsafa o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy, madaniy, siyosiy va axloqiy jihatlarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli masalalarni qamrab olgan mavzudir. Sport ijtimoiy institut bo'lib, ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi sifatida qaraladi, u ijtimoiy normalar va umidlarni aks ettiradi va shakllantiradi. Ijtimoiy falsafa sportning ijtimoiy aloqalar va guruhga a'zolikni mustahkamlashdagi rolini tahlil qilishga imkon beradi.

Sport ko'pincha madaniy va milliy o'zlikni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy

falsafa sport tadbirlari va yutuqlari milliy g'urur va madaniy o'ziga xoslikka qanday ta'sir qilishini, ayniqsa xalqaro musobaqalarda o'rganadi. Sport, shuningdek, resurslardan foydalanish, o'qitish va ishtirok etish imkoniyatlari bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy tengsizliklarni aks ettirishi mumkin. Sport odamlar va guruhlar uchun ijtimoiy harakatchanlikning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy falsafa sportdagi yutuqlar hayot istiqbollari va ijtimoiy mavqeyini qanday o'zgartirishi mumkinligini o'rganishga va bu qanchalik adolatli ekanligini va umuman jamiyatga qanday ta'sir qilishini aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib, qadimgi davrlarda ham Olimpiya yugurish musobaqalariga kirish fuqarolik ustunligi, qadr-qimmati va ijtimoiy yetukligining ma'lum bir darajasini ramziylashtirdi. Ishtirok etish uchun qabul qilingan sportchilar erkin erkaklar – Gretsiya fuqarolari bo'lishlari va o'yinlarda o'z shahri vakili bo'lish huquqiga ega bo'lishlari kerak edi. Bu benuqson obro'ga ega bo'lishni anglatadi. G'olib bo'lganlar eng muhim ijtimoiy resurs – kuchga kirishni ochadigan ijtimoiy narvon bo'lib xizmat qildi [Канькин, 2021].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sport jamiyatdagi o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi mumkin. Masalan, turli guruhlar uchun teng huquqlar harakati kengroq ijtimoiy va huquqiy kurashlar uchun namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy falsafa sport amaliyotlari ijtimoiy va siyosiy tuzilmalardagi o'zgarishlarni qanday ilhomlantirishi mumkinligini o'rganadi. Sport odamlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydigan jamoalarni yaratishga yordam beradi. Sport tashkilotlari fuqarolik jamiyati tarkibiga kiradi.

Shunday qilib, sport va ijtimoiy falsafa o'rtasidagi munosabatlar shaxslar, madaniyatlar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab tarmog'ini ochib beradi. Sport nafaqat raqobat maydoni, balki muhim ijtimoiy masalalarni muhokama qilish, inson munosabatlari va ijtimoiy-madaniy kontekstni yaxshiroq tushunishga hissa qo'shadigan maydon sifatida ham xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy dunyoda sport ko'pincha siyosiy soha bilan aralashib ketadi

va bu salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Siyosatchilar va hukumat amaldorlari sport tashkilotlari va sportchilarga bosim o'tkazishi, qarorlar qabul qilinishiga aralashishi va sport tadbirlarini o'z manfaatlari yo'lida tartibga solishi mumkin. Bu esa sportning mustaqilligini pasaytiradi va korrupsiyaga olib keladi. Siyosatchilar ba'zan o'zlarining siyosiy maqsadlari va ambitsiyalarini amalga oshirish uchun sportdan foydalanadilar, bu sport tadbirlari va faoliyatini siyosiylashtirishga olib keladi, sport qadriyatlarini pasaytiradi va nizo xavfini keltirib chiqaradi.

Siyosiy tafovutlar, shuningdek, sport musobaqalarini boykot qilishga va mamlakatlarning xalqaro turnirlarda ishtirok etishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Bu sportni ochiqlik, xilma-xillikdan mahrum qiladi va sport munosabatlarini buzadi. Sportni moliyalashtirish va sport infratuzilmasini qurish bo'yicha siyosiy qarorlar sportning sanoat sifatida rivojlanishiga zarar yetkazadigan siyosiy maqsadlarga qaratilishi mumkin. Siyosiy aralashuv antidoping nazorati tizimiga ta'sir qilishi, xalqaro sport tashkilotlarini korrupsiyaga tortishi va doping uchun jazo tayinlanadigan vaziyatni yaratishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy texnologiyalar sportning qiyofasini ham o'zgartirib, mashg'ulotlar va raqobat uchun yangi ufqlarni ochdi. Biroq bu texnologiya sportning yaxlitligiga va raqobatning adolatliligiga qanday ta'sir qilishi haqida savollar tug'diradi. Sport falsafasi ushbu o'zgarishlarni va ularning jamiyat uchun oqibatlarini o'zining qiymat o'lchovida hisobga olishi kerak. F.X.Lopes Frias va J.L.Peres Trivinolar robotlarning sport musobaqalarida ishtirok etishi masalasiga to'xtalib o'tishdi. Mualliflarning fikricha, robototexnika sohasidagi so'nggi yutuqlar sportchilarning o'yin maydonidagi harakatlarini takrorlaydigan sun'iy intellektning paydo bo'lishi haqiqatdir [Lopez Frias, Pérez Triviño, 2016].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Sportning mohiyatini tushunish falsafiy nuqtayi nazardan muhim, chunki falsafa butun dunyoni tushunishga intiladi. Sport falsafasi ko'p qirrali soha bo'lib, axloq, o'zini namoyon qilish, ijtimoiy o'ziga xoslik va shaxsiy o'sish



masalalarini qamrab oladi. Bu nafaqat sportning o'zi, balki uning jamiyat va shaxslarga ta'sirini ham chuqurroq tushunish imkonini beradi. Sport shunchaki o'yin emas, u bizning intilishlarimiz, qadriyatlarimiz va muammolarimizni aks ettiruvchi inson tabiatining ko'zgusidir.

Falsafa an'anaviy ravishda tana va ruh o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqadi va sport bu munosabatlarning o'ziga xos namunasi bo'lib xizmat qiladi. Sport jismoniy kuch talab etadi, lekin aql, strategiya va psixologiya elementlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu o'zaro ta'sirni

o'rganish inson mavjudligining mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, sportni turli tomonlardan tahlil qilish insonni boshqa odamlar va uning atrofidagi dunyo bilan o'zaro munosabatda bo'lgan yaxlit mavjudot sifatida falsafiy tushunish imkonini beradi. Sport insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, uning falsafiy tadqiqi inson mavjudligining turli qirralarini ochib beradi. Bu bilim falsafaning asosiy maqsadlariga mos keladigan dunyoni va undagi rolini to'liqroq idrok etishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Гуссерль Э. Собрание сочинений. – Т. 3: Логические исследования. – М., 2001. – 576 с.
2. Канькин С.В. Сакральное и профанное в олимпийском беге Античности // Философская мысль. – 2021. – № 1.
3. <http://doi.org/10.25136/2409-8728.2021.1.32933>.
4. Мельник С.В. Философия спорта // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература.
5. Философия. – Сер. 3. – 2018. – № 3. – С. 137–145.
6. Мерло-Понти М. Феноменология восприятия / под ред. И.С.Вдовиной, С.Л.Фокина. – СПб., 1999. – 603 с.
7. Столяров В.И. Философия физкультурно-спортивной деятельности и телесности человека (история, современное состояние, авторская концепция). – М., 2018. – 266 с.
8. Edgar A. The philosophy of sport // The International Journal of the History of Sport. 2015. Vol. 32, no. 15. P. 1804–1807.
9. Lopez Frias F.J., Pérez Triviño J.L. Will robots ever play sports? // Sports, Ethics and Philosophy. 2016. Vol. 10, no. 1. P. 67–82.
10. <https://na-journal.ru/12-2023-fiz-kultura-sport/7736-filosofskie-aspekty-sporta>
11. https://spravochnik.ru/filosofiya/filosofiya_sporta/
12. Ишутин А.А. Философские аспекты спортивной деятельности // Общество: философия, история, культура. – 2025. – № 2. – С. 95–99.

OTA-ONALARNING TENG HUQUQLILIGINI TA'MINLASHDAGI HUQUQIY VA AMALIY MUAMMOLAR

MURODULLAYEVA

*Narsis Alisher qizi,
Toshkent davlat yuridik
universiteti magistranti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ota-onalarning teng huquqliligini ta'minlashdagi huquqiy va amaliy muammolar tahlil qilinadi. Ota-onalar o'rtasidagi tenglikning ta'minlanishi jamiyatda gender tengligini rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMTning "Xotin-qizlarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi konvensiya" (CEDAW) va mamlakatlar ichidagi mehnat kodeksi kabi qonuniy asoslar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, amaliy muammolar, jumladan, jamiyatdagi oilaviy stereotiplar, ish bozorida ayollarga nisbatan diskriminatsiyalar va ota-onalik ta'tilining gender asosida taqsimlanishi kabi muammolar yoritiladi. Maqolada ota-onalar o'rtasida teng huquqlilikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar, shu jumladan, ish sharoitlarini moslashtirish, erkaklar va ayollar uchun bir xil imkoniyatlarni yaratish, ota-onalik ta'tilini teng taqsimlash va oilaviy vazifalarni muvozanatlash kabi strategiyalar taklif etiladi. Ota-onalar o'rtasida tenglikni ta'minlash uchun faqat qonunlar emas, balki ijtimoiy madaniyatni o'zgartirish zarurligi ta'kidlanadi. Maqola ota-onalar o'rtasidagi tenglikni amalda ta'minlashga qaratilgan samarali yondashuvlar va istiqboldagi imkoniyatlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Konvensiya, BMT, yondashuv, istiqbol, mas'uliyatlarni teng taqsimlash.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются правовые и практические проблемы обеспечения равных прав родителей. Обеспечение равенства между родителями играет важную роль в продвижении гендерного равенства в обществе и повышении экономической и социальной стабильности. В статье рассматривается правовая база, в том числе международно-правовые акты, в частности Конвенция ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (КЛДЖ), а также внутренние трудовые кодексы. Также рассматриваются практические вопросы, включая стереотипы о семье в обществе, дискриминацию женщин на рынке труда

и распределение отпуска по уходу за ребенком по признаку пола. Предлагаются социальные и правовые меры, необходимые для обеспечения равенства между родителями, включая такие стратегии, как адаптация условий труда, создание равных возможностей для мужчин и женщин, равное распределение отпуска по уходу за ребенком и балансирование семейных обязанностей. Подчеркивается, что для обеспечения равенства родителей необходимо менять не только законы, но и общественную культуру. В статье показаны эффективные подходы и будущие возможности, направленные на обеспечение равенства между родителями на практике.

Ключевые слова: Конвенция, ООН, подход, перспектива, равное распределение обязанностей.

ANNOTATION

This article analyzes the legal and practical problems in ensuring equal rights of parents. Ensuring equality between parents plays an important role in developing gender equality in society, increasing economic and social stability. The article examines international legal instruments, in particular, the UN *Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women* (CEDAW) and the legal framework of domestic labor codes. It also covers practical problems, including family stereotypes in society, discrimination against women in the labor market, and the gender-based distribution of parental leave. The article proposes social and legal measures necessary to ensure equal rights between parents, including strategies such as adapting working conditions, creating equal opportunities for men and women, equal distribution of parental leave, and balancing family responsibilities. It is emphasized that in order to ensure equality between parents, it is necessary to change not only laws, but also social culture. The article shows effective approaches and future opportunities aimed at ensuring equality between parents in practice.

Key words: Convention, UN, approach, perspective, equal distribution of responsibilities.

Ota-onalar orasida teng huquqlilikning ta'minlanishi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ota-onalar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash uchun bir qancha qonunlar va siyosat ishlab chiqilgan bo'lsa-da, bu masala hali ham ko'plab huquqiy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Ota-onalarning teng huquqliligi faqatgina qonuniy huquqlarni taqdim etish bilan cheklanmaydi, balki bu huquqlarning amaliy hayotda qanday ishlatilishi, ish va oiladagi rollar, shuningdek, jamiyatdagi stereotiplar kabi omillar bilan ham bog'liqdir.

Ota-onalar o'rtasidagi teng huquqlilikni ta'minlashga qaratilgan bir qancha xalqaro hujjatlar mavjud. Bunga, masalan, BMTning *"Xotin-qizlarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi konvensiya"* (CEDAW) kiradi. Ushbu konvensiya, ota-onalarning farzandlariga nisbatan bir xil huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, o'zbekistonlik ota-onalar uchun ham o'zgartirilgan Mehnat kodeksi va oilaviy qonunlar ota-onalar uchun teng imkoniyatlar yaratishni ko'zda tutadi. Biroq ko'plab davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham aynan qonunlar tizimida ba'zi ziddiyatlar mavjud. Masalan, ota-onaning birinchi darajali farzandni parvarish qilishdagi roli va mas'uliyati ayrim holatlarda ayollarni ustun qo'yishga olib keladi. Mehnat bozorida xotin-qizlar ko'proq oilaviy majburiyatlarni o'z zimmlariga olishadi, bu esa ularning karyerasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Amaliy nuqtayi nazardan, ota-onalarning teng huquqliligi ta'minlanishida bir qator muammolar mavjud. Jamiyatda oilaviy roldagi stereotiplar, masalan, ayolning uy ishlariga va bolaga g'amxo'rlik qilishdagi majburiyatlarini o'z zimmasiga olishiga ko'proq e'tibor qaratilishi hali ham mavjud. Ota-onalar o'rtasida ish va oilaviy vazifalar taqsimoti ko'pincha ayollar foydasiga bo'ladi. Bunday holatlarda, erkaklarning uy ishlariga va bolaga

g'amxo'rlik qilishda faolligi kamroq bo'ladi, bu esa ayollarga bo'lgan ijtimoiy bosimni oshiradi.

Ota-onalar o'rtasida tenglikni ta'minlashda yana bir muammo bu – mehnat bozoridagi ayollarga nisbatan munosabat va ularga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlashning yetishmasligidir. Ko'pgina ayollar, hatto homiladorlik payti ham ish joylarida diskriminatsiyaga duch kelishadi. Bu esa o'z navbatida, ularning ish va oila orasidagi muvozanatni saqlashga bo'lgan imkoniyatlarini cheklaydi. Ota-onalar o'rtasida teng huquqlilikni ta'minlash uchun bir qancha strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Avvalo, jamiyatda oilaviy stereotiplarni o'zgartirish muhimdir. Ota-onaning rollarini teng taqsimlash, erkaklarni ham uy ishlariga, bolaga g'amxo'rlik qilishga undash zarur. Bu borada davlat tomonidan taqdim etilayotgan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, ota-onalik ta'tili, bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatishdagi huquq va majburiyatlar haqida xabardorlikni oshirish kerak. Shuningdek, ish joylarida ota-onalarga teng imkoniyatlar yaratish ham zarur. Ayollarning ishga qabul qilinishida va mehnat sharoitlarida tenglikni ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlovchi siyosatlar amalga oshirilishi lozim. Erkaklarga ham ota bo'lishdan oldin va keyin ham bolaga g'amxo'rlik qilishda teng imkoniyatlar taqdim etilishi, bu masalalarda ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan tenglikni ta'minlashga yordam beradi.

Ota-onalarga bir xil sharoitlarda farzand tarbiya qilish imkoniyatini yaratish, ularning mas'uliyatlarini teng taqsimlash jamiyatda gender tengligini ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, ish joylarida ularga teng imkoniyatlar yaratish ham zarur. Ayollarning ishga qabul qilinishida va mehnat sharoitlarida tenglikni ta'minlash uchun qo'llab-quvvatlovchi siyosat amalga oshirilishi lozim.

Ayollarga bolalar bilan bog'liq ishlarga ruxsat berish, ularning karyeralarini rivojlantirishda imkoniyat yaratish, shuningdek, ular uchun mos ish sharoitlarini taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Bunday choralari, ayniqsa, ayollarning homiladorlik va bolalik davrida o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, erkaklarga ham ota bo'lishdan oldin va keyin ham bolaga g'amxo'rlik qilishda teng imkoniyatlar taqdim etilishi, bu masalalarda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan tenglikni

ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalarning davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar olishini osonlashtirish muhimdir. Ota-onalik ta'tilini faqat ayollarga berish o'rniga, erkaklar uchun ham bunday imkoniyatni yaratish, ularning bolalarga nisbatan mas'uliyatini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ota-onalik ta'tili paytida iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ham zarur, bu esa oilaning moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradi va ota-onalar orasidagi mas'uliyatni teng ravishda taqsimlashni osonlashtiradi. Ayniqsa, ota-onalik va mehnatni birlashtirishda ko'proq moslashuvchan ish sharoitlari, masofaviy ish vaqtlari kabi imkoniyatlar taqdim etish kerak. Bu faqat ayollar uchun emas, balki erkaklar uchun ham mavjud bo'lishi lozim. Masalan, ota-onalar uchun moslashuvchan ish vaqtlarini taqdim etish, bolalarni parvarish qilishda ikkalasi ham teng darajada qatnashish imkoniyatini yaratadi. Bu, shuningdek, ish joylarida gender asosida diskriminatsiyaga qarshi kurashish va ishchi kuchidan yanada samarali foydalanish uchun ham zarurdir.

Ota-onalar o'rtasida teng huquqlilik jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishi uchun zarur. Biroq huquqiy va amaliy jihatdan hali ko'plab muammolar mavjud. Bu masalani hal qilishda faqat qonunlar bilan emas, balki jamiyatdagi madaniyat, qarashlarni va ish bozoridagi tenglikni o'zgartirish orqali ham erishish mumkin. Shunday qilib, ota-onalar o'rtasida tenglikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirdagina bu borada ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

Ota-onalar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash uchun nafaqat qonunlar, balki amaliy yondashuvlar ham muhimdir. Bu masalani hal qilishda faqat qonunlarni o'zgartirish bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatdagi madaniyatni, qarashlar va oilaviy stereotiplarni o'zgartirish kerak. Yangi qonunlar va siyosat ota-onalar o'rtasida tenglikni ta'minlashda zarur vosita bo'lsa-da, ularning ijtimoiy mohiyati va madaniy qabul qilinishi ham muhim rol o'ynaydi. Ota-onalik va ish o'rtasidagi muvozanatni saqlashda eng yaxshi natijalarga erishish uchun ota-onalar o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy adolatni ta'minlaydigan dasturlarni kuchaytirish kerak.

O'z navbatida bu ijtimoiy barqarorlikni oshirish, gender tengligini rivojlantirish va jamiyatda haqiqiy adolatni ta'minlashga yordam beradi.

Teng huquqlilikka erishishda ijtimoiy omillar ham yetakchi o'rin egallaydi. Jamiyatda "erkaklarning oilada faol bo'lishi" yoki "ayollarning mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishi" kabi stereotiplar hali ham mavjud. Bu stereotiplar ota-onalar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga to'sqinlik qiladi. Masalan, ko'plab jamiyatlarda erkaklar oilada eng yuqori daromadni keltiruvchi, ayollar esa uyni parvarish qilishda asosiy rolni o'ynovchi sifatida ko'riladi. Bunday qarashlar ota-onalar o'rtasidagi tenglikni cheklaydi.

Erkaklarning farzand tarbiyasida va uy ishlarida faol ishtirokini rag'batlantirish muhimdir. Ba'zi mamlakatlarda erkaklarning bolaga g'amxo'rlik qilishdagi roli hali ham cheklangan. Ammo ba'zi rivojlangan mamlakatlarda ota-ona ta'tili va o'quv ta'limida erkaklarning ishtiroki ortib bormoqda. Erkaklarning bolalar tarbiyasida faol ishtirok etishi, oilaviy mas'uliyatni teng taqsimlashga va gender tengligini ta'minlashga yordam beradi. Erkaklarga ham ota-ona ta'tilini taqdim etish va ularning farzandlarini parvarish qilishdagi huquqlarini kuchaytirish muhim.

Ota-ona ta'tili tizimi orqali oilalarni qo'llab-quvvatlashda davlatning roli ham muhim. Aksariyat mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ota-ona ta'tilidan faqat ayollar foydalanadi. Ota-ona o'rtasida mas'uliyatlarni teng taqsimlash – bu nafaqat bolaga g'amxo'rlik, balki uy ishlari, ta'lim va boshqa oilaviy vazifalar bo'yicha ham tenglikni ta'minlashni anglatadi. Ayollarga uy ishlari va bolaga parvarish qilishda nohaq yuk yuklatilishi, ularning ish va oilaviy muvozanatni saqlashdagi imkoniyatlarini kamaytiradi. Erkaklarning bu sohalarida faolligini oshirish uchun jamiyatda oilaviy mas'uliyatni teng taqsimlashning muhimligi haqida ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari olib borilishi kerak.

Ota-onalar o'rtasida teng huquqlilikni ta'minlashda xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar ham muhimdir. Ko'plab davlatlar, masalan, Skandinaviya mamlakatlari ota-ona ta'tilini erkaklar va ayollar o'rtasida teng taqsimlashga qaratilgan ilg'or siyosatni amalga oshirmoqda. Ularning tajribasidan foydalangan holda, O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham o'zgarishlar qilish mumkin.



ADABIYOTLAR

1. BMT (1979). Xotin-qizlarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini yo'qotish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW). Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (2011). Oila va nikoh to'g'risidagi qonun. – Toshkent: Adabiyotlar nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2020). O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. – Toshkent: Adabiyotlar nashriyoti.
4. Nasirova R. (2019). Ota-onalar o'rtasida teng huquqlilik va amaliy muammolar. Xalqaro huquq jurnali, 24(3), 78-89.
5. Ibragimov A., & Karimova L. (2020). O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash: huquqiy va amaliy yondashuvlar. – Toshkent: Ijtimoiy va siyosiy tadqiqotlar markazi.
6. World Economic Forum. (2023). Global Gender Gap Report. Davos: World Economic Forum.

(Endnotes)

- 1 [Elektron manba:] <https://uza.uz/uz/posts/obod-va-khavfsiz-ma-alla-tamoyili-amalga-oshiriladi-12-02-2020>.

JINOYAT PROTSESSIDA TARJIMONNING HUQUQIY MAQOMI, ULARNI JALB ETISHDA YUZAGA KELGAN XARAJATLAR HAMDA QOPLASH TARTIBI

BOZOROV

*Maqsudali Maxmudovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi
o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Jinoyat protsessi ishtirokchilariga tarjimon xizmatini ko'rsatish shartlarini huquqiy tartibga solish masalasi bo'yicha milliy va xorijiy qonunchilik tahlil qilindi. Bu jinoyat protsessida tarjimonning ishtiroki tufayli yuzaga kelgan protsessual xarajatlar kimning hisobiga o'tkazilishi kerakligi haqidagi savolga javob topishga imkon berdi. Shunday qilib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning qonuniy vakili, vafot etgan ayblanuvchining vakili, himoyachi, fuqaroviy javobgar va uning vakili uchun davlat tomonidan tarjimonning bepul yordamini (uning ishtiroki bilan bog'liq xarajatlarni keyinchalik qoplamasdan) ta'minlash orqali inson huquqlarini va odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlarni e'tirof etgan holda, davlat jinoyat protsessini yurituvchi organlar tim-solida ayblovl tomonining manfaatlarini qondirish maqsadida tarjimon yordami bilan bog'liq protsessual xarajatlarni qoplash majburiyatini aybdor shaxs zimmasiga yuklash uchun xalqaro-huquqiy asoslarga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: protsessual chiqimlar, tarjimon ishtiroki, xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish, xarajatlarni ayblanuvchi zimmasiga yuklash.

АННОТАЦИЯ

Проанализировано национальное и зарубежное законодательство по вопросу правового регулирования условий оказания услуг переводчика участникам уголовного процесса. Это позволило найти ответ на вопрос о том, за чей счет должны быть отнесены процессуальные расходы, возникшие в связи с участием переводчика в уголовном процессе. Таким образом, признавая международно-правовые стандарты в области обеспечения прав человека и доступа к правосудию путем обеспечения государством для подозреваемого, обвиняемого, его законного представителя, представителя умершего обвиняемого, защитника, гражданского ответчика и его представителя бесплатной помощи переводчика (без последующего возмещения расходов, связанных с его участием), государство в лице органов, ведущих уголовный процесс, имеет международно-правовые основания для возложения на

виновное лицо обязанности по возмещению процессуальных расходов, связанных с помощью переводчика, в целях удовлетворения интересов стороны обвинения.

Ключевые слова: процессуальные издержки, участие переводчика, отнесение расходов на счет государства, возложение расходов на обвиняемого.

ANNOTATION

An analysis was conducted of national and foreign legislation regarding the legal regulation of providing interpreter services to participants in criminal proceedings. This allowed for determining who should bear the procedural costs arising from an interpreter's participation in criminal proceedings. Thus, by providing free interpreter assistance (without subsequent reimbursement of related expenses) for the suspect, accused, their legal representative, representative of a deceased accused, defense counsel, civil defendant and their representative, the state acknowledges international legal standards in ensuring human rights and access to justice. Consequently, the state, through the bodies conducting criminal proceedings, has international legal grounds to impose on the guilty party the obligation to reimburse procedural costs associated with interpreter assistance in order to satisfy the interests of the prosecution.

Keywords: procedural costs, interpreter participation, transfer of expenses to state account, imposing expenses on the accused.

Mamlakatimizda barcha sohalarida bo'lganidek sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, odil sudlovni qaror toptirish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoyasini ta'minlashga, shuningdek odil sudlovga erishish darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz taraqqiyotining kafolati davlat va jamiyatning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasini tubdan takomillashtirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy normalar kiritildi, huquqbuzarlikdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat **jabrlanganlarga himoyalaniishni va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlashi**, ularga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun **shart-sharoitlar yaratishiga oid qoidalar** aniq belgilab qo'yildi [1].

Shuni ta'kidlash kerakki, muayyan jinoyat sodir etilishi faktiga **davlatning reaksiyasi**, avvalo, **aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyatida** ifodalanadi.

Jinoyatchilikni aniqlashga doir xarajatlarining katta qismi **jinoyatni tergov qilish bilan bog'liq chiqimlarga** to'g'ri keladi.

Jinoyat protsessida ishni tergov qilish va ko'rib chiqishda **tarjimonning** ishtiroki keng tarqalgan bo'lib, u protsessning boshqa ishtirokchilari huquqlarini to'g'ri amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, tarjimonning mehnati munosib taqdirlangan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasiga asosan **jinoyat ishlarini yuritish** o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi.

Ish yuritilayotgan **tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchi-**

lariga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushuntirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi ta'minlanadi. Bunday hollarda, shuningdek ish materiallari bilan tanishish vaqtida **protsess ishtirokchilari qonunda belgilangan tartibda tarjimon xizmatidan foydalanishlari** mumkin.

Ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning **ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi** lozim.

Shuningdek, JPKning 71-moddasiga asosan **tarjimon** quyidagi hollarda chaqiriladi:

1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis **ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoki kar yoki soqov bo'lsa;**

2) **biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga** zarurat bo'lsa.

Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo'llaniladi.

Mazkur kodeksning 72-moddasiga asosan **tarjimonning huquq va majburiyatlari** keltirilgan bo'lib, unga asosan **tarjimon**:

– tarjimoni aniqlashtirish maqsadida protsess ishtirokchilariga savollar berish;

– o'zi qatnashgan tergov harakatlari bayonnomasi, shuningdek sud majlisi bayonnomasi bilan tanishish hamda bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan mulohazalar bildirish;

– basharti tarjima qilish uchun zarur bilim va malakaga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishdan voz kechish;

– surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat keltirish **huquqiga egadir.**

Tarjimon: surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi;

– o'ziga topshirilgan tarjimoni aniq va to'liq bajarishi;

– tarjimonning to'g'riligini o'zining ishtirokida o'tkazilgan tergov harakati bayonnomasi va sud majlisining bayonnomasiga, shuningdek protsess ishtirokchilariga ularning ona tiliga yoki ular bi-

ladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladigan protsessual hujjatlarga imzo chekish bilan tasdiqlashi;

– surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning ruxsatisiz surishtiruv va dastlabki tergov materiallarini oshkor qilmasligi;

– ishning tergov va sud majlisi vaqtida tartibga **rioya etishi shart.**

Jinoyat ishlari yuritiladigan til tamoyilining amalga oshirilishi **muqarrar ravishda protsessual xarajatlarga oid** sarf-xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bu xarajatlar "tergov va sud harakatlarida tarjimonning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalari va lingvistik bilimlaridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan davlat xarajatlari"ni o'z ichiga oladi. Ushbu xarajatlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi JPKning 318-moddasida belgilangan [2].

Xususan, mazkur modda 1-qismining 1, 3-bandlariga muvofiq, tarjimonning jinoyat protsessida ishtirok etishi bilan bog'liq protsessual xarajatlarning mazmuni ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, ular **tarjimonlarga protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga borish va qaytish, yashash va ularni odatdagi mashg'ulotlaridan chalg'itish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya sifatida to'lanadigan summalarni** o'z ichiga oladi;

boshqa tomondan, ular **"benefitsiar xususiyatlarga"** ega bo'lib, bu protsessual xarajatlarga tarjimonlarga jinoyat protsessida o'z vazifalarini bajarganligi uchun to'lanadigan haqning kiritilishida namoyon bo'ladi.

Protsessualist olim T.Y.Vilkovanning jinoyat protsessi prinsipi sifatida sud ishlarini yuritish tiliga bag'ishlangan monografiyasida jinoyat protsessiga nisbatan shunday ta'kidlanadi: "Tarjimon ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarning mahkum zimmasiga yuklatilishi, shubhasiz, ayblanuvchining himoyalani huquqini cheklar edi, chunki bu uning tarjimon ishtirokini so'rab iltimosnoma berish to'g'risidagi qaroriga ta'sir qilishi mumkin edi. Bu esa jinoyat sud ishlarini yuritish vazifalarini hal etishga salbiy ta'sir ko'rsatgan" [3].

Tarjimonning jinoyat protsessida ishtirok etishi natijasida yuzaga keladigan protsessual xarajatlar **kinning hisobiga** o'tkazilishi **kerakligi** masalasi hozirgi vaqtda protsessualist olimlar o'rtasida mu-nozaralarga sabab bo'lmayapti.

Ular o'z asarlarida faqat O'zbekiston Res-

publikasi JPKning 320-moddasi 2-qismida belgilangan tarjimon xizmatlarini **bepul ko'rsatish to'g'risidagi qoidani qayd etish bilan** cheklanmoqdalar.

Biroq tarjimonning jinoyat protsessida ishtirok etishini moliyaviy ta'minlash tartibi sinchkovlik bilan o'rganilganda, bu ishtirok bepul emasligi, ya'ni haq to'lanishi lozim ekanligi ayon bo'ldi. To'lovlar mamlakatimizga kelib, jinoyat sodir etgan va shu bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, qonunlarini buzgan, lekin uning milliy tillarini bilmaydigan shaxslar tomonidan emas, balki O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan amalga oshiriladi. Ular har oyda davlat byudjetiga to'lovlarni amalga oshiradilar va aynan shu mablag'lar hisobidan ko'rsatilgan shaxslarning ona tili va tarjimon xizmatlaridan foydalanishi ta'minlanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda tovarlar va xizmatlar bozoridagi mavjud narxlarni hisobga olgan holda, ushbu to'lov byudjet mablag'lari xarajatlarining sezilarli qismini tashkil etadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son bilan tasdiqlangan Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomning 14-bandiga ko'ra, **og'zaki tarjimaning bir soati uchun** o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, rus tillari **9 315** so'mni, turk fors tillari **18 750** so'mni, ingliz, fransuz, nemis, ispan va boshqa yevropa davlatlari uchun **28 125** so'mni, yapon, koreys, xitoy, arab, hind, urdu tillari **56 250** so'mni, yozma tarjima uchun **1800 bosma belgi** (1 varaq) uchun o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, rus tillari **18 750** so'mni, turk fors tillari **28 125** so'mni, ingliz, fransuz, nemis, ispan va boshqa Yevropa davlatlari uchun **37 500** so'mni, yapon, koreys, xitoy, arab, hind, urdu tillari **75 000** so'mni hamda **boshqa tillar uchun** og'zaki tarjimaning bir soati yoki yozma tarjima uchun (1 800 bosma belgi) boshqa tillar uchun **93 750** so'mdan boshlanadi [4].

Jinoyat ishlari yuritiladigan tilini belgilovchi prinsip (JPK 20-moddasi) O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4-moddasiga asoslanadi. Ushbu moddada ona tilidan foydalanish va muloqot tilini tanlash huquqi mustahkamlangan bo'lib, uning mohiyati O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida ochib berilgan [5]. Bu moddaga ko'ra, sudlov ishlarini yuritish

davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, Konstitusiyasining 29-moddasiga asosan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, **tarjimon yordamidan foydalanish** huquqiga egaligi qayd etilgan.

Shunday qilib, mamlakatning Asosiy Qonuni tarjimonning bepul yordami huquqini to'g'ridan-to'g'ri mustahkamlamaydi, binobarin, **tarjimon ishtiroki tufayli yuzaga kelgan** protsessual xarajatlarni aybdorga yuklash imkoniyatini nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, Yevropa Parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashining bir qator direktivalarida jinoyat protsessida og'zaki va yozma tarjima huquqi mustahkamlangan bo'lsa-da, uning **bepulligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan** [6]. Shu bilan birga, GFR JPKning 464c-paragrafidagi "dastlabki sud muhokamasi bosqichida nemis tilini bilmaydigan yoki eshitish yoki nutq nuqsoni bo'lgan ayblanuvchi uchun" og'zaki yoki yozma tarjimonni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar, agar ular ayblanuvchining o'z aybi bilan yoki uning aybi tufayli boshqa tarzda zaruratsiz yuzaga kelgan bo'lsa, dastlabki sud muhokamasi bosqichida uning zimmasiga yuklanishi belgilangan [6, 361-bet]. Ukraina qonun chiqaruvchisi esa tarjimonni jinoyat protsessida ishtirok etishga jalb qilish bilan bog'liq barcha xarajatlarni tarjimonni chaqirish to'g'risida iltimos bildirgan jinoyat ishi yurituvchi tomonga yuklagan (Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksining 122-moddasi 1-qismi) [7].

Shu bilan birga, bir qator xalqaro hujjatlarida jinoyat protsessi ishtirokchisi uchun tarjimon xizmatlarining bepulligi muayyan shartlar doirasida nazarda tutilgan. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1988-yil 9-dekabrda 43/173 (XLIV) rezolyusiyasi bilan qabul qilingan, har qanday shaklda ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to'plamining 14-tamoyili shaxsning hibsga olish yoki ushlab turish sabablari, ehtiyot chorasini qo'llash, qo'yilgan ayblovlar, protsessual huquqlar

va ularni amalga oshirish usullari to'g'risida tushunarli tilda ma'lumot olish hamda "zarur bo'lsa, hibsga olinganidan keyin sud muhokamasi munosabati bilan **bepul tarjimon yordamidan** foydalanish" huquqini belgilaydi [8]. Shuningdek, 1981-yil 14-maydagi Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasining odil sudlovdan foydalanishni osonlashtirish yo'llari to'g'risidagi R(81)7-sonli tavsiyasining 6-bandida davlatning "**kambag'al va kam ta'minlangan shaxslar** sudda qo'llaniladigan tilda gapira olmasligi yoki tushuna olmasligi sababli sudga murojaat qilish yoki sud jarayonida ishtirok etishda noqulay ahvolga tushib qolmasligini ta'minlash" majburiyati mustahkamlangan [9].

Bayon etilgan mulohazalarning mantiqiyligiga qaramay, mamlakatimiz qonunchiligiga ko'ra, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi jinoyat protsessi olib borilayotgan tilni bilmasligi sababli **tarjimonning ishtiroki bilan bog'liq protsessual xarajatlar** davlat hisobiga qabul qilinadi (O'zbekiston Respublikasi JPK 318-moddasining 2-qismi). Bu O'zbekiston Respublikasi JPK 20-moddasining 2-qismi ko'rsatmasining bevosita natijasidir. Mazkur modda, o'z navbatida, xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrda 2200 A (XXI) rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ning

14-moddasi 3-bandining qoidalaridan sezilarli ta'sir olgan. Shunday qilib, ushbu norma ko'rsatmasiga muvofiq, har bir shaxs o'ziga qo'yilgan har qanday jinoiy ayblovni ko'rib chiqishda eng kamida "sudda qo'llaniladigan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, bepul tarjimon yordamidan foydalanish" huquqiy kafolatiga ega [10]. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu xalqaro majburiyatni bajarishni o'z zimmasiga olgan bo'lib, uni bajarishdan bosh tortish uning demokratik ijtimoiy huquqiy davlat sifatidagi obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, shunga o'xshash huquq boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar normalarida ham mustahkamlangan. Xususan, Yevropa Kengashining 1995-yil 1-fevraldagi Milliy ozchiliklarni himoya qilish to'g'risidagi Asosiy Konvensiyasi 10-moddasining 3-qismiga muvofiq, milliy ozchiliklarga mansub har bir shaxs "o'zining hibsga olinishi sabablari va unga qo'yilgan har qanday ayblovning xususiyati va sabablari to'g'risida o'zi tushunadigan tilda darhol xabardor bo'lish va **zarurat tug'ilganda tarjimonning bepul yordamidan foydalangan holda o'zini shu tilda himoya qilish**" huquqiga ega [11]. Ushbu huquqni amalga oshirishning shunga o'xshash mexanizmi 1950-yil 4-noyabrda Rim Kongressida Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari



va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasi 3-bandining "e" kichik bandida ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, ayblanuvchi o'ziga qo'yilgan ayblovning mohiyati va asosi haqida o'zi tushunadigan tilda xabardor qilinish, shuningdek tarjimonning bepul yordamidan foydalanish huquqiga ega [12].

Ko'rib chiqilayotgan huquq MDHning Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi konvensiyasi 6-moddasi 3-qismining "d" bandida ham nazarda tutilgan bo'lib, unda jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxs **"agar u sudda qo'llanilayotgan tilni tushunmasa yoki bu tilda gapira olmasa, tarjimonning bepul yordamidan foydalanish"** huquqiga ega ekanligi belgilangan [13].

Jinoyat protsessida tarjimonning ishtiroki masalasi bo'yicha xalqaro-huquqiy pozitsiya, aslida, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan Germaniyaga qarshi Ludeke, Belkasem va Koch ishi bo'yicha qarorida shakllangan. Bu qaror sud tili bo'lmagan tilni bilmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan bir qator protsessual kafolatlarni tushuntirib berdi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi o'z qarorida "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya"sining 6-moddasi 3-bandi "e" qismining mazmuni va maqsadi nuqtai nazaridan **bepul atamasi aniq va ma'lum ma'noga ega ekanligini, ya'ni tekinga, hech qanday to'lovsiz, be-minnat va to'lamasdan foydalanish mumkin bo'lgan degan** ma'nolarni anglatishini tushuntirdi. Shuning uchun "bu atama ma'lum shartlar asosida to'lovdan ozod qilishni, vaqtinchalik to'lov imtiyozlarini yoki to'lovni to'xtatib turishni emas, balki to'lash zaruratidan to'liq va mutlaq ozod etishni anglatadi" [14]. Shu asosda, sud 6-modda 3-bandining "e" qismi sudda qo'llaniladigan tilni bilmaydigan yoki tushunmaydigan har bir shaxsga keyinchalik yuzaga kelgan xarajatlarni o'z zimmasiga yuklamasdan tarjimonning bepul yordamidan foydalanish huquqini beradi» degan xulosaga keldi (ko'rsatilgan qarorning 46-bandi). Bunda "6-modda 3-bandining "e" qismi bilan kafolatlangan odil sudlov huquqi doirasida, "e" kichik bandi sudda ishlatiladigan tilni tushunmaydigan yoki so'zlasha olmaydigan ayblanuvchi o'ziga qarshi qo'zg'atilgan ish bo'yicha barcha hujjatlar yoki bayonotlarni yozma yoki og'zaki tarjima qilish uchun tarjimonning bepul yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Bu unga sodir

bo'layotgan voqealarni tushunish va o'z huquqlariga rioya etilishini kafolatlash uchun zarurdir" (ko'rsatilgan qarorning 48-bandi) [14].

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining tushuntirishlarini umumlashtirib, shuni ta'kidlash lozimki, "muayyan ish bo'yicha sud jarayonida tarjimon yordamining hajmi himoya tomonining ehtiyojlariga mos kelishi kerak". Bunda "jinoyat sudlov ishlarini yuritish tilini bilmaydigan subyekt uchun **bepul tarjimon yordamini olish huquqi universal bo'lib**, ishning holatlari yoki ushbu subyektning protsessual maqomidan qat'i nazar amal qiladi. Shuning uchun jinoyat sudlov ishlarini yuritish jarayonida tarjimon ishtirokini ta'minlash bo'yicha barcha xarajatlar odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat zimmasiga yuklanishi lozim" [15].

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi JP-Kning 318-moddasi 2-qismida mustahkamlangan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning qonuniy vakili, vafot etgan ayblanuvchining vakili, himoyachi, fuqaroviy javobgar va uning vakiliga tarjimon yordami ko'rsatish tufayli yuzaga kelgan xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish qoidasi shaxs huquqlarini himoya qilishning yuqori huquqiy standartlariga asoslanadi. Bu qoida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga mos keladigan huquqiy tamoyillarni tasdiqlashga intilishini aks ettiradi.

Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan barcha xalqaro hujjatlarda faqat himoya tomonining ayblanuvchi, uning qonuniy vakili, vafot etgan ayblanuvchining vakili, himoyachi, fuqaroviy javobgar va uning vakili **tarjimonning bepul yordamidan foydalanish huquqi to'g'risida** so'z yuritiladi. Bunday holda, tarjimonning jinoyat protsessida ishtirok etishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash masalasi yuzaga keladi. Bu ishtirok jinoyat ishi bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsning huquqlarini ta'minlash maqsadlari bilan emas, balki faqat **ayblov tomonining manfaatlarini ta'minlash maqsadlari bilan bog'liq bo'lsa-chi?** Shu munosabat bilan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasi 3-bandi "e" qismini amalga oshirish amaliyoti e'tiborni tortadi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi 18.11.2004-yilda ko'rib chiqilgan "Akbingol Germaniyaga qarshi" ishida mahkumdan uning **turk va kurd tillaridagi telefon suhbatlari tarjimasi qiymatini** undirishni qonuniy deb topdi. Bu suhbatlarning mazmuni



ayblov xulosasiga asos qilib olingan edi. Sud bunday qarorni chiqarishiga sabab, tarjima jinoyatni tergov qilish maqsadida amalga oshirilgan, aybdorning himoyasi uchun emas (chunki aybdor ularning mazmunini allaqachon bilgan), ya'ni Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasi 3-bandining "e" qismida nazarda tutilgan maqsad uchun qilinmagan [16, 71-72-betlar].

Haqiqatan ham, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi zimmasiga **ayblov tarafining maqsadlari uchun tarjimonni jalb qilish xarajatlaridan iborat protsessual chiqimlarni qoplash** majburiyatini yuklash imkoniyati protsessual chiqimlar institutining oldini olish va kompensatsiya qilish funksiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Chunki bu xarajatlarni jinoyat protsessini yurituvchi organ gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan materiallar va jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishga qarshilik ko'rsatilganligi sababli ko'p jihatdan majburan to'laydi.

Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlardagi ko'rsatmalar ushbu turdagi xarajatlar uchun kompensatsiya olishni taqiqlamaydi.

Keltirilgan yondashuv gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning qonuniy vakili, vafot etgan ayblanuvchining vakili, himoyachi, fuqaroviy javobgar va uning vakili tomonidan ularning odil sudlovdan foydalanishini ta'minlaydigan tarjimonning bepul yordamini olish kabi inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro-huquqiy standartni so'zsiz amalga oshirishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki jinoyat protsessini yurituvchi organda davlat hisobidan tarjimonning ishtirokini ta'minlash majburiyati saqlanib qoladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan holatlardan kelib chiqib, jinoyat sudlov ishlarini yuritish ilmiy bilimlarni, chet tillarini va imo-ishora tilini qo'llashni ta'minlay oladigan maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxslarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bunday shaxslar mehnatiga haq to'lash ularni jinoyat sudlov ishlariga jalb etishning muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli, protsessual xarajatlarning ushbu turi zarur, asosli va qonunchilikda yanada rivojlantirish hamda huquqshunoslik fanida chuqur o'rganishga loyiqdir.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/docs/64451452>.
2. <https://lex.uz/docs/1114603>.
3. Вилкова Т.Ю. Принцип языка уголовного судопроизводства: история, современность, перспективы: монография. – М., 2018. – С. 47.
4. <https://www.lex.uz/uz/docs/6647112>
5. <https://lex.uz/docs/121051>
6. О праве на информацию в уголовном судопроизводстве [Электронный ресурс] : директива Европейского Парламента и Совета Европейского Союза, 26 апр. 2012 г. // Права арестованных – право на информацию / Информационный бюллетень № 2. – Режим доступа:
7. Про внесення змін до деяких законодавчих актів України у зв'язку з прийняттям Кримінального процесуального кодексу України : Закон України – X // Уголовно-процессуальный кодекс Украины / пер. Л.И. Фокина. – б.г. : Одиссей, 2012. – 384 с.
8. Свод принципов защиты всех лиц, подвергаемых задержанию или заключению в какой бы то ни было форме [Электронный ресурс] : принят резолюцией 43/173 (XLIV) Генер. Ассамблеи, 9 декабря 1988 г. // Организация Объединенных Наций. – Режим доступа: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/detent.shtml. – Дата доступа: 28.02.2017.
9. Рекомендация № R (81) 7 Комитета министров государствам-членам относительно путей облегчения доступа к правосудию [Электронный ресурс] : принята Комитетом министров Совета Европы, 14 мая 1981 г. // ОО «Сутяжник» – Режим доступа: [http://sutyajnik.ru/rus/echr/res_com_of_min/ResR\(81\)7.htm](http://sutyajnik.ru/rus/echr/res_com_of_min/ResR(81)7.htm). – Дата доступа: 28.02.2017. 2019 ВЕСТНИК ПОЛОЦКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА. Серия D 144
10. Международный пакт о гражданских и политических правах [Электронный ресурс] : одобр. резолюц. 2200 (XXI) Генер. Ассамблеи Организации Объединенных Наций, 16 дек. 1966 г. // КонсультантПлюс. Беларусь / ООО «ЮрСпектр», Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь. – Минск, 2019.
11. Рамочная конвенция о защите национальных меньшинств [Электронный ресурс] : [заключена в г. Страсбурге 01.02.1995 г.] // Режим доступа: <http://hrlibrary.umn.edu/euro/Rets157.html>. – Дата доступа: 28.02.2017.
12. Конвенция Совета Европы о защите прав человека и основных свобод [Электронный ресурс] : [заключена в г. Риме 4.11.1950 г.] : в ред. протокола от 19.03.1985 // КонсультантПлюс. Беларусь / ООО «ЮрСпектр», Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь. – Минск, 2019.
13. Конвенция Содружества Независимых Государств «О правах и основных свободах человека» [Электронный ресурс] : [заключена в г. Минске 26.05.1995 г.] // КонсультантПлюс. Беларусь / ООО «ЮрСпектр», Нац. центр правовой информ. Респ. Беларусь. – Минск, 2019.
14. Дело «Людеке, Белкасем и Коч против Германии» [Электронный ресурс] : постановление Европ. суда по правам человека, 28 нояб. 1978 г., серия А № 29 // Анищик Олег Олегович. – Режим доступа: <http://europeancourt.ru/resheniya-evropejskogo-suda-na-russkom-yazyke/lyudike-belkasem-i-koch-protiv-federativnojrespubliki-germanii-postanovlenie-evropejskogo-suda/>. – Дата доступа: 01.03.2017.
15. Кузнецов О.Ю. Переводчик в российском уголовном судопроизводстве [Электронный ресурс] / О. Ю. Кузнецов // КонсультантПлюс. Россия / ЗАО «КонсультантПлюс». – М., 2019.
16. Вашкевич А.Е. Право на бесплатную помощь переводчика в Европейской конвенции по правам человека и практике Европейского Суда по правам человека / А.Е. Вашкевич // Европейская Конвенция по правам человека и уголовное правосудие: сб. материалов / Правовая инициатива, Общество сравнительно-правовых исследований; под общ. ред. В.В. Филиппова; науч. ред. А.Е. Вашкевич; авт. предисл. Т. Термачич. – Минск: Медисонт, 2012. – С. 67-76.



“Tashkent Law Spring” 2025 IV Xalqaro Yuridik forumi

**doirasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan
o'tkazilgan tadbirlar haqida**

Joriy yilning 29-30 may kunlari “Tashkent Law Spring” IV xalqaro yuridik forumi bo'lib o'tdi. Bu yilgi tadbirning asosiy mavzusi – “Raqamli texnologiyalar davri: kelajakka huquqiy nazar” bo'lib, jahon yuridik hamjamiyatini raqamlashtirish jarayonidagi yangi tahdidlar va imkoniyatlarni muhokama qilishga qaratildi.

Forumda 1 200 nafarga yaqin ishtirokchi, shu jumladan 150 nafarga yaqin xorijiy spiker va rasmiylar, 40 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlardan vakillar qatnashishdi.

Forum doirasida 20 ga yaqin tadbir, jumladan plenar sessiya, mahorat darslari, davra suhbatlari, 4 ta ko'rgazma, shuningdek, ilk bor Xalqaro yoshlar yuridik forumi ham o'tkazildi.

Forum doirasida **sud ekspertiza faoliyatiga** oid bir qator quyidagi tadbirlar ham tashkil etildi.

Xususan, dastlab 29 may kuni Respublika sud ekspertiza markazida “**Sud ekspertizada yangi texnologik yechimlar**” mavzusida sessiya tashkil etildi.

Mazkur tadbirning asosiy maqsadi sud-eksper-



tiza sohasining **zamonaviy holati** va **muammolarini tahlil qilish**, xorijiy sud ekspertiza muassasalarida **mavjud ilg'or tajribalarni o'rganish**, **uni kengroq tatbiq etish** hamda sohani **yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar** ishlab chiqish uchun **muhokama maydonini yaratish** hisoblanadi.

Mazkur sessiyada xorijiy sud ekspertiza tashkilotlari rahbarlari hamda soha mutaxassislari, xususan, Osiyo sud ekspertiza tarmog'i (AFSN) prezidenti **Nor Eydora Saydon**, Rossiya Federatsiyasi Adliya vazirligi huzuridagi professor A.R.Shlyaxov nomidagi Rossiya Federal sud ekspertizasi markaz i direktori **Vitushkin Vyacheslav Aleksandrovich**, Polsha politsiyasi Markaziy sud ekspertiza laboratoriyasi boshlig'i o'rinbosari **Anna Przevor**, Ozarbayjon Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud ekspertiza markazi rahbari **Elshan Albandov Vali** o'g'li, Qozog'iston Respublikasi Ad-

vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda xorijiy ekspertiza tashkilotlarining rahbarlari va xorijiy ekspertlar, shuningdek mamlakatimizning davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan sud ekspertiza sohasidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalar muhokama qilindi.

Jumladan, *"X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining faoliyati, amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi hamkorlikdagi vazifalar"*, *"Rossiya Federatsiyasida sud-ekspertiza faoliyatini rivojlantirishning yangi yo'nalishi"*, *"Polsha politsiyasi Markaziy sud ekspertiza laboratoriyasi faoliyati"*, *"Qozog'iston Respublikasidagi ekspertiza tizimi: kecha va bugun"*, *"Gruziya Respublikasi Levan Samxarauli nomidagi Milliy Sud-ekspertiza byurosida raqamli ekspertizalar"*, *"Turkiya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud tibbiyot institutida Biologik ekspertizalar ahamiyati"*, *"Ozarbayjon Respublikasi Adliya*



liya vazirligi huzuridagi sud ekspertiza markazi direktori **Baytilesov Bakitjan Tolenovich**, Gruziya Respublikasi Levan Samxarauli nomidagi Milliy Sud-ekspertiza byurosi direktor o'rinbosari **Pavle Giorgadze**, Turkiya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud tibbiyot instituti Diyarbakir mintaqasi Biologiya bo'limi boshlig'i **Altan Gunaydin**, Ozarbayjon Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertiza markazi biologik ekspertizalar bo'limi boshlig'i **Sabina Gadirova**, **Turkiya, Polsha, Gruziya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi** kabi davlatlarning sud ekspertiza muassasalari rahbarlari bilan birgalikda mamlakatimizdagi barcha davlat sud-ekspertiza muassasalari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining **150 nafar**

vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi markazida yangi psixoaktiv moddalarni tadqiqot qilish" kabi mavzularda fikr almashilib, bu borada hamkorlik qilish bo'yicha takliflar bildirildi.

Shuningdek, Forum ishtirokchilariga sud ekspertizasini rivojlantirish uchun **O'zbekistonda NGS texnologiyalari** asosida odam DNKsi biologik tadqiqotlar yo'lga qo'yilganligi, sud ekspertizasini tayinlashda sud-tergov organlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash uchun **"E-ekspertiza"** axborot tizimi joriy etilganligi, **500 dan** ortiq uslubiyotlar qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirilganligi, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi **ISO-17025** xalqaro standart talablari-ga muvofiqligi bo'yicha xalqaro sertifikatga ega bo'lganligi kabi amalga oshirilgan ishlar bo'yicha



ma'lumotlar va tajribalar bilan tanishtirib o'tildi.


Shu bilan birga, **"Sud ekspertiza imkoniyatlari"** mavzusi bo'yicha mamlakatimizda sud ekspertizaning imkoniyatlarini ochib beruvchi ixtisoslashtirilgan asbob-uskuna va jihozlarning ko'rgazmasi tashkil etildi.


Bundan tashqari, Forum doirasida X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida xorijiy mutaxassislar ishtirokida sud ekspertlari uchun **"Raqamli sud ekspertizasi yangi**

tendensiyalari" mavzusida master klass va davra suhbatlari tashkil etilib, sohadagi yangiliklar xususida o'zaro tajriba almashildi.

Jumladan, **30 may** kuni **InterContinental Tashkent** mehmonxonasining **"Amudaryo"** zalida **"Sud ekspertiza sohasining rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari – raqamli sud ekspertizasi ning kelajagi"** mavzusida sessiya tashkil etildi.

Ushbu sessiyada **"Sud DNK tahlili sohasidagi yutuqlar: rivojlanayotgan texnologiyalar va ul-**





arning ilmiy ekspertizaga ta'siri" mavzusida **Nor Aidora Sayedon**, "Sud ekspertlik faoliyatida sun'iy intellektidan foydalanish" mavzusida **Vitushkin Vyacheslav Aleksandrovich**, "Ozarbayjon Respublikasi Adliya vazirligi sud ekspertizasi markazining imkoniyatlari: kecha, bugun va kelajak" mavzusida **Elshan Albandovali** o'g'li, "Qozog'istonda sud ekspertizani raqamlashtirish – odil sudlovni modernizatsiya ustuvorligi" mavzusida **Baytilesov Bakitjan Tolenovich**, "Hujjatlar texnik ekspertizasi o'tkazishda zamonaviy innovatsion qurilmalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish" mavzusida **Dubois Igor Valeryevichlar** tomonidan ma'ruzalar qilindi.

Shuningdek, ushbu tadbir doirasida Polsha politsiyasi Markaziy sud ekspertiza laboratoriyasi boshlig'i o'rinbosari **Anna Przevor** tomonidan "Elektron biometrik imzo - sud ekspertizasi yangilik" mavzusida, Turkiya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud tibbiyot instituti Raqamli sud ekspertiza bo'limi boshlig'i **Adnan Keche** tomonidan "Kriptovalyuta firibgarligi usullari va oldini olish choralari" mavzusida, Gruzija Respublikasi Levani Samxarauli nomidagi Milliy Sud-ekspertiza byurosi Axborot texnologiyalari bo'limi boshlig'i **Roland Makhmudov** tomonidan "Gruziyada sud ekspertizasi sohasida yangi texnologik yechimlar"

mavzusida, Inson huquqlari va jinoiy odil sudlov bo'yicha Sirakuza instituti, Italiya - Raqamli huquq kursi professori **Elena Lazăr** tomonidan "Sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilishda ekspertizadan foydalanish" mavzusida, KPMG Markaziy Osiyo va Kavkazda sud ekspertizasi bo'yicha hamkor, nizolar bo'yicha maslahat kengashi rahbari **Egor Misiura** tomonidan "Korporativ muhitda yangi ekspert echimlaridan foydalanish" mavzusida, AML maslahatchisi – Moliyaviy xatarlarini boshqarish va raqamli moliya bo'yicha eksperti **Tatyana Dmitrenko** tomonidan "Kriptovalyutalar bilan bog'liq jinoyatlar: Firibgarlik va pul yuvishga qarshi kurash usullari" mavzusida ma'ruzalar qilindi.

Bunday kengaytirilgan va professional formatdagi tadbir O'zbekiston va xorijiy davlatlarda sud-ekspertlik faoliyati sifatini oshirishga qaratilgan huquqiy islohotlarni kompleks va chuqur muhokama qilish, jahondagi yangi tendensiyalarni tahlil qilish imkonini beradi.

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik bilan
aloqalar bo'limi**

